



# ОБРАЗОВАНИЕ, НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

*Выпуск журнала № 38  
Часть-1\_ Февраль -2024*

OPEN  ACCESS



# ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

*международный научный электронный журнал*

Февраль - 2024 год

ЧАСТЬ - 1



## АКМЕОЛОГИК ЁНДАШУВ АСОСИДА БЎЛАЖАК ОФИЦЕРЛАРДА КОГНИТИВ КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ

Абдураҳимова Даҳона,

O'zbekiston Respublikasi Harbiy Tibbiyat Akademiyasi, Tibbiyat xizmatining  
tuzilishi va taktikasi kafedrasi professori, p.f.d.(DSc), professor

**АННОТАЦИЯ.** Ушбу мақолада акмеологик ёндашув асосида бўлажак офицерларда когнитив компетентликни ривожлантириш технологиясини тадқиқ этиш масалалари ёритилган.

**Калит сўзлар:** акмеология, когнитив компетентлик, кредит модуль, креатив шахсий ривожланиш, семантик алоқа, мотивацияни рафбатлатловчи методлар, психик ва касбий ривожланиш, шахс.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье рассматриваются вопросы исследования технологии развития когнитивной компетентности у будущих офицеров на основе акмеологического подхода.

**Ключевые слова:** акмеология, когнитивная компетентность, кредит-модуль, творческо-личностное развитие, смысловая коммуникация, методы стимулирования мотивации, психико-профессиональное развитие, личность.

**ANNOTATION.** This article covers the issues of research on the technology for the development of cognitive competence in future officers on the basis of an acmeological approach.

**Keywords:** acmeology, cognitive competence, credit module, creative and personal development, semantic communication, methods of stimulating motivation, psycho-professional development, personality.

Янги Ўзбекистон армиясининг тараққиёти ва истиқболини белгилаш, ривожланган жаҳон ҳамжамияти мамлакатлари армиялари сафидан муносиб ўрин эгаллашга интилиши бугунги кунда кенг қўламли ислоҳотларни амалга ошириш билан кечмоқда. Жаҳоннинг ривожланган мамлакатлари армиялари тажрибаларини ўрганиш, маҳаллий шарт-шароит, иқтисодий ва интеллектуал ресурсларни инобатга олган ҳолда жамият ҳаётининг барча соҳаларида, жумладан, Ўзбекистон армиясида ҳам туб ислоҳотларнинг амалга оширилаётганлиги янгидан-янги ютуқларга эришишни таъминламоқда. Замонавий талаблар инобатга олинган ҳолда, бўлажак офицерларда когнитив компетентликни ривожлантиришни мунтазам такомиллаштириб бориш ишларини ташкил этиш бугунги куннинг долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади.

Жаҳон миқёсида компетенциявий ёндашув асосида бўлажак офицерларнинг акмеологик қобилиятини таркиб топтириш, кредит-модул тизими шароитида бўлажак офицерларнинг когнитив компетентлигини ривожлантиришнинг дидактик тизимини такомиллаштиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Айниқса, бўлажак ҳарбий хизматчиларни тайёрлаш жараёнига инновацион технологияларини кенг жорий этиш, акмеологик ёндашув асосида курсантларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш, курсантларнинг мустақил ва индивидуал таълим траекториясини самарали ташкил этиш орқали билиш фаоллигини ошириш муҳим ўрин эгалламоқда. Шунингдек, бўлажак офицерларнинг ҳарбий фаолиятни амалга оширишга тайёрлиги ва қобилиятини акс эттирувчи интегратив ўзига хослик сифатида компетенциявий ёндашув билан кредит-модул тизимининг ўзаро уйғулигини таъминлаш алоҳида долзарблик касб этмоқда.

Дунёда кредит-модул тизимини жорий этишда инновацион технологияларидан фойдаланишининг мақбул механизмларини ишлаб чиқиш, бўлажак офицерларнинг индивидуал таълим траекториясини лойихалаш, таянч компетенциялар натижаси сифатида бўлажак офицерларнинг когнитив компетентлигини ривожлантиришга доир қатор илмий изланишлар олиб борилмоқда. Шу билан бирга, бўлажак офицерларда когнитив компетентликни ривожлантириш жараёнини акмеологик таълим муҳити билан интегративлигини таъминлаш, курсантларда ўз-ўзини касбий такомиллаштириш истагини қарор топтириш, мустақил ҳарбий -касбий билимларни ўзлаштириш кўникма ва малакаларини, креативлик, янги педагогик қадриятларни ўзлаштиришга қобилиятлиликни ривожлантиришнинг дидактик шарт-шароитларини такомиллаштириш муҳим устуворлик касб этмоқда.

Республикамизда олий ҳарбий таълим муассасаларида тарбия ва ўқитиши усуслари, ахборот-коммуникация технологиялари ҳамда хорижий тилларни пухта ўзлаштирган, таълим жараёнида замонавий педагогик технологияларни қўллаш кўникмаларига эга профессионал ҳарбий кадрлар тайёрлаш, олий ҳарбий таълим муассасаларига таълимига рақамли технологияларни жорий этиш, замонавий ахборот-коммуникация ва таълим технологияларининг мустаҳкам интеграциясини таъминлаш пировардида ҳарбий кадрларнинг касбий маҳоратини узлуксиз ривожлантириб бориш учун қўшимча шароитлар яратишга катта эътибор қаратилмоқда. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида “Таълим ва ўқитиши сифатини баҳолашнинг халқаро стандартларини жорий этиш асосида олий ҳарбий таълим муассасалари фаолиятининг сифати ҳамда самарадорлигини ошириш” [1] каби муҳим вазифалар белгиланди. Бу эса, бўлажак офицерларнинг когнитив компетенциялари тузилмаси ва компонентларини аниқлаштириш,

акмеологик ёндашув асосида бўлажак ҳарбийларда когнитив компетентликни ривожлантириш технологиясини такомиллаштиришни тақозо этади.

Республикамизда компетенциявий ёндашувни амалга оширишнинг назарий асослари, касбий компетентлигини ривожлантириш, талаба ва курсант, тингловчиларнинг ўқув-билиш фаолиятини такомиллаштиришнинг дидактик параметлари, таълимни ахборотлаштириш шароитида бўлажак офицер-кадрларнинг когнитив компетентлигини ривожлантиришнинг айrim жиҳатлари У. Иноятов, Н. Муслимов, М. Ваҳобов, М. Мирсолиева, Б. Маъмурев, Л. Бектурсынова, М. Пардаева, Ж. Отепбергенов каби олимлар томонидан тадқиқ этилган.

Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги (МДҲ) мамлакатлари олимларидан М. Ахметов, А. Базаева, Л. Бочарова, Е. Вязовова, Т. Добрыдина, И. Дульчаева, Э. Зеер, Т. Коротенко, Л. Осипова, А. Пилигин, В. Пустовойтов, С. Рослякова, Л. Семина каби олимлар томонидан замонавий ижтимоий-иқтисодий вазиятларда талабаларнинг касбий-билиш фаоллигини шакллантириш, модул-рейтинг тизими асосида талабаларнинг ўқув-билиш компетентлигини таркиб топтириш, информацион-таълимий лойиҳалар воситасида талабаларнинг когнитив компетентлигини ривожлантириш масалалари бўйича илмий изланишлар олиб борилган.

Хорижлик олимлардан Т. Бьюзен, М. Бернис, М. Пиетра, Е. Терхарт, Р. Дюнн, Т. Маес, Н. Герман каби каби олимлар томонидан талабаларда суперфикарлашни шакллантириш, ўқитишнинг модулли ва ахборот технологиялари интеграциясини таъминлаш масалалари ўрганилган.

Бироқ акмеологик ёндашув асосида бўлажак офицерларнинг когнитив компетентлигини ривожлантириш мазмуни, тузилмаси, компонентлари, мезонлари, кўрсаткичлари, когнитив компетентликни ривожлантириш механизми сифатида акме шахс модели, бўлажак ҳарбий хизматчиларда когнитив компетентликни ривожлантиришнинг технологик жиҳатлари маҳсус тадқиқ этилмаган. Бу эса, акмеологик ёндашув асосида бўлажак офицерларнинг когнитив компетентлигини ривожлантиришнинг технологиясини такомиллаштириш юзасидан илмий-тадқиқот олиб боришни тақозо этди.

Педагогик кузатишларимиз натижасида акмеологик ёндашув асосида бўлажак офицерларда когнитив компетентликни ривожлантириш технологиясини такомиллаштириш бугунги ҳарбий педагогика фани олдида турган долзарб муаммолардан бири эканлигини нуктаи назаридан қўйидаги вазифаларни амалга оширишни режалаштиридик:

- кредит-модул тизимида когнитив компетентликнинг ўрни ва аҳамиятини кредит-модул тизимида когнитив компетентликнинг ўрни ва аҳамиятини

- кредит-модул тизимида когнитив компетентликнинг ўрни ва аҳамиятини ёритиб бериш;
- бўлажак ўқитувчиларда когнитив компетентликни ривожлантиришнинг бўлажак офицерларда когнитив компетентликни ривожлантиришнинг акмеологик хусусиятларини аниқлаштириш;
- когнитив компетентликни ривожлантириш механизми сифатида акме ҳарбий хизматчи шахси - шахс моделини такомиллаштириш;
- бўлажак офицерларда когнитив компетентликни ривожлантиришнинг акмеологик технологиясини такомиллаштириш.

Акмеологиянинг предметида шахс индивидуал фаолиятининг барча соҳаларида эришган максимал етукликка эга бўлиши лозим деган концепция юзага келган. Максимал етуклик шахс ривожининг юқори чўққиси ва индивидуал фаолият билан боғлиқ экан, демак ана шу чўқки юончада “акме” дейилади ва бу соҳа акмеология деб юритилади.

Акмеология изчиллик, яъни мукаммаллик чўққисига интилиш, бу – инсон ҳаётининг ажralmas хусусияти бўлиб, бу ибора орқали шахсий, касбий ривожланиш ва ўзини-ўзи такомиллаштиришга мойиллик англаради. Б.Г. Ананьевнинг фикрича, акмеологиянинг илмий асоси, инсоннинг ривожланишида индивид, шахс, индивидуаллик ва субъектнинг ҳаёт фаолияти ҳақидаги фанлар интеграциясидан ташкил топган [2]. Акмеология предмети одамнинг ижодий салоҳияти бўлиб, у инсон томонидан ўзига иноят этилган барча имкониятлар ва иқтидорни қандай қилиб, қандай шарт-шароитларда, қайси қонуниятлар таъсирида руёбга чиқаришини комплекс тарзда ўрганади. Акмеологияда инсоннинг касбий фаолияти ва ўз ҳаётини ўзи белгилаши, ўзини-ўзи ривожлантириши ва ижодкорлик қобилиятини шакллантириши, унинг ҳаётий фаолияти субъект сифатида қараб чиқилади. Акмеология фанининг асосий вазифаси онгли фаолият субъекти бўлмиш шахсни турли фаолият жараёнларида, хусусан, танлаган касби, ихтисослиги доирасида ўз ижодий салоҳиятини тўла очиш ва амалда намойиш этишига боғлиқ бўлган билимлар, амалий кўникмалар, малакалар, технологиялар билан таъминлашдир.

В. Каримова “ҳар бир тараққиёт даврининг ўзига хос аҳамиятли томони бор, охирги йилларда акмеология фани пайдо бўлди, у айнан етукликка эришишнинг шарт-шароитлари ва омилларини ўрганади, давр нуқтаи назардан айни муҳокама қилинаётган ёш даврларининг хусусиятларини ўрганади” [3], деб таъкидлайди. Демак, ҳар бир ёш даврларида шахсда турли динамик хусусиятдаги акмеологик ривожланишни башорат қилиш мумкин. М.М. Кашапов инсон ёш даврларида психик ва касбий ривожланиш босқичларини қўйидагича босқичларга ажратган:



I. Касбгача бўлган ривожланиш

1.1. Ўйиндан олдинги ривожланиш (Зёшгача);

1.2. Ўйин босқичи (мактабгача болалик 3-7 ёшгача);

1.3. Ўқув фаолиятини ўзлаштириш босқичи (7-8 дан 11-12 гача бўлган ёш)

II. Касб танлаш давридаги ривожланиш

2.1. Оптация босқичи (ҳаётга онгли тайёргарлик, меҳнат, касб йўлини режалаштириш, касб танлаш даври 13-13 дан 14-18 ёшгача)

III. Касбий тайёргарлик ва келгуси касбий маҳоратга эришиш давридаги ривожланиш

144

3.1. Касбий таълим босқичи (15-19 дан ёки 16-23 ёш);

3.2. Касбий мослашув босқичи (17-21 дан 24-27 ёшгача);

3.3. Касбий маҳоратнинг ривожланиш босқичи (21-27 дан 45-50 ёшгача);

3.4. Касбий маҳоратни намойиш этиш даври (46-50 ёшдан 60-65 ёшгача);

3.5. Сустлашиш босқичи (61-65 ёш) [4].

Замонавий олий ҳарбий таълим муассасаси учун акмеологик ёндашув бугунги қунда келажакли ва истиқболли бўлиб, унинг мохияти шундан иборатки, юқори марраларга эришишга таъсир этиш мумкин бўлиши учун субъектга комплекс текширув ўтказилиши ва яхлитлигини қайта тиклаши, етуклика эришишга ўтишда, унинг индивид, шахс ва субъект сифатида-фаолият характеристикиси барча ўзаро алоқадорликлар ва вужудга келтирувчи сабаблар билан биргаликда ўрганилади. Бу ҳарбий таълимдаги инновацион ёндашувлардан бири бўлиб, курсант ўз, шахсий ақмесини аниқлаб олиши учун унда ўша танлаган ихтисослигига нисбатан кучли ундовчи мотивлар, ҳаётда эса муваффақиятларга эришиш мотиви ёки ютуқларга эришиш эҳтиёжи кучли ривожланади. Бўлажак офицерларни касбий фаолиятга тайёрлашда, ундаги шахсий сифатлар ва фазилатлари, унинг индивидуал қиёфасида намоён бўлади.

#### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ – 60 - сонли Фармони.

2. Ананьев Б. Человек как предмет познания. – Питер, 2001. – С. 145.

3. Каримова В.М. Ижтимоий психология асослари. – Т.: “Ўқитувчи”, 1994.

– Б. 98.

4. Кашапов М.М. Психология творческого мышления профессионала: монография / М.М. Кашапов. – Москва: ПЕР СЭ, 2017. – С. 688

5. Фарберман Б. А., Мусина Р.Г., Жумабоева Ф.А. —Олий ўқув юртларида ўқитишининг замонавий усуллари‖. – Тошкент, 2002. - 192 б





**YOSHLARDA MA’NVIY-MADANIY BARKAMOLLIKNI  
SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIY-GUMANITAR  
FANLARNING O’RNI**

**Taxir Maxamatjonovich Burxanov**

*O’zbekiston Respublikasi Harbiy Tibbiyot Akademiyasi,  
Tibbiyot xizmatining tuzilishi va taktikasi kafedrasi professori,  
p.f.f.d.(PhD), dotsent.*

**Annotation:** Mazkur maqolada ijtimoiy - gumanitar fanlar o‘qitilishi va ma’naviy ma’rifiy tadbirlar orqali, yoshlarimiz qalbida milliy tafakkur va sog‘lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash haqida fikrlar ёритilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ma’naviyat, madaniyat, ijtimoiy-gumanitar, komil inson, barkomollik, milliy g‘urur, vatanparvarlik.

**Аннотация:** В данной статье освещаются идея об укреплении основ национального мышления и здорового мировоззрения в сердцах нашей молодежи посредством преподавания социальных и гуманитарных наук и духовно-просветительских мероприятий.

**Ключевые слова:** Духовность, культура, социогуманитарный, совершенный человек, совершенство, национальная гордость, патриотизм.

**Abstract:** This article highlights the idea of strengthening the foundations of national thinking and a healthy worldview in the hearts of our youth through the teaching of social and human sciences and spiritual and educational events.

**Key words:** Spirituality, culture, socio-humanitarian, perfect person, perfection, national pride, patriotism.

Jamiyat barkamolligini ma’naviy-madaniy omillar belgilaydi. Shu jihatdan bizning maqsadimiz kelajakda komil insonlarni tarbiyalash ekan, bugungi kunda yoshlar ma’naviyatiga asosiy e’tibor qaratishimiz lozim. Mamlakatmiz mustaqillikka erishgan kundanoq yoshlarning barkamol inson bo‘lib ulg‘ayib etishiga alohida e’tibor qaratildi. Bu borada ularning vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi uchun barcha sharoitlar, xususan, huquqiy, siyosiy, ijtimoiy asoslar yaratildi. Biroq, amalga oshirilgan tadbirlarimizning ayrim jihatlari o‘zining asosiy maqsadiga erisha olmadidi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqida tanqidiy fikr bildirib “yoshlarni harbiy-vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash va o‘qitish, navqiron avlodimizni bizning xalqimizga mutlaqo begona bo‘lgan buzg‘unchi g‘oyalardan himoya qilish masalalariga zarur darajada e’tibor qaratilmadi”[1], - deya ta’kidladi.

Ijtimoiy - gumanitar fani o‘qituvchisining birlamchi vazifasi o‘quvchilarda vatanparvarlik, milliy g‘urur tuyg‘ularini shakllantirish, ularni ma’naviy barkamol, g‘oyaviy sobit, ijtimoiy faol, qalbi pok va irodasi mustahkam qilib tarbiyalashdir.

Barcha tinchliksevar mamlakatlar singari O‘zbekiston Respublikasida ham inson huquq va erkinligi, davlat va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, fuqarolar uchun erkin va farovon hayot kechirishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish kabi vazifalari mavjud.



Albatta mamlakat yoshlarida bu vazifalarni amalda ta'minlash ko'nikmasi ortgan, malaka va tajribasi shakllangan bo'lishi maqsadga muvofiq. Ularda vatanparvarlik qiyofasi yoshlikdan shakllangan bo'lishi mamlakat taraqqiyotida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada, ta'lif va tarbiya tizimining bosh bo'g'inlaridan biri hisoblangan ma'naviy - ma'rifiy bo'limlar ham bevosita ijtimoiy - gumanitar fan o'qituvchilari bilan aloqadorlikda ish yuritib o'z faoliyatini, ularning tajribalari bilan uzviy bog'liqlikda olib borishi lozim. Negaki, bugungi globallashuv davrida ma'naviy - ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, ularni hayotga ongli munosabatini shakillantirish, mamlakatimiz hayotida bo'layotgan voqeliklarga dahldorlik hissini oshirish, tinchligimizga tahdid solayotgan turli tajovuzlarga qarshi tura olish imkoniyatlarini yaratadi.

Ijtimoiy - gumanitar fanlar o'qitilishi va ma'naviy ma'rifiy tadbirdargi amaliy uyg'unlik yoshlarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlaydi, ularni ongli yashashga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lishga, turli mafkuraviy tajovuzlarga qarshi turishga yo'naltiradi.

Hozirgi kunda dunyoda kuchayib borayotgan turli ma'naviy tahdidlarning oldini olish, "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'siridan farzandlarimizning ongu tafakkurini himoya qilishda ilmu fan va madaniyat jamoatchiligi, ijod ahlining o'rni va roli bilan bir qatorda ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan tarbiyaviy ahamiyati yuksak baholanuvchi milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va ma'naviy merosimiz namunalarining o'rni tobora ortib bormoqda.

Bu masalalarni echimi va hal etilishi ijtimoiy - gumanitar fani o'qituvchilari oldiga hamda ma'naviy-ma'rifiy bo'lim mutassadilari oldiga bir qancha aniq vazifalarni qo'yadi. Xususan, fan o'qituvchilari hayotiy tajribaga tayangan holda o'z kasblari bo'yicha etuk mutaxassis bo'lishlari va o'z fanlari bo'yicha hamda dunyoda ro'y berayotgan so'nggi yangiliklarni ham atroflicha bilishlari, ma'naviy komillikni shakillantiruvchi misollar va tahliliy dalillar keltira olishlari, zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalana olish kabi hislatlarga ega bo'lishlari lozim.

Yoshlarni komil inson hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi umumilliy miqyosidagi vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki vatanparvar bo'lmagan inson o'z yurti, o'z xalqi uchun qayg'urmeydi, jonini fido qilmaydi. Zero, o'zbek ma'rifatparvari Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, har bir kishining tug'ilib-o'sgan shahar va mamlakatini shu kishining Vatani deyilur. Har kim tug'ilgan, o'sgan erini jonidan ortiq suyar. Hatto bu Vatan his-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z Vatanidan – uyuridan ayrilsa, o'z eridagi kabi rohat-farog'atda yashamas, maishati talx bo'lib, har vaqt dilining bir go'shasida o'z Vatanining muhabbati turar[2]. Demak, inson ongli mavjudot sifatida o'z Vatanini ulug'lashi, taraqqiyoti uchun qayg'urishi, tinchligi, xavfsizligi uchun kurashmog'i uning vatanparvarligidan, ma'naviy barkomolligidan dalolat beradi.

Bu masalalar ta'lif tizimining dolzarb yo'nalishi bo'lganligi bois o'qitilayotgan ijtimoiy - gumanitar fanlar mavzusini xulosalovchi, zamon bilan, milliy g'oyasi bilan, yurtimizning hozirgi davrdagi erishgan yutuqlari bilan taqqoslovchi,

o'quvchilarda ona yurtga muhabbat, kelajakka ishonch, vatanparvarlik hissiyotlarini uyg'otuvchi fikrlar bilan boyitib borilishi o'rinni bo'ladi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, Sharq falsafiy va ma'naviy dunyoqarashining hozirgi zamон G'arb fikriga ta'siri, avvalo, insonning ichki dunyosini falsafiy tushunish, mikrokoinot va makrokoinot uyg'unligi, ijtimoiy qurilish, axloqiy va estetik g'oyalarga hamda ma'naviy komillika taalluqli ekanligi bilan belgilanadi. G'arb tashqi dunyonи (tabiatni) nazariy jihatdan o'zlashtirishda muhim ko'rsatkichlarga va natijalarga erishgan bo'lsa, Sharq ham ichki dunyonи (insonni) bilish yo'lida qat'iy ta'sir qoldiruvchi yutuqlarga erishdi. Shu munosabat bilan akademik N.N.Konrad bu haqida shunday yozadi: "Har bir avlod uchun shuni yodda tutish zarurki, Sharqning inson va jamiyat haqidagi ilmining barcha sohalaridagi nazariy fikrini hisobga olmoq lozim, negaki, ayniqsa ana shu sohalar g'oyat mufassal va keng miqyosida Sharqda ishlab chiqilgan" [3].

O'z navbatida, Vatan tarixi, adabiyot, ona tili, huquqshunoslik fanlarining o'qitilishi, ma'naviyat soatlарining har bir mavzusi o'quvchilarda milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'usini shakillantirish uchun, mustaqillikning inson taqdiridagi o'rnini anglash, uni himoya qilish, yurt taqdiri va o'z taqdirining yagonaligini his etish, hayotga ongli munosabatni, ijtimoiy faoliy va daxldorlik tuyg'ularini rivojlantirishda asosiy omil bo'ladi.

Mustaqil davlatimizda yosh avlodni o'z vataniga mehr - muhabbatli, sodiq va barkamol, bilimdon, komil inson qilib voyaga etkazishning to'la imkoniyatlari yaratilganligi bois darslar jarayonida oddiy ma'ruzalar bilan cheklanib qolmay, balki bahs-munozaralar o'tkazish yoki savol-javob tarzida o'tkazish, darslarda yangi ta'lim texnologiyalarini qo'llash, elektron darsliklar, prezентasiya hamda ma'naviy-ma'rifiy videoroliklardan foydalanish bilan birga sog'lom fikrlashni singdirib kelmoqdalar. Bu borada, Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan fikri tarbiyaning mazmun-mohiyatini yaqqol olib bergan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da tarbiya so'ziga quyidagicha izoh keltirilgan: "Ta'lim, odob-ahloq va shu kabilarni o'rgatib, singdirib, insonni voyaga etkazish, ulg'aytirish, o'stirish" [4]. Bundan ko'rinadiki, ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi.

Hozirgi globallashuv davrida bir qator umumbashariy muammolarning paydo bo'lishi, tabiiyki butun dunyo xalqlarini tashvishga solmoqda. Bulardan biri chetdan milliylikka va millatga mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat"ning kirib kelishidir. Uning zararli ta'siri kundalik hayotimizga tezkorlik bilan kirib kelmoqda va turli ko'rinishlarda fuqarolarimiz, ayniqsa yoshlarimiz dunyoqarashini egallahsga intilmoqda. Ularning qalbi va ongini bo'ysundirishga harakat qilmoqda. Natijada, har kuyga solish oson bo'lgan fiksiz olomonni shakllantiradi va fiksizlik natijasida odamlar o'zga g'oyalarga tobe bo'lib qoladilar.

Shunga ko'ra, mafkuralar kurashi shiddatli kechayotgan murakkab davrda yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov ta'biri bilan aytganda, "...farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta'bir joiz bo'lsa, avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy

immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Toki yoshlarimiz milliy o‘zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, eamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo‘lib etishsin. Ana shunda johil aqidaparastlarning “da’vati” ham, ahloq-odob tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g‘oyalar ham ularga o‘z ta’sirini o‘tkaza olmaydi” [5].

Xulosa qilib aytganda gumanitar fanlar doirasida amalga oshiriladigan ma’naviy-ma’rifiy va ijodiy tadbirlarning o‘quv dargohlarida ko‘plab tashkil etilishi yoshlarni ma’naviy barkomollik immunitetini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Chunki, bu tadbirlardan yoshlar ma’naviy va mafkuraviy ozuqa oladilar, bo‘sh vaqtlarini bekorchi narsalarga emas, balki samarali o‘tkazadilar. Shunday ekan, ta’lim beruvchilarda asosiy kuch sifatida, o‘z kasbiga sadoqatlilik, malakali tajriba, bilimli, o‘ziga ishonch, so‘zlashish, kiyinish madaniyati, atrofdagilarni ishontira olish qobiliyati kabi hislatlar yuqori bo‘lishligi orqali har qanday o‘quv maskanlarida ta’lim oluvchilarning mafkurasiga ta’sir ko‘rsata olishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qurolli Kuchlar tashkil etilganining 26 yilligi arafasida Xavfsizlik kengashi yig‘ilishini nutqidan asosiy iqtiboslar. [Online]. URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2018/01/11/xavfsizlik-kengashi/>
2. O‘zbekiston – Vatanim manim: Metod-bibliogr. qo‘ll. /Alisher Navoiy nom. O‘zbekiston Milliy k-nasi; Tuzuvchi M.Matmuradova; Muhamarrir Shukur Qurbon; Mas’ul muhamarrir H.Mamatraimova. -Toshkent: Alisher Navoiy nom. O‘zbekiston Milliy k-nasi nashriyoti, 2009. - B. 9.
3. Konrad N.I. Zapad i vostok. – M.: 1972.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2006-2008. 3-jild, B.678.
5. Karimov.I.A. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch. -Toshkent: Ma’naviyat, 2008. –B.119-120.

## O'SMIRLIK DAVRIDAGI IJTIMOIYLASHUVNING SHAXSIY RIVOJLANISH DINAMIKASI

Z.A.Sotvoldiyeva

Andijon Davlat Universitetining  
1-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Zamonaviy psixologiyaning eng dolzarb muammolaridan biri - o'smirlikka o'tish davrida ijtimoiylashuv muammosi va uning dinamikasidir . Ushbu mavzuning dolzarbliji psixologlar, sotsiologlar va o'qituvchilarning o'smirlarni ijtimoiylashtirish jarayoniga qiziqishi ortishi bilan bog'liq. Ushbu muammoga qiziqish zamonaviy jamiyatda iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlarning davom etishi bilan bog'liq bo'lib, bu, albatta, aholining barcha guruhlarini sotsializatsiya va ijtimoiy-psixologik moslashish jarayoniga ta'sir qiladi. Biz uchun o'smirlarga e'tibor berish muhim, chunki ular nafaqat jamiyatning yangi sharoitlariga moslashishlari, balki ularga faol ta'sir ko'rsatishlari kerak.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiylashuv, ijtimoiy rol, individual ijtimoiylashuv, jamiyat , psixogenetik bosqich, simvolik bosqich, aqliy-konseptual bosqich, mexanizm, referent guruh, sotsializatsiya, ijtimoiy institut, mikrosotsium.

## ДИНАМИКА ЛИЧНОСТНОГО РАЗВИТИЯ СОЦИАЛИЗАЦИИ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

З.А.Сотвоздиева

Андижанский государственный университе магистрант 1 ступени

**Аннотация:** Одной из наиболее актуальных проблем современной психологии является проблема социализации и ее динамики в период перехода к подростковому возрасту. Актуальность данной темы обусловлена возрастающим интересом психологов, социологов и педагогов к процессу социализации подростков. Интерес к этой проблеме связан с продолжением экономических, политических и социальных изменений в современном обществе, что, безусловно, влияет на процесс социализации и социально-психологической адаптации всех групп населения. Нам важно уделять внимание подросткам, поскольку они должны не только адаптироваться к новым условиям общества, но и активно на них влиять.

**Ключевые слова:** социализация, социальная роль, индивидуальная социализация, общество, психогенетическая стадия, символическая стадия, ментально-понятийная стадия, механизм, референтная группа, социализация, социальный институт, микрообщество.



O'smirlilik bolaning jamiyatda o'z o'rnnini izlash bilan bog'liq sifat jihatidan yangi ijtimoiy mavqega kirishi bilan tavsiflanadi: o'smir o'zi, boshqalar, jamiyat haqida intensiv ravishda fikr yurita boshlaydi, urg'u boshqacha tarzda beriladi - oila, maktab, tengdoshlar yangi mavqega ega bo'ladilar. Ijtimoiylashuv – biron-bir voqeа-hodisa, shaxs yoki harakatning ijtimoiy mohiyat kasb etib, ko'pchilikka daxldor bo'lib, ijtimoiy munosabatlар mujassamiga aylanib borishini anglatadigan tushuncha. Madaniy muhitga moslashish jarayoni sifatida ijtimoiylashuv insonning butun umri bo'yi davom etadi. Bu mexanizmning ruhiy va ijtimoiy-madaniy jihatlari mavjud. Ijtimoiylashuv mexanizmining ruhiy jihatni individ tomonidan ma'lum ijtimoiy rollarning qabul qilinishi (yoki qabul qilinmasligi)da namoyon bo'ladi. Uning ijtimoiy-madaniy jihatni esa insonning til, san'at, din va shu kabilar orqali madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonini qamrab oladi.

Ijtimoiy-psixologik moslashuv ya'ni, shaxsning ijtimoiy munosabatlarga qadam qo'yishi, ijtimoiy normalarni egallashi, ko'nikishi va moslashishi orqali orttirgan tajribasi umumiij ijtimoiylashuvning bir ko'rinishidir.

Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs jamiyatdagi ijtimoiy normalarni o'zlashtiradi, turli rollarni bajarishga o'rganadi, jamoatchilik sharoitida o'zini tutish ko'nikmalarini hosil qiladi. Shaxsning ijtimoiylashuvi uning ijtimoiy ta'sirlarni qabul qilishi, ijtimoiy borliqni bilishi va anglashiga asoslanadi.<sup>1</sup>

Ijtimoiylashuv manbalariga quyidagilar kiradi:

Bolalik davrida orttirilgan tajriba – bu jarayon psixik funksiyalarning shakllanishi va dastlabki ijtimoiy xulq normalarining namoyon bo'lishi bilan parallel ravishda kechadi;

-Ijtimoiy institutlar – ta'lim va tarbiya tizimi; oiladan boshlab, to oliy o'quv yurtlari va undan yuqori pog'onalaridagi ta'lim olishga imkon beruvchi maskanlar, mehnat jamoalari shular jumlasidandir;

-Muloqot va hamkorlikdagi faoliyat jarayonidagi odamlarning ta'siri. Bu o'rinda ham rasmiy, ham norasmiy sharoitlarda odamlarning bir-birlari bilan muloqoti, muomala maromlari nazarda tutiladi.

Ijtimoiylashuv jarayoni o'z bosqichlariga ega. Bu bosqichlarni aniqlashda turli yondashuvlar asos qilib olinadi. Masalan, J.Midning ontogenetik yondashuvi individual ijtimoiylashuv bosqichlarini belgilab beradi. Uning fikriga ko'ra, bu bosqichlar quyidagilardan iborat: 1) psixogenetik bosqichda individ o'z ehtiyojlarini qondirish yo'llarini o'rganadi; 2) simvolik bosqichda individning simvollari (obrazlar, ideallar va boshqalar) shakllanadi; 3) aqliy-konseptual bosqichda individ simvollari tizimi uning faoliyatini boshqaruvchi mexanizmga aylanadi.O'smirlik balog'atga yetish davri bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal

<sup>1</sup> Каримова .В.М ижтимоий психология .Т .Фан ва технология нашриети. 2012

masalalarning paydo bo‘lishi bilan ham xarakterlanadi. Bu yoshda o‘smir rivojida keskin o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi.<sup>2</sup>

O‘smirlilik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo‘lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o‘smirlar o‘tmishdoshlariga nisbatan jismoniy aqliy va siyosiy jihatdan bir muncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o‘sish oldinroq namoyon bo‘lmoqda. Bu davrda o‘zga kishilarning ichki dunyosiga ortiqcha qiziqish bilan qarash va o‘z xatti-harakatlarini o‘zi tahlil qilish, o‘z-o‘zini tarbiyalashning elementlarini yuzaga kelishi mana shu ikkinchi bosqichdagi o‘smirlar hayotiga xos xususiyatlardir. O‘smirlilik davriga ko‘pincha so‘zga kirmaslik, o‘jarlik, tajanglik, o‘z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi salbiy xususiyatlar xosdir. O‘smirlar hayotda, ekranda va kitoblarda kattalarning mustaqilligini va erkinligini, ularning katta va qiziqarli ishlarini, dadil harakatlarini, qahramonliklarini, atrofdagilar orasidagi obro‘larini ko‘radilar hamda havas qiladilar. O‘smirda katta yoshli odam bo‘lishga yoki hech bo‘limganda katta yoshli odam bo‘lib ko‘rinishga qiziqish, intilish paydo bo‘ladi va bu xohishni amalga oshirish unga osondek bo‘lib ko‘rinadi. O‘smirlarning ehtiyojlari va imkoniyatlarining o‘zaro mos kelmasligi o‘smirlar bilan ota-onalari, o‘qituvchilari va boshqa murabbiylari o‘rtasida ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. O‘smir o‘zining juda ko‘p istaklari, «xohlayman»larini amalga oshirishga intiladi: katta yoshli odamlar ega bo‘lgan hamma narsalardan foydalanishga, erkin, mustaqil va ozod bo‘lishga intiladi. Tevarak-atrofdagi odamlarga o‘zining ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatish uchun u kuchli, qo‘rqmas va epchil bo‘lishga intiladi. Tarbiyachilar ham o‘z tarbiyalanuvchilari xuddi shunday bo‘lishlarini istaydilar, ammu ular ana shu fazilatlarning faqat «kerakligi» uchun shunday bo‘lishini istaydilar. Ana shunday «xohlayman» va «kerak» o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar ba’zan oilada, maktabda, keskin ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Tarbiyalangan odamda «xohlayman» faqat «kerak»ni bajarish orqaligina amalga oshiriladi. Agar o‘smir bola tushunishga o‘rgatilmagan bo‘lsa va «kerak» bo‘lgan narsani bajarishga odatlanmagan bo‘lsa, u o‘zboshimchaligini namoyon qilish orqali tarbiyachilarning talablariga qarshilik qiladi hamda o‘zining shaxsiy asoslanilmagan xohishlari asosida ish tutadi. O‘smirning yangi huquqlarga da’vosi, avvalo, kattalar bilan o‘zaro munosabatlarning butun muhitiga oid bo‘ladi. O‘smir avval bajonidil bajaradigan talablarga endi qarshilik ko‘rsata boshlaydi: uning mustaqilligini cheklashganda, vasiylik qilishganda, yo‘naltirishganda, nazorat qilishganda, quloq solishni talab qilishganda, jazolashganda, uning qiziqishlari, munosabatlari va fikrlari bilan hisoblashishmaganda u juda xafa bo‘ladi va norozilik bildiradi. O‘smirda o‘z qadrini bilish hissi paydo bo‘ladi va u o‘zini kamsitish, mustaqillik huquqidan mahrum qilish mumkin bo‘limgan inson, deb biladi. Bolalikdagi kattalar bilan bo‘lgan munosabat haqidagi

<sup>2</sup> “Tafakkur ziyosi” ilmiy-uslubiy jurnalı 2022/1-son 4-bet.

fikrlari o‘zgaradi va uning o‘z kattaligi darajasi haqidagi tasavvurlari bilan mos kelmay qoladi. U kattalar huquqini cheklaydi, o‘zinikini esa kengaytiradi.O‘smirlarning ijtimoiylashuviga ta’sir etuvchi omillar quyidagilardir:

1. Jamiyat tomonidan belgilangan me’yor va qoidalarga hissiy munosabat bilan bog’liq ijtimoiylashuv.

2. O’smirning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining eng muhim omili - bu o‘z-o‘zini imidjining yaxlitligi va barqarorligi. Kattaroq o’smirlik davrida esa uning farqlanishi. Shu bilan birga, "O‘z-Image" ni farqlash va anglash darajasi va "biz" va "ular" tasvirlarida mazmunli farqlarning mavjudligi o’rtasida moslik mavjud. Bu turli xil ma'lumot guruhlari mavjudligi tufayli shakllangan o‘zi haqida turli xil g’oyalar mavjudligining muhimligini isbotlaydi. Shu bilan birga, yoshi bo'yicha farq qiluvchi mos yosh guruhlarining mavjudligi eng maqbuldir.

3. Turli xil referent guruhlarning mavjudligi ijtimoiylashuv shakliga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Ko’rinib turibdiki, bu holatda oila va tengdoshlarning roli boshqacha; Tengdoshlar zamonaviy dunyoda yangi va muhimroq qadriyatlarni o‘zlashtirishga ko‘maklashadi , kattalar esa bu qadriyatlarning barqarorligini va muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda hissiy yordam beradi. Guruhning ijobiy o‘ziga xosligi mavjudligi o‘zini o‘zi qabul qilishning zarur darajasini ta’minlaydi, o’smirning ijobiy o‘zini o‘zi qadrlashini kuchaytiradi, bu fikrlash va o‘zini to’liqroq anglash uchun zarur bo’lgan hissiy asosdir.

4. O’smirarning ijtimoiylashuv darajasini oshirish bir necha usullar bilan bo‘lishi mumkin. Bu ijtimoiy normalar va qoidalarni nafaqat yaxshi biladigan, balki hissiy jihatdan qabul qiladigan va o‘z xulq-atvorini ularga muvofiq quradigan odamlar foizining ortishi. Shu bilan birga, qoidalarni qabul qilish va amalga oshirish ularni kamroq ta’sirchan, ammo oqilona qabul qilish tufayli qisman oshiriladi, bu esa zarur talablarni yanada muvaffaqiyatli bajarishga imkon beradi va shunga mos ravishda bolalarning ularga nisbatan ijobiy munosabatini oshiradi.

5. Turli yosh guruhlarida o‘z-o‘zini tasvirlash va sotsializatsiya shakllari o’rtasidagi munosabatlar boshqacha asosda yuzaga keladi. Shu bilan birga, o‘z-o‘zini imidjining hissiy komponenti ustunlik qiladigan 5-sinf o‘quvchilari orasida o‘zini o‘zi qabul qilish ham o’smirning normalari va qoidalari bilan qulayroq bo’lgan ijtimoiy vaziyatni qabul qilishga yordam beradi. 8-sinf o‘quvchilari uchun kognitiv komponent tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, shuning uchun katta yoshdagil o’smirlar o’zlarining fazilatlari g’oyasini ma'lum bir guruh va unda qabul qilingan me’yorlar bilan bog’lashlari mumkin, ular muvaffaqiyatli bo’ladigan narsani tanlashlari mumkin. Buni o‘z-o‘zini anglash darajasi past bo’lgan katta o’smirlar uchinchi ijtimoiylashuv shakli bilan tavsiflanadi.Ta’lim — ta’lim orqali o‘smir bu jamiyatga hukmronlik qilayotganlarni baholay oladi. Ta’limda bilim olish jarayonida, u nafaqat rivojlanadi, balki jamiyatdagi hayotga moslashadi.

Madaniyat — bu shunday ijtimoiy institutki, insoniyat o'zi uchun yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni tanlaydigan maskan. O'smirga uning shakllanish jarayonida adabiyot, musiqa, rasm, ommaviy axborot vositalari va boshqalarning ta'siri tegadi. O'smirning rivojlanishi jarayonida turli faoliyatlarga duch keladi: o'yin, o'qish, mehnat, sport va boshqalar, turli kishilar bilan muloqotda bo'ladi: ota-onasi, aka-ukasi, qarindoshlari, do'stlari va boshqalar bilan. Turli faoliyatlarda turli insonlar bilan muloqotga kirishish natijasida o'smirda ijtimoiy ko'nikmalar hosil bo'la boshlaydi. O'smirning normal rivojlanishi uchun muloqotning ahamiyati juda kattadir.

Umuman olganda, bolaning shaxs sifatida rivojlanib, kamol topishida 3 turdag'i faktorlar ta'sir qiladi: mikrofaktorlar, makrofaktorlar, mezofaktorlar.

Makroomillar — inson yashaydigan mamlakat, jamiyat, davlat hamda dunyoviy planetar jarayonlar — ekologik, demografik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqalar. Mezoomillar — etnik ko'rsatmalarini shakllantirish, shaxsning milliy hayot va etnikaro munosabatlarning u yoki bu hollarini qabul qilishi, insonlarning o'z eposi (xalqi) tarixi va hozirgi hayoti haqida qarashlari va fikrlari; bola yashaydigan va rivojlanadigan mintaqaviy shart-sharoitlarning ta'siri; yashaydigan joy turi (shahar, tuman markazi, qishloq); ommaviy kommunikatsiya vositalari va boshqalar.

Mikroomillar — yaqingina makonni va ijtimoiy muhitni tashkil qiladigan oila, ta'lif muassasalari, tengdoshlar guruhi va b. mana shu yaqingina muhitni, ya'ni bola o'sadigan muhitni sotsium yoki mikrosotsium deb atashadi.

Ba'zi bir maqomlar bizga tug'ilishimizdan beriladi. Inson maqomi jinsi, millati, tug'ilgan joyi, ism-sharifi va boshqa omillardan kelib chiqadi. Bunday maqomlar tug'ma yoki berilgan deb ataladi. Boshqalari esa insonning o'zi mustaqil ravishda jamiyatda shaxsiy harakatlarga ko'ra erishgani bilan aniqlanadi. Masalan, pedagog, vrach, muhandis maqomini inson kerakli kasbiy ta'lif yurtida o'qigani va diplom olgani uchun oladi. Bu holda erishilgan yoki olingan maqom haqida gap yuritiladi. Maqom insonning jamiyatda o'zini tutishini aniqlaydi. Ma'lum bir vaziyatlarda shaxs o'zini istaganicha emas, balki o'z maqomiga ko'ra tutadi. Atrofidagi insonlar undan bu vaziyatlarda muayyan intizomni kutadi, ya'ni inson muayyan bir rolni o'ynashga majbur. Shuning uchun, inson maqomidan kelib chiqqan kutilayotgan intizom ijtimoiy rol deb ataladi. Jamiyatda nafaqat u (jamiyat) bilan kutilayotgan maqomlar, balki ijtimoiy me'yor va qadriyatlarga to'g'ri kelmaydigan maqomlar ham mavjud. Shuning uchun rivojlanish jarayonida bola pozitiv ijtimoiy rolni va shu bilan birga negativ rolni ham o'zlashtirishi mumkin.

Pozitiv rolli: oila a'zosi (ota va ona, buva va buvi, o'gil yoki qiz, aka va singil, nevara va b.), jamoa a'zosi (o'quvchi, o'rtoq, do'st, yetakchi va b.), iste'molchi (insonga ovqat, kiyim, oyoqkiyim va b.), fuqaro (Vatanni sevadi, u bilan faxrlanadi, vatanparvar bo'lish), mutaxassis (o'qituvchi, vrach, iqtisodchi, muhandis va b.) O'smir bilan ma'lum rolda o'zini tutish mexanizmi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatlidir.

kirishib ketishni ta'minlaydi, har bir u uchun yangi bo'lgan vaziyatga moslashib ketish imkoniyatini beradi. Bu individni ijtimoiy muhit shart-sharoitiga moslashib ketishi jarayoni ijtimoiy moslashuv deb ataladi. Shaxs ijtimoiy munosabatlarda ham namoyon bo'ladi. Aniqrog'i har bir odamning mehnatga, kishilarga, jamiyatga nisbatan munosabati ham turlicha ifodalanadi. Shaxsning axloqiy va faollik darajasiga xos sifatlari ham uni boshqalardan ajratib turadi. Shaxs haqida gapirilganda tabiiy holatda shunday savol tug'iladi. Har qanday odam shaxs bo'la oladimi, shaxs bo'lishi uchun nimalar qilishi kerak. Bu savolga shunday javob berish mumkin. Insonning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun eng avvalo ijtimoiy hayot tajribalari va yaxshi tarbiya kerak bo'ladi. Ana shunday omillar ta'siri ostida inson rivojlanadi va shaxsga aylanadi. Insonning munosabatlar doirasiga nafaqat o'zga kishilar bilan aloqasi, balki tabiatga, jamiyatga, hayotga, mehnatga bo'lgan munosabatlari ham kiradi. Mana shunday munosabatlar asnosida inson o'zining qobiliyatlarini, aqlini, farosatini namoyon qila boshlaydi. Bu bilan u, umuman butun borliqqa bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Tabiiyki, bu fazilatlar faqat tarbiyaning mahsuli bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham inson rivojlanishini, unga singdirilgan tarbiyaning natijasi deb qarash mumkin. Shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal qilish uchun avvalo uning xulqiga ta'sir etuvchi omillarning tabiatini, shaxsning shaxsiy xususiyatini yaxshi o'rganmoq lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андреева Г.М. Социальная психология. М.: МГУ, 1988.
2. Бодалев А.А. Личность и общение. М.: Педагогика, 1983.
3. Каримова В.М. Ижтимоий психология. Т. Фан ва технология нашриёти. 2012.
4. G'oziev E.G'. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). Т., 1994.
5. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya: darslik. I, II kitob. Т., 2002.
6. "TAFAKKUR ZIYOSI" ilmiy-uslubiy jurnali 2022/1-son .

## INNOVATION TECHNOLOGY BOLALAR IQTIDOR DARAJASINI YUKSALTIRISHNING MUHIM OMILIDIR

*M.Istroilova*

*ADU Psixologiya ta'lism yo'nalishi*

*1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, Iqtidorli bolalar psixodiagnostikasi, ijtimoiylashuvi, ijodiy qirralarini namoyon bo'lishi omillariga aloxida e'tibor qaratilgan. Iqtidor ko'pchilik o'qituvchilar, ota-onalar uchun hali to'la tushunib yetilmagan tushunchalar xaqida bayon qilingan. Iqtidor har bir insonga ota-onadan bevosita o'tadi va ular instinctlar, tug'ma layoqatlar tariqasida ijtimoiy munosabat va faoliyat jarayonida namoyon bo'lishi izoxlangan.

**Kalit so'zlar:** Iqtidorli bola, o'qitish uslublari, bilim va ko'nikma, innovatsion metodlar, pedagogik texnologiyalar, psixodiagnostikasi, ijtimoiylashuvi.

Zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish turli pedagogik yangiliklarni yaratish, qabul qilish, baholash, o'zlashtirish va amalda tatbiq etish, ta'lism sohasida o'quvchilar iqtidorini va qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beruvchi muxim omillardan biridir. CHunonchi ta'lism, o'qituvchi va o'quvchilarning aqliy mehnati, faollik va ijodiy fikrlashidan iborat bo'lgan ko'pqirrali va murakkab jarayon hisoblanadi. Dars samaradorligini oshirish ta'lism-tarbiya jarayonini ilmiy asosda yo'lga qo'yish va yangi pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llash bolalarda va o'smirlarda iqtidor darajasini yuksaltirish bilan uzviy bog'liq. Bu o'rinda darslarda noananaviy uslublarlan keng foydalanish, tabaqalashgan xolda o'qitish, iqtidorli bolalarning ijtimoiy faollik darajasini yuksaltirish -zamonaviy psixologiya fani oldida turgan dolzarb vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Iqtidorli bolalar psixodiagnostikasi, ijtimoiylashuvi, ijodiy qirralarini namoyon bo'lishi omillariga aloxida e'tibor qaratilmoqda. Iqtidor ko'pchilik o'qituvchilar, ota-onalar uchun hali to'la tushunib yetilmagan tushuncha bo'lib qolmoqda "Iqtidorli bola bilan qanday munosabatda bo'lish kerak?" Iqtidor tabiatning kamyob tuxfasimi yoki ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan voqelikmi? Bu kabi savollarga to'g'ri va aniq javoblarning topilishi jamiyatimizning ertangi kuni bo'lgan barkamol avlod ta'lism tarbiyasida kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalar sarasiga kiradi Iqtidorli bolalar to'g'risida g'amxo'rlik bu ertangi fan madaniyat.ijtimoiy soxa,jamiyat taraqqiyoti to'g'risida g'amxo'rlikdir.

Psixologiyada iqtidor va qobiliyatni bilim yoki ma'lumotga tenglashtirilmaydi. Kishining muayyan bir xildagi qobiliyati va iste'dod darajasi uning ma'lum sohada bilim va ko'nikma hosil qilish tezligi darajasi bilan belgilanadi. SHuningdek, qobiliyat

amalda qo'llay olish va ijodiyotda undan foydalana bilishda ham ko'rindi. Respublikamizda iqtidorli bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini namoyon bo'lishi va rivojlanishi ta'minlovchi qator davlat dasturlari ishlab chiqilgan, turli konkurslar, viktorinalar, fanlar bo'yicha olimpiadalar tez-tez o'tkazilib turiladi.

Iqtidorli bolalar psixologiyasi muammosi bo'yicha psixologlar Dj.Gilford, P.Torrens, F.Barron, K.Teylor, Dj.Kerrol, B.Blum iqtidorli bolalar ta'lim xususiyatlari bo'yicha J.Bryuno.rus psixologlari Matyushkin.A.M., SHumakova N.B. CHistyakova.G.D Yurkevich.V.S shug'ullanganlar. O'zbek psixolog olimlaridan, P.I.Ivanov, M.Vohidov, M.G.Davletshin, E.G'oziev, R.Gaynudinov, B.Qodirov, R.Sunnatova, A.Jabborov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida iqtidorli bolalar ijtimoiy psixologik xususiyatlari va ijtimoiy adaptatsiya omillari o'rganilgan. Bu tadqiqotlar natijalari hozirgi kunda ham o'zining ahamiyatini saqlab qolmoqda.

- Iqtidor har bir insonga ota-onadan bevosita o'tadi va ular instinktlar, tug'ma layoqatlar tariqasida ijtimoiy munosabat va faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi. Bolalarda iqtidorning namoyon bo'lish xususiyatlari quyidagilarni tashkil qiladi;
- Yorqin hayoliy obrazlarning mavjudligi ularda mavjud bo'limgan yorqin va boy fantastikaga asoslangan do'stlar qaxramonlar obrazini yaratadi. Oradan ko'p yillar o'tganidan so'ng ham ularning ayrimlarining hayotida ijodiyot va bunyodkorlik elementlari xususiyatlari saqlanib qoladi.
- Iqtidorli bolalar uchun xavfli oqibatlarni xayol qilishi natijasida ortirilgan qo'rquv xarakterlidir. Ular xaddan ziyod xissiyotlarga beruluvchan sabrsiz, turg'un emasdirdar.
- Iqtidorli bolalarda haqiqat g'alabasiga yetishishga kuchli istak mavjuddir.
- Bolalikda egotsentrizm iqtidorli bolalarda boshqa bolalardan farq qilmaydi.

Ayrim xollarda bolaning o'ziga past berishi natijasida o'zini negativ idrok etganligi oqibatida, tengdoshlari bilan shaxslararo munosabatlarda qiyinchiliklar uchraydi.

O'qitish uslublaridagi noana'aviy yondoshuv bolalarni mustaqil va ijodiy fikrlarini rivojlantirish, bilim olish, jarayoniga nisbatan ijobiy motivatsiyani shakllantirish. ta'lim samaradaorligi ta'minlovchi omillaridan biri sanaladi. Iqtidorli bolalardagi bilish jarayonlarining rivojlanishi ,tengdoshlariga nisbatan ilgarilab ketadi. Ular bir necha jarayon ustidan bir vaqtning o'zida tadqiqotlar o'tkazishga qobiliyatlidirlar. Atrofni faol o'rganishga qiziqadilar. Ulardagi bu xususiyatlarini qo'llab -quvvatlash va rivojlantirish zarurdir. Ayrim o'qituvchilarda "iqtidorli bola yordamga muxtoj emas", degan xato fikr mavjud. O'qituvchi shaxsining bola shaxsini shakllanishidagi ahamiyati ta'limning hamma ko'rinishlarida yetakchi ahamiyatga

egadir. Iqtidorli bolalar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishda, bolaning psixologik xususiyatlari, iqtidor turi, darajasini o'rganish va rivojlanitirish , iqtidorli bolaning ijtimoiy adaptatsiya xususiyatlariga alohida e'tiborni qaratish zarur. Psixologlar fikricha, iqtidorli bolalar bilan o'z fanini chuqur biladigan, bola qiziqishlari va ijodiyotini qo'llab- quvvatlash , yaqin emotsiyal munosabatlarni o'rnatishga qobiliyatli o'qituvchilarning ishlashlari maqsadga muvofiqdir. Bu esa iqtidorli bolalar bilan ta'lim tarbiya ishlarini olib boruvchi pedagog mutaxassislar tayyorlashga jiddiy e'tiborni qaratishni lozimligini taqozo etadi. Iqtidorli bolalar bilan ishlashda ta'limning individual dasturlar asosida, o'tkazilishi maqsadga muvofiq bo'lib, mashg'ulot davomida bolaning o'zi faollik ko'rsatishiga imkon berish zarur. Mavzuni o'zlashtirishda bolalarning mavzu bo'yicha muammoli vaziyat va muammoli masalalarni yechishning turli usullardan keng foydalanishlari, ulardagi mustaqil fikrlash, muammoni hal etishning yangi usullarini qidirib topish, o'z qobiliyatlariga va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini ortiradi. Iqtidorli bolalarning shaxs xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta'lim jarayonida ayrim muammolar ham uchrab turadi. Leta Xollinguort tadqiqotlari iqtidorli bolalar oldida turgan quyidagi muammolarni ko'rsatib o'tdi

1. **Maktabga nisbatan salbiy munosabat.** O'quv dasturlarining ular uchun zerikarli va qiziq emasligi. Xulqiy buzilishlar o'quv dasturini ularning qobiliyatlariga mos kelmasligi natijasida kelib chiqadi

2. **Qiziqarli o'yinlar.** Iqtidorli bolalarga ularning tengdoshlari qiziqadigan oddiy o'yinlar qiziqarli emas, ularga murakkab o'yinlar yoqadi. Natijada bu ularning boshqalardan begonalashuviga, o'z ichki dunyosiga g'arq bo'lishiga olib keladi.

3. **Konformlik.** Iqtidorli bolalar standart talablarni inkor etadilar komformlik xususiyati ular uchun emas. Ayniqsa bu talablar ularning qiziqishlariga mos kelmasa.

4. **Falsafiy muloxazalarga berilish.** Iqtidorli bolalar uchun xayot va o'lim muammofiga berilish, diniy e'tiqodlarga o'limdan keyingi hayot, hayot mazmuni kabi falsafiy muammolarga berilish xosdir.

5. **Intelektual va jismoniy rivojlanish o'rtasidagi nomutanosiblik** Iqtidorli bolalar ko'p xollarda o'zidan katta yoshdagи bolalar bilan muloqot qiladilar ,shuning uchun ularda lider bo'lish imkoniyati kam.

6. **Taraqqiyotga intilish** iqtidorli bolalar uchun taraqqiy etish, rivojlanish uchun ichki intilish mavjud. Bundan o'zidan qoniqmaslik va o'ziga past baxo berish kelib chiqadi

7. **Kattalar diqqat e'tiboriga extiyoj.** Bilishga intilish tufayli iqtidorli bolalarga ota- onalar va o'qituvchilar tomonidan boshqalarga nisbatan ko'proq e'tibor beradilar. Bu holat boshqalar bilan munosabatlarida turli muammolarni keltirib chiqaradi. Ayrim vaqtarda iqtidorli bolalar o'zidan intellektual rivojlanishda pastroq

turganlarga nisbatan salbiy munosabatda bo'ladilar. Atrofdagilarni o'zlarining tanqid mensimasligi bilan itaradilar.

Ta'lilda o'qitishning innovatsion metodlarini joriy etilishi , bolada tarkib topayotgan iqtidorni yorqinroq ko'rina boshlashiga, o'z iqtidorini rivojlantirish, o'z ustida ishslash extiyojini shakllanishiga yordam beradi.

### Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. Matyushkin A.M., Yakovleva E.L. Iqtidorli o'qituvchi [Matn] / A.M. Matyushkin, E.L. Yakovleva. M., 1991 yil.
2. Molokov D.S. Iqtidorli bolalar bilan chet elda ishslash uchun o'qituvchilarni tayyorlash / Elektron resurs. Kirish tartibi: [<http://www.eaicy-dar.ru/stati/Statya6.html>]
3. Maktabdagi iqtidorli bolalar (ish tajribasidan) // "Maktabdagi o'qituvchi" №3, 2010 yil // Elektron manba. Kirish tartibi: [[http://intellektsystem.ru/articles\\_1\\_71.html](http://intellektsystem.ru/articles_1_71.html)]
4. Iqtidorli bolalar muammolari va ularni ijtimoiy-pedagogik faoliyat doirasida hal qilish yo'llari // Elektron manba. Kirish tartibi: [<http://www.kursx.ru/psy86.html>].

## O'SMIRLIK DAVRIDA XAVOTIRLANISH XUSUSIYATLARINI IJTIMOIY PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

*Sulaymonova To'xtaxon Gaynazarovna*

*Andijon davlat universiteti professor-dotsent.*

*Xabibullayeva Faridaxon Axmadjon qizi*

*Andijon davlat universiteti Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha)*

*yo'nalishi 1-kurs magistranti.*

*xabibullayevafaridaxon@gmail.com*

**Annotatsiya:** Maqolada o'smir yoshi o'quvchilarining psixologik xususiyatlari, o'smir xulq-atvori shakllanishining ijtimoiy psixologik muammolari o'r ganilgan.

**Kalit so'zlar:** O'smirlik davri,xavotirlanish,ta'lif va tarbiya,stress,muloqot jarayoni, bolalarning psixik rivojlanishi.

Mamlakatimizda, yoshlar tarbiyasi masalasiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. "Biz uchun,-deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev, - o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan yana bir masala, bu farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir. Ayniqsa, dunyoda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya , "ommaviy madaniyat" kabi yovuz xavf-xatarlar insoniyat boshiga og'ir kulfatlar solayotgan hozirgi murakkab bir davrda yoshlar tarbiyasi masalasi yanada muhim ahamiyat kasb etayotgani hech kimga sir emas".<sup>1</sup> Bugungi kunda farovon hayot jamiyatni mukammal axloq tamoyillari asosida barpo qilish, oilada barkamol farzand tarbiyasi, uning jismonan baquvvat, ruhan tetik, ma'nan yetuk, aqlan va axloqan go'zal bo'lib yetishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev " Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo'yicha o'zimizga xos va ta'sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg'unchi va zararli g'oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma'naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol bo'lishingiz kerak. Xalqimizning ma'naviy qudrati va boqiy an'analarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz, – deydi o'zining nutqida.<sup>2</sup> Prezidentimizning nutqidan kelib chiqqan holda bugungi Yangi O'zbekistonni kelajagi yoshlarga bog'liqligini anglashimiz mumkin.Shunday ekan

<sup>1</sup> Lex.uz

<sup>2</sup> Lex.uz

yoshlarimiz va ularning tarbiyasi, ularda yuzaga kelayotgan ijtimoiy psixologik o'zgarishlarni diqqat bilan o'rganishimiz bugunning dolzarb masalasidir.

O'smirlilik davri asosan 11-15 yoshdagi bolalarni o'z ichiga qamrab oladi, ya'ni 5-8 sinf o'quvchilarini. O'smir o'quvchilarni ta'lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va hususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi. Kichik va katta yoshdagi maktab o'quvchilariga qaraganda o'smirlilik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko`p qiyinchiliklar bo`ladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda kiyin kechadi. Bu jarayon o'smirlar psixologiyasining odamlar bilan bo`lgan munosabat formalarining jiddiy ravishda o'zgarishi, hamda hayot sharoitining o'zgarishi bilan bog`liqdir. Bu davrda o'smirlarning o'z shaxsiy fikrlari paydo bo`ladi. Ularda o'z qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi. Ilmiy psixologiyaning aniqlashi bo`yicha o'smirlarning psixik taraqqiyotini xarakatga keltiruvchi kuchlar, ularning faoliyatları bilan tug'iladigan extiyojlar bilan bu extiyojlarni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarni yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir. Qarama-qarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotini, ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning qator yangi psixologik hususiyatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilishdan iboratdar. Psixologlarning fikricha yosh psixologik xususiyatlari faqatgina yolg`iz biologik jihatidan etilishi va taraqqiyot etilishining natijasi bo`lmay balki bolaning ijtimoiy hayot sharoitlari va faoliyatlarining o'zgarishi hamda bu jihatdan yangi ijtimoiy omillarning paydo bo`lishi natijasida o'smirning taraqqiyotiga va unga beriladigan maktabdagi ta'lim va tarbiya berishni aniq tashkil qilish o'smirlarning aniq hayot sharoitlari va faoliyatning mahsuli deb qarab bo`lmaydi. Boshqacha qilib aytganda ijtimoiy sharoitlar rolini aniq hayot sharoitlari va faoliyatlarining roliga almashtirib bo`lmaydi. Mana shu yuqorida aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, o'smirning yoshi va uning hususiyatlari mutlaqo ahamiyatli kasb etmaydi shu munosabat bilan o'smirlilik yoshi mutloqo aniq ma'lum va mutlaq chegara hamda xarakteritsikaga ega emas bu erda ancha muhim bo`lgan ma'lum fikrlar bor. Bu farqlarni aniq ijtimoiy omillarning ta'siri bilan va o'smirlarga beriladigan turli ta'lim va tarbiya sharoitlarining ta'siri bilan tushuntirish mumkin. Taraqqiyotning asosiy yo`nalishi bolaning o'smirlilik davridagi taraqqiyotining asosiy xarakteritsikasini ajratish mumkin. O'smirlilik davri organizmning jo'shqin o'sish davridir. Bundan tashqari o'smirlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavotirlanish xususiyatlariga ham to'xtalib o'tsak.

**Xavotir**-individual psixologik xususiyat hisoblanib, insonning ma'lum sabablarga yoki hech qanday sababsiz ham tashvishlanishining oshishidir. Shuningdek, xavotir insonning yangi sharoitlarga moslashishiga imkon beruvchi, shaxsning ma'naviy kamolotini yuqori darajalarga ko'tarishda turtki bo'luvchi, shaxsning omon

qolishi va uning naslining davom etishi uchun zarur bo'lgan normal reaksiyadir. Psixolog F.B.Beryozin xavotirlanish jarayoniga izoh berar ekan, "ma'lum bir ob'yekt bilan aloqaning mavjud emasligi xis qilingan xavf – hatarni oydinlashtirishning iloji yo'qligi o'sha vaziyatni imkonsiz qilib qo'yadi va xavotirlanish holatini yuzaga keltiradi" deya o'z fikrini bildirgan.Umuman olganda, surunkali xarakterga ega bo'lgan, odamning samaradorligini pasaytiradigan, shaxslararo munosabatlarda uzilishlarni va jismoniy alomatlarni keltirib chiqaradigan tashvish "patologik xavotir" deb hisoblanadi. Xavotir buzilishi o'smirlarda eng ko'p uchraydigan holatdan biridirdir. O'smirlarda ularning chastotasi 5-22% orasida o'zgarib turadi.Xavotir buzilishining asosiy belgilari "haddan tashqari qo'rquv" va "tashvish" dir. Ushbu asosiy alomatlar barcha tashvish buzilishlarida mavjud.Xavotir buzilishi birbiridan boshdan kechirilgan alomatlar, uni keltirib chiqaradigan omillar bilan farqlanadi.[3]

Psixologik tadqiqot ishlarida shuni ko'rishimiz mumkunki, o'smirlar ota-onalari ularni tushunmasliklari, ular bilan hisoblashmasliklari, muammolarga e'tibor bermasliklari haqida kuyinib gapiradilar. Ular bolalarni qorni to`q bo`lsa yetarli deb o`ylashadi, bola nima haqida o`ylayotgani, qanday qiziqishlari borligi haqida bilmaydilar ham. O'smirlik davrida ro`y beradigan holatlarda har xil, lekin ularning mevasi bir xilda-achchiq bo'ladi. Ota-onalar bilan ochiqchasiga, chin yurakdan muloqotning yo'qligi bolani odamovi va og`ir qilib qo'yadi. Bir necha psixologik tadqiqotlardan kelib chiqqan holda T.V.Abakumov xavotirlanishni tasniflashda bir necha mezonlarni taklif qilgan

- a) Xavotirlanish paydo bo'lishida inson ongiga bog'liq bo'limgan holda mavjud bo'lgan manbalar (biologik, texnogen).
- b) Atrof-muhitdagi haqiqiy holat to'g'risida to'la va aniq tasavvurning yo'qligi (ijtimoiy va bolalarda uchrovchi xavotirlanishlar)
- v) Ontologik (diniy, ekzistensional).
- g) Gnoseologik (ma'lumotlarning ko'pligidan haddan ziyod qo'rqish). [2]

Olimlarning ta'kidlashlaricha "noma'lum" va "yangi" narsa insonlarda, ayniqsa bolalarda xavotirlanish hissini vujudga keltirar ekan. O'smirlik davri haqida izlanishlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki bu davrda muloqot jarayonida ham xavotirlanish hissi namoyon bo'ladi va bu ota-ona va tengdoshlari bilan bo'lgan muloqatda yaqqolroq aks etishini ko'ramiz. Chunki ularda muloqot jarayonida qandaydir sabablar ular bilan muloqatni cheklash, ichki dunyosini oshkor bo'lib qolishdan xavotirlik tuyg'usi ichki ruhiyatiga ta'sir qilib turadi. O'smir o'z qiziqishlariga mos o'rtoqlar davrasini qidiradi. Agar o'smir o'zini qoniqtirgan guruhnini topolmasa juda qiynaladi, o'z imkoniyatilariga nisbatan shubha paydo bo'ladi, o'zini yolg'iz his eta boshlaydi.

**XULOSA.** O'smirlilik davrida xavotirlanish va stress odatiy holdir. Aksariyat o'smirlar uchun xavotir hissi vaqtinchalik va zararsiz yoki rivojlanishning ma'lum bir davri bilan bog'liq. Xavotir o'smirlarda yetishmovchilik hissi belgilaridan biridir. Bu davrda o'smirlar o'zini past baholaydi, o'ziga ishonmaydi, o'zini ko'proq so'raydi va o'zining salbiy xususiyatlariga e'tibor qaratadi, o'zini tanqid qiladi. Ba'zilar kelajakka umidsiz qarashadi va kattalar vazifalarini hal qilish qobiliyatiga shubha qilishadi. Bu holat xavotirga sabab bo'lishi mumkin, ammo oddiy tashvishni patologik tashvishdan va tashvish belgilarini o'smirlardagi bezovtalik kasalliklaridan ajratish muhimdir. Doimiy xavotir, stress, salbiy his-tuyg'ular va kelajakka bo'lgan umidlarga ta'sir qiladi. Motivatsiyani yo'qotish va umidsizlik keltirib chiqaradi. Yoshlarning ruhiy tushkunliklari, tashvishlari, stresslari va keljakdagi xavotirlarini kamaytirish uchun himoya choralarini ko'rish muhim deb hisoblanadi. O'smirlilik davrida stress va xavotir bilan kurashishni o'rgangan va tajribaga ega bo'lgan o'smirlar hayot bilan kurashishdagi qiyinchiliklarni oson yengib o'ta olishadi, ya'ni ular stress, xavotirni keltirib chiqaradigan hodisalarni nazorat qilish va hal qilishga moyil bo'ladi. O'smirning ijobjiy yoki salbiy tabiat, uning oilasining munosabati va voqealarga bo'lgan nuqtayi nazari uning stress, doimiy xavotirni nazorat qila oladimi yoki yo'qligida juda muhimdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.S.Qosimova O'smirlilik davridagi o'quvchilarda ijtimoiy intellekt muammosini psixologik xususiyatlari // Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Volume 2 Issue 4 / December 2021 ISSN 2181-063X
- 2.F.Ne'matullayeva O'smir shaxsida yuz beradigan xavotir va stress hislarining kelib chiqish sabablari va psixologik oqibatlari Zamonaviy ilm fan va ta'lim istiqbollari ilmiy amaliy konferentsiyasi <https://doi.org/10.5281/zenodo.8385980>
- 3.D.Matgafurova,M.Abdusalomova O'smirlilik davrining psixologik xususiyatlari Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences(E)ISSN:2181-1784 [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz) SJIF 2023
- 4.Xolnazarova M.X. Yosh va pedagogik psixologiya, T.:2014 yil
- 5.Psixologiya V.Karimova. Toshkent, 2002 yil
- 6.Goziyev M. Umumiy psixologiya, Toshkent, 2004 yil
- 7.Yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari, sabab va yechimlari. Maqolalar to'plami. Toshkent. 2020.
- 8.Y.Alimqulov, O.Ravshanov Yosh davrlar psixologiyasi ma'ruza matni Jizzax 2008.
- 9.Internet manbalari [ Lex.uz ]

## BUXORO VILOYATI TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA KARTOSHKA EKINI HOSILDORLIGINING SAMARADORLIGI

*Hakimova Nodira Xayrilloyevna*

*Buxoro davlat universiteti Agronomiya va bioteknologiya fakulteti  
b.f.f.d., dotsenti*

*Sodiqov Davron Bahron o‘g‘li*

*Buxoro davlat universiteti, Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari  
bo‘yicha) yo‘nalishi 2 kurs talabasi*

**Annotation:** Mazkur maqolada O‘zbekiston xususan Buxoro viloyati tuproq-iqlim sharoitida kartoshkani yetishtirilishi, xalq xo‘jaligi uchun uning ahamiyati, hosildorigi, biologiyasi va iqtisodiy samaradorligi haqida ma‘lumot keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** kartoshka, ertapishar, kechpishar, samaradorlik, hosildorlik, tuproq-iqlim sharoiti, vegetasiya, agrotexnik talablar.

**Аннотация:** В данной статье представлены сведения о выращивании картофеля в почвенно-климатических условиях Узбекистана, особенно Бухарской области, его значении для народного хозяйства, урожайности, биологии и экономической эффективности

**Ключевые слова:** картофель, раннеспелый, позднеспелый, продуктивность, урожайность, почвенно-климатические условия, вегетация, агротехнические требования.

**Abstract :** This article provides information on growing potatoes in the soil and climatic conditions of Uzbekistan, especially the Bukhara region, its importance for the national economy, yield, biology and economic efficiency

**Key words:** potatoes, early ripening, late ripening, productivity, yield, soil and climatic conditions, vegetation, agrotechnical requirements.

Hozirgi davrda mamlakat qishloq xo‘jaligida davlat ustuvorligida bosqichmabosqich amalga oshirilayotgan barcha yo‘nalishlardagi iqtisodiy islohatlarning ahamiyati, mazmunini yoritishda Respublika Oliy Majlisida qabul qilingan qonunlarga, respublika prezidenti asarlariga, Prezident farmon va qarorlariga hamda Respublika Vazirlar Mahkamasining qarorlariga va boshqa me’yoriy hujjatlarga asoslangan holda yoritiladi. Hozir kartoshka haqida so‘z yuritmoqchiman.

Kartoshka – insoniyatning bug‘doydan keyingi ikkinchi nomi. Tomatdoshlar oilasiga mansub tunganak mevali ko‘p yillik o‘tsimon o‘simlik.

Kartoshka tuganagida kraxmal (20% ga yaqin), oqsil, qand va boshqa moddalar bor. Ulardan spirt, kraxmal va glyukoza olinadi. Kartoshka namsevar (ayniqsa, gullah va tunganak davrida), yorug‘sevar, bir qadar sovuqqa chidamli o‘simlik.

O'simligining bo'yi 50-80 sm, 3-6 poyali. Kartoshka oqdan to qizil tusgacha va turli shaklda bo'lib, sirtidagi chuqurcha-ko'zchalaridan kelgusi yil yangi pojalar o'sib chiqadi. Ildizi popuk ildiz, barglari juft patsimon bo'lingan, sarg'ish-yashildan to'q yashilgacha. Guli ikki jinsli, oq, och binafsha tusda, 2-3 tadan, ba'zan 4 tadan joylashgan. Urug'idan seleksiya ishida foydalaniladi.

Vegetatsiya davri 60-150 kun. Kartoshka pishib yetilish muddatlariga qarab tezpishar (maysalashidan yetilishiga qadar 60–65 kun), o'rtacha tezpishar (70–80 kun), o'rtacha kechpishar (110–120 kun), kechpishar (130–150 kun) navlarga bo'linadi. Asosan tunganaklaridan ko'paytiriladi. Tuproqda tunganaklaridagi kurtaklari 5-8°C da una boshlaydi.

Kartoshka sabzavot almashlab ekish tizimida karam, bodring, poliz va dukkakli don ekinlaridan bo'shagan yerlarda yaxshi hosil beradi.

Kartoshka turli tuproqlarda o'sadi, lekin yaxshi o'stirilgan engil va o'rta qumloqlarda eng yuqori hosil beradi. Tuberizatsiya zonasida tuproqning zichligi qanchalik past bo'lsa va ildiz tizimini atmosfera kislorodi bilan ta'minlash qanchalik yaxshi bo'lsa, hosil shunchalik yuqori bo'ladi.

Kartoshka uchun massa zichligi 0,9-1,2 g / sm<sup>3</sup> bo'lgan qumloq tuproqlar optimal hisoblanadi. Zichroq tuproqlarda kartoshka ko'chatlari kechiktiriladi va ba'zi hollarda ekish ildizlari chiriydi. Shuning uchun o'simliklarning butun vegetatsiya davrida tuproqni bo'shashmasdan saqlash muhimdir. Urug'lik materialini etishtirish uchun torf yerlari potentsial yuqori unumдорликка va qulay jismoniy xususiyatlarga ega bo'lgan yaxshi tuproqdir (optimal g'ovaklik va namlik sig'imi, past zichlik). Kartoshka pH 4,5-5 bo'lgan tuproqlarda yaxshi o'sadi.

Kartoshka o'sishi va rivojlanishi uchun juda ko'p ozuqa moddalarini talab qiladi. 10 tonna ildiz hosil bo'lganda, kartoshka tuproqdan taxminan 50 kg azot, 20 kg fosfor, 90 kg kaliy, 40 kg ga yaqin kaltsiy, 20 kg magniyni olib tashlaydi.

Buxoro viloyati sharoitida kartoshka uchun tuproq turlarini hisobga olgan holda ma'lum bir ketma-ketlikda tegishli ishlov berish orqali yaratilishi mumkin. Tuproqqa ishlov berish asosiy yoki kuzgi va ekish oldidan bo'linadi.

Shudgorlash ishlarining boshlanishi va muddati xo'jalik agronomi tomonidan belgilanadi.

Asosiy agrotexnik talablar.

1. Kartoshka uchun qolipli shudgorlash (organik o'g'itlarni haydash va haydashdan tashqari) skimmerli pulluklar bilan amalga oshiriladi.

2. Shudgorlash chuqurligi belgilanganiga mos kelishi kerak, tekislangan dalalar va uchastkalarda o'rtacha chuqurlikning belgilanganidan ruxsat etilgan og'ishi ± 1 sm; tekislasmagan ±2 sm.

3. Shudgorlashda qatlamni butunlay ag'darish, mayda bo'laklarga maydalash va bo'shliqlarsiz yotqizish kerak. Barcha shudgor tanasining qatlamlari bir xil o'lchamda

bo'lishi kerak, jo'yak to'g'ri. Shudgorlash qatorlarining egriligiga rut uzunligining 500 m ga 1 m dan ko'p bo'lмаган holda ruxsat beriladi. O'simlik qoldiqlari, begona o'tlar va o'g'itlar (organik) kamida 95% bo'lishi kerak.

4. Tuproqning sirt qatlami bo'shashmasdan va mayda loyqa bo'lishi kerak, diametri 5 sm gacha bo'lган kichik bo'lакlar ularning umumiy miqdorining 80 ... 90% ni tashkil qilishi kerak. Shudgorlangan maydonning yuzasi tekis, uzlusiz bo'lishi kerak. Shudgorning qo'shni o'tish joylari, yashirin va ochiq nuqsonlar va shudgorlanmagan takozlar orasidagi o'lchamlarga yo'l qo'yilmaydi.

5. Chiziqlarning balandligi 5 sm dan oshmasligi, qoziq tizmalarining balandligi va sindirilgan chuqurliklarning chuqurligi - 7 sm dan oshmasligi kerak.

6. Qolibsiz shudgorlashda, qatlamni teskari aylantirmasdan va qatlamlarni aralashtrimasdan, tuproqni oldindan belgilangan chuqurlikda yumshatish kerak.

7. Nishab bo'ylab yumshoq qiyalikli dalalar ( $5^{\circ}$  gacha) ekiladi.

Olimlarimiz kartoshkalarni urug'dan yetishtirishning samaradorligini turli tuproq-iqlim sharoitlarida o'rganish kerakligini ta'kidlaydilar. Perudagi xalqaro kartoshka markazida kartoshkani botanik urug'idan yetishtirishning texnologik elementlari urug'lar ekish, issiqxonadan dalaga o'tqazish, dala tuprog'i, qum va torf aralashmalari tayyorlash; urug'ni nishlatib ekish, ko'chat o'tqazish chuqurligi va ko'chatlar bo'yi ko'chatlarni ildizlari bilan yoki qisman tuproq bilan o'tqazish, madanli o'g'itlar bilan oziqlantirish muddatlari, o'simlikning o'suv davrida turli xil pestisidlardan foydalanish, yerni ekishga tayyorlash va ko'chat o'tqazilgandan keyin ishlash va boshqa ekinni yetishtirish texnologiyasi elementlarini ishlab chiqish borasida izlanishlar olib borilmoqda. Ba'zi olimlar generativ urug'larni dalaga ekilganda o'simliklarning unib chiqishni himoya qilib turuvchi bosma 112 (perfonirovanniy) qog'ozni tavsiya etadilar. Bunday tadbir tuproqdagi namlikni ushlab turishiga va begona o'tlar o'sishini sekinlashtirishga yordam beradi. Afsuski, ushbu qog'oz hozir ishlab chiqilmaydi. Urug' ekilganda qator ustini torf bilan mulchalash ko'chat hosildorligini 40- 5% ga oshiradi. Eng ma'qul mo'lchalash materiali torf hisoblanadi. Polietiliyen plyonkalardan foydalanilganda va go'ng bilan mo'lchalanganda past hosil olingan, chunki go'ng tuproq yuzasida tezda qurib namlikni yo'qotadi. Olimlar tomonidan keyingi yillarda urug'larni seyalkalar yordamida yoki suv bilan (gidrovusev) ekishni mexanizasiyalashtirishga imkon beruvchi texnik jarayonlarini va qator oralariga ishlov berish masalalari ishlab chiqilgan. Masalan, kartoshka urug'larini piyoz ekish uchun mo'ljallangan SLN-8A seyalkasini o'zgartirilgan markasini taklif etishadi. Olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarni ko'rsatishicha urug'larning unuvchanligi ekish oldi tayyorlash texnologiyasi va ekish usullariga bog'liq.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Atabayeva X.N., Xudoyqulov J.B. O'simlikshunoslik. Toshkent. 2018. – B. 259- 282.
2. Hamzayev A.X. O'zbekistonning janubida ertagi va ikkihosilli ekinlar sifatida kartoshka o'stirish texnologiyasi. Avt. dok. diss. Toshkent, 2016. – B. 84.
3. Ostonaqulov T.E. Kartoshka yetishtirish. Toshkent. 2021. – B. 96.
- 4.. Ostonaqulov T.E., Ismoyilov A.I. Urug'lik kartoshka chiqimi va ko'payish koeffitsiyentiga ekish sxemalarining ta'siri. AGRO ILM jurnali, T., 2018. – B. 49.
5. Zuyev V.I., Qodirxo'jayev O., Bo'riyev H.CH., Azimov B.B. Kartoshkachilik. - T., 2005. – B. 336.
6. Ходжимуродова Н.Р., Хакимова Н.Х., Тураева Н.Н. Микроорганизмы орошаемых почв Бухарского Оазиса. / QarMII Innovatsion texnologiyalar. Innovative technologies.Ilmiy-texnik jurnal - Qarshi. 2021/1(41)-son .B.72-76 .
7. Hakimova N.X., Tokhirov B., O'ktamova M., Akramova M. Mobile phosphorus and potassium in the soil determination / International Journal for Innovative Engineering and Management Research. www.ijiemr.org doi:10.48047/ijiemr/v10/104/111 .vol10 issue04, april2021. impact factor 7.819.
8. Курвантаев Р., Мазиров М.А., Хакимова Н.Х., Солиева Н.А. Эволюция и прогноз развития орошаемых типичных и светлых серёзомов на третьей террасе реки Зарафшан. / Владимирский земледелец. Научно-практический журнал. №4(98) 2021 DOI:10.24412/2225-2584-2021-4-14-20.
9. Hakimova N.X., Isroilova N.X., To'yumurodov Sh.T., Boboyev A.H. The importance of microorganisms in the saline soils of the Bukhara oasis. / Laboratorium WIEDZY Artur Borcuch Gospodarka I Innowacje Volume: 21/2022. Impact Factor: 8.01.
10. Hilola Salimova, Hafiza Artikova Determination of the mechanical composition and salinity of the Bukhara Gijduvan district of the Bukhara region. 2023 Журнал E3S Web of Conferences
11. Salimova H.X., Artikova H.T., Baxtiyorova Sh.Sh.TUPROQNING ShO'RLANISH TIPI VA DARAJASI (G'ijdivon tumani sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar sharoitida) TURLI TUPROQ-IQLIMSHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH VA O'SIMLIKLARNI HIMOYA QILISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman. Buxoro, 2023-yil 12-dekabr. B. 101-102
12. Salimova H.X. SUG'ORILADIGAN O'TLOQI TUPROQLARNING UNUMDORLIGI (G'IJDIVONTUMANI MISOLIDA). TURLI TUPROQ-IQLIMSHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH VA O'SIMLIKLARNI HIMOYA QILISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman. Buxoro, 2023-yil 12-dekabr. B. 192-193

## ОЛИЙ ТАЪЛИМДА МАШГУЛОТ МАЪЛУМОТЛАРИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ, ТАҚҶОСЛАШ УСУЛЛАРИ ВА УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

**Бойкўзиев Х.Х.** – Самарқанд давлат тиббиёт университети, гистология, цитология ва эмбриология кафедраси доценти.

**Мирзаева С.С.** – Самарқанд давлат тиббиёт университети, гистология, цитология ва эмбриология кафедраси асистенти,

### АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада олий таълим тизимида таълим сифати машғулотлар смарадорлигини оширишда инновацион таълим усулларидан фойдаланиш, машғулотлар маълумотларини таҳлил қилиш ва таққослаш усуллари баён қилинган. Шу жумладан, “ВЕННА диаграммаси”, “Cwat - таҳлил”, жадвали, “Хулосалаш” усули, “ФСМУ” усули, “Нима учун “ схемаси, “Қандай “ диаграммаси, “Пахона” чизмаси, “Пирамида” чизмаси каби усуллар изоҳи берилганд.

**Калит сўзлар:** олий таълим, машғулот таҳлили, маълумотларни таққослаш усуллари.

### Маълумотларни таҳлил қилиш ва таққослаш воситалари

#### Венна диаграммаси

**Бу усул - 2 ва 3 жиҳатларни хамда умумий томонларини солиштириш, таққослаш ёки карама-карши қўйиш учун кўлланади.**



Тизимли фикрлаш, солиштириш, таққослаш, таҳлил қилиш кўникмаларини ривожлантиради.

Венна диаграммасини тузиш қоидаси билан танишгандан сўнг, алоҳида кичик гуруҳларда диаграмма Веннани тузадилар ва кесишибадиган жойларни (x) тўлдирадилар.

Жуфтликларга бирлашиб ўзларининг диаграммаларини тўлдирадилар ва таққослайдилар.

Доираларни кесишувчи жойида, икки - уч доиралар учун умумий бўлган, маълумотлар рўйхатини тузадилар (1, 3, 8, 10).

#### Венна диаграммаси



### “SWOT – таҳлил” жадвали

Бу усул - алоҳида муаммо ёки лойиҳани ташкиллаштириш, вазиятни таҳлил қилиш ва манбани баҳолашда қўлланилади.

Тизимда фикрлаш, солиштириш, таққослаш, таҳлил қилиш кўникмаларини ривожлантиради.

“SWOT – таҳлил” жадвалини тузиш қоидаси билан танишилади ва алоҳида - кичик гуруҳларда жадвал тузадилар ва тўлдирадилар. Кичик гуруҳларга бирлашиб, ахборотларни таққослайдилар, жадвални тўлдирадилар, ўзгартирадилар ва умумий жадвалга келтирадилар. Иш натижаларининг тақдимоти SWOT – таҳлил жадвалнинг номи инглизча сўзларнинг бош ҳарфларидан тузилган.

**Strengths** - кучли томони, ташкиллаштиришнинг ички манбалари мавжудлиги назарда тутилади.

**Weakness** - кучсиз томони, ички муаммоларининг мавжудлиги;

**Opportunities** - ташкиллаштиришдан ташқарида ривожланиш учун мавжуд имкониятлар;


**Threats** - ташқи муҳитда ташкиллаштиришни муваффақиятига таъсир этувчи хавф хатарлар (2, 4, 5, 11);

### “SWOT-таҳлил” жадвали

S	W
O	T

Қоидага кўра, SWOT - таҳлил муваффақиятини ташкиллаштиришига боғлиқ бўлмай, балки муҳокаманинг натижалари келгусидаги аниқ таклиф ва лойиҳаларни ишлаб чиқаришда ҳисобга олиниши мумкин. Бундаги кетма - кетликлар қўйидагича бўлиши керак.

	Таҳлил таркиблари	Натижаларни амалга оширишнинг хусусиятлари
S	Кучли томонлари (ташкиллаштиришнинг ички муаммолари)	Барқарор ривожланишнинг асосий механизми бўлиб хизмат қиласи.
W	Кучсиз томонлари (ташкиллаштиришнинг ички муаммолари)	Янги лойиҳалар асоси ҳисобланади. Тўсиқларни енгиб ўтишнинг йўли бўлиши мумкин.
O	Имкониятлар (ташқаридан)	Ташкиллаштириш фаолияти айнан шуларни енгиб ўтишга йўналтирилган бўлиши лозим. Янги лойиҳалар учун энг муҳим мақсад ҳисобланади. Ривожланиш стратегиясини ишлаб чиқиша албатта ҳисобга олиниши зарур.

		қанчалик мос келишини ҳисобга олиш зарур бўлади. Янги лойиҳаларнинг асоси ёхуд ҳамкорликни излаш манбаси бўлиш мумкин.
T	Хавфлар (ташкаридан)	Ҳар бир янги лойиҳада ҳисобга олиниши зарур; Уларни енгигиб ўтиш ёки бартараф этиши йўллари ишлаб чиқилиши керак; Баъзида мантиққа мос келмайдиган “рақиблар”, иттифоқчиларга” айланиши мумкин

### Хуласалаш (Резюме, Веер) усули.

**Усулнинг максади:** Бу усул мураккаб, қўп тармокли ва мумкин кадар, муаммоли ҳарактердаги мавзуларни ўганишга қаратилган. Усулнинг моҳияти шундан иборатки, бунда мавзунинг турли тармоқлари бўйича бир хил ахборот берилади ва айни пайтда уларнинг ҳар бири алоҳида аспектларда муҳокама килинади. Масалан, муаммо ижобий ва салбий томонлари, афзаллик ва камчиликлари, фойда ва заарлари бўйича ўрганилади. Бу интерфаол усул танқидий, таҳлилий ва аник мантиқий фикрлашни мувваффақиятли ривожлантиришга, хамда ўқувчиларнинг мустақил ғоялари, фикрларини ёзма ва оғзаки шаклда тизимли баён этиши ва ҳимоя қилишига имконият яратади. Хуласалаш усулидан маъруза машғулотларида индивидуал ва жуфтликлардаги иш шаклида амалий ва семинар машғулотларида кичик гуруҳлардаги иш шаклида, мавзу юзасидан билимларни мустаҳкамлаш, таҳлил қилиш ва таққослаш максадида фойдаланиш мумкин (3, 6, 9, 12).

#### Усулни амалга ошириш тартиби:

Тренер - ўқитувчи иштирокчиларни 5 - 6 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади.

Тренинг максади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништир - гач, ҳар бир гурухга умумий муаммони таҳлил килиниши зарур бўлган кисмлари туширилган тарқатма материални тарқатади.

Ҳар бир гурух ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил килиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён килади.

Навбатдаги боскичда барча гуруҳлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади. Зарурый ахборотлар билан тўлдирилади.

### ФСМУ усули

**Технологиянинг максади:** Мазкур технология иштирокчилардаги умумий фикрлардан ҳусусий хуласалар чиқариш, таққослаш, қиёслаш оркали ахборотни

ўзлаштириш, хулосалаш, шунингдек, мустакил ижодий фикрлаш кўникмаларини шакллантиришга хизмат килади. Мазкур технологиядан маъруза машғулотларида, билимларни мустаҳкамлашда, ўтилган мавзуни баҳолашда, уйга вазифа беришда, ҳамда амалий машғулот натижаларини таҳлил қилишда фойдаланиш тавсия этилади.

#### Технологияни амалга ошириш тартиби:

- иштирокчиларнинг мавзуга оид бўлган якуний хулосаси ёки гояси таклиф этилади;
- ҳар бир иштирокчига ФСМУ технологиясининг боскичлари ёзилган коғоз тарқатилади.
- иштирокчиларнинг фикрлари индивидуал ёки гурухнинг хулосаси тақдимот килинади.

<b>Ф</b>	Фикрингизни баён этинг
<b>С</b>	Фикрингизнинг баёнига сабаб кўрсатинг
<b>М</b>	Кўрсатган сабабингизни исботлаб мисол келтиринг
<b>У</b>	Фикрингизни умумлаштиринг

ФСМУ таҳлили қатнашчиларда касбий - назарий билимларни амалий машқлар ва мавжуд тажрибалар асосида тезкор ва муваффақиятли ўзлаштирилишига асос бўлади (7, 13, 14).

**Муаммони аниқлаш, таҳлил қилиш ва уни ҳал этишни режалаштириш усуллари.**

#### “Нима учун” схемаси


**Бу** усул - муаммонинг дастлабки сабабларини аниқлаш бўйича фикрлар занжири сифатида фойдаланади.

**Схема** - тизимлар, ижодий, таҳлилий фикрлашни ривожлантиради ва фаоллаштиради.

Тизимли, ижодий, таҳлилий мушоҳада қилиш кўникмаларини ривожлантиради.

“Нима учун” схемасини тузиш қоидасини ўрганиб олгандан кейин, алоҳида кичик гуруҳларда муаммони ўрганиб чиқиши лозим. “Нима учун” сўроғини берадилар, чизиб ўрганадилар ва бу саволга жавоб ёзадилар. Бу жараён муаммонинг дастлабки сабаби аниқланмагунча давом этади.

Кичик гуруҳларга бирлашиб, ўзларининг чизмаларини тўлдирадилар ва умумий гуруҳнинг чизмасини шакллантиради. Шундан сўнг иш натижасини тақдимот қиладилар.



**“Нима учун” чизмасини тузиш қоидалари:**



1 Айлана ёки тўғри тўрт бурчак шакиллардан фойдаланишни ўзингиз танлайсиз.

2 Чизма кўринишининг мулоҳазалар занжирини тўғри чизиқлими ёки тўғри чизиқли эмаслигини ўзингиз танлайсиз

3 Йўналиш қўрсаткичлари сизнинг фикрингизни дастлабки ҳолатдан, натижагача бўлган йўналишини белгилайди (15, 16).

### **Куйидан юқорига босқичма-босқич бўйсинувчи “Қандай?” диаграммаси.**

**Бу усулдан** - муаммо тўғрисида умумий тасаввурларини олиш имконини берувчи мантиқий саволлар занжири сифатида фойдаланади.

Диаграммадан фойдаланиб, тизимли фикрлаш, тузилмага келтириш, таҳлил қилиш қўникмаларини ривожлантириш мумкин.

Диаграммани тузиш қоидаси билан танишгандан сўнг, талабалар кичик гурухларга бирлашиб, ҳар бир иштирокчи ўз чизмасини тўлдиради ва умумий гурух чизмасини яратади. Шундан сўнг гурух сардори иш натижасини тақдимот килади.

Иш натижаларининг тақдимоти


Куйидан юқорига босқичма босқич бўйсинувчи “Қандай?” диаграммаси

Қандай

Қандай

Қандай

Қандай



“Қандай” диаграммасини чизиш қоидалари:

Кўпгина холларда муаммони хал этиш учун “Нима қилиш керак?” лиги тўғрисида ўйланиб қолмаслигингиз керак. Асосан муаммони ечишда “Уни қандай хал қилиш керак?”, “Қандай?” асосий саволлар юзага келишдан иборат бўлмоғи лозим.

“Қандай?” саволарингиз изчил берилиши муаммони хал қилиш имконини беради:

Муаммони ечиш, нафақат бор имкониятларни, балки уларни амалга ошириш йўлларини ҳам тадқиқ қилидан юқорига босқичма - босқич бўйсунадиган ғояллар тузилмасини аниқлайдилар.


Диаграмма стратегик даражадаги саволлар билан бошланади. Муаммони ечишнинг пастги даражаси биринчи галдаги ҳаракатларнинг рўйхатига мос келади.

Барча ғояларни ўйлаб ўтирмасдан, баҳоламасдан ва таққосламасдан тезликда ёзиш керак.

Диаграмма хеч қачон тугалланган бўлмайди, унга янги ғояларни киритиш мумкин. Агарда чизмада савол унинг “Шохларида” бир неча бор такрорланса, унда у бирор муқимликни англатади. У муаммони ечишнинг асоси бўлиши мумкин. Янги ғояларни график кўринишида, дараҳт ёки каска кўринишида, юқоридан пастга ёки чапдан ўнга қайд қилишни ўзингиз ҳал этасиз. Агарда сиз ўзингизга тўғри саволлар берсангиз ва унинг ривожланиш йўналишига

ишенсангиз, диаграмма, сиз ҳар қандай муаммони амалий жиҳатдан ечимини топишингизни кафолатлайди (3, 13, 14, 15).

### Тузилмавий-мантиқий чизма "Погона"



### Тузилмавий-мантиқий чизма „погона”ни чизиш қоидалари.

Погонани тузиш жараёнида тизимли схеманинг таркибий қисми ва элематларни силжитиш мумкин. У ёки бу ҳолатни қайта фикрлаш имкониятини беради.

Агарда сиз ғояларни ишлаб чиқишида тор йўлакка кириб қолсангиз, у холда, бир-икки погона юқорига қайтинг ва муҳим нарсани унутмаганизга, ҳамда бошқача нимадир қилиш мумкин эканлигини кўриб чиқинг.

Агар сиз чапдан ўнга ёзишга ўрганган бўлсангиз, "Погона" чизишни ўнгдан чапга қараб чизишга ҳаракат қилинг. Бунинг учун асосий ғояни чап тарафга эмас, балки ўнг тарафга жойлаштиринг (3, 10, 12).


### "Пидармида" чизмаси.

**Бу усул** - ғояларни қуйидан юқорига босқичма-босқич тақдим этиш воситаси ҳисобланади.

Чизма орқали тизимли фикрлаш, таҳлил қилиш, ривожлантириш ва фаоллаштириш кўникмалари мустаҳкамланади.

Энг аввал чизмани тузиш қоидаси билан танишиб чиқилади. Сўнгра алохида кичик гуруҳлар тузилади. Гуруҳларда аввал асосий муаммони (ғоя вазифа) ёзадилар, сўнгра кичик муаммоларни батафсил кўриб чиқиш учун "кичик шохчаларни" чизадилар. Натижада ҳар бир ғоя ривожланишини батафсил кузатиш мумкин. Охирида гуруҳ сардори иш натижаларини тақдимот киласди (11, 12, 13, 14).

## “Пирамида” чизмаси



Хулоса қилиб айтганда, олий таълим тизимида таълим сифати машғулотлар смарадорлигини ошириш мақсадида, машғулотлар маълумотларини таҳлил қилиш ва таққослаш усулларидан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Шу билан бирга ана шу усулларнинг ютуқ ва камчиликларини инобатга олиб фойдаланиш мақсадгага мувофиқ бўлади.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури". Тошкент. 1997 йил 29 август.
2. Авлиёқулов Н. Педагогик технологиялар. Тошкент. 2008 йил.
3. Бойқўзиев Ҳ. Ҳ., Бобожанова Ш.Ш., Дехқонова Н.Т., Джуракулов Б.И., Исмоилова Н.А. "Тиббиёт олий таълим муассасаларида тиббий биологик фанларни ўқитишда илғор педагогик технологиялардан фойдаланиш". Самарқанд 2019. 51 бет
4. Бобожанова Ш.Ш. Патология фанини ўқитишда интерфаол усулларни қўллаб машғулот смарадорлигини ошириш. Тошкент. 2016 йил.
5. Ишмухаммедов Р., Абдуқодиров Р. Инновацион технологиялар . Тошкент. 2007 йил.
6. Ишмухаммедов Р., Пардаев А., Абдуқодиров А. Таълимда инновацион технологиялар. Тошкент. 2008 йил..
7. Махсудов С.Н. ва бошқалар . Тиббиёт таълимида замонавий педагогик технологияларнинг қўлланилиши . Тошкент. 2016 йил.
8. Рахимов Б. Педагогик технологиялар схемаларда. Тошкент. 2009 йил.
9. Саидахмедов Н., Абдурахимов С. Педагогик технологиялар, педагогик маҳорат. Тошкент. 2010 йил.
10. Толипов О., Усмонбоева М. Педагогик технологиялар. Тошкент. 2005 йил.
11. Davronova A. B., Avazova G. A., Rakhmonova Kh. N., Mukhiddinova S. M. Development of professional self-education competence of future specialists with medical education. Journal of Universal Science Research, 1(12), 139–144.
12. Орипов Ф.С., Блинова С.А., Бойкузиев Ҳ.Ҳ. Организация образовательного процесса на младших курсах медицинского института. «Личностный подход в обучении и гуманизация учебно -воспитательного процесса» межвузский Республиканский сборник научных статей Стр. 29-31. Самарқанд 2013.

13. Орипов Ф.С., Блинова С.А., Хамирова Ф.М. Преподование морфологических дисциплин в медвузе сочетание традиционных и новых образовательных технологий. Материалы научно-практической конференции “Система повышения квалификации педагогических кадров в вузах Узбекистана: опыт, приоритеты и перспективы развития” 18 апрель 2018. С. 41-42.
14. Орипов Ф.С., Дехканов Т.Д., Бойкузиев Ҳ.Ҳ., Ҳамраев А.Х. Фундаментал фанларни ўқитишда горизантал ва вертикал интеграциянинг аҳамияти. Сборник учебно-научнопрактической конференции “Общение с пациентом, проблемы обученич практических навыков и их решения при подготовке квалифицированных специалистов” 2018 Ташкент С. 397-398.
15. Орипов Ф.С., Дехканова Н.Т. Реализация принципов дидактики при модульной системе обучения. “Современное состояние, проблемы и перспективы медицинского образования” международная учебно-научно-практическая конференция. Бухара 12 апреля 2018. С. 150.
16. Халимова Н.А. Ҳамраева Ю.М. Рахмонова Ҳ.Н. Рахмонов Ф.З. Педагогическое общение в деятельности врача. Journal of Universal Science Research, 1(11), 305–315.

## ORGANLAR FAOLIYATINING NEYROIMMUNOENDOKRIN BOSHQARILUVI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

*Boyqo'ziyev X.X. – Samarqand davlat tibbiyat universiteti,*

*gistologiya, sitologiya va embriologiya kafedrasi dotsenti*

*Djuraqulov B.I. – Samarqand davlat tibbiyat universiteti,*  
*gistologiya, sitologiya va embriologiya kafedrasi assistenti.*

*Samarqand shahar. O'zbekiston Respublikasi*

### ANNOTATSIYA

Organizm ichki a'zolari faoliyatining neyrogumoral boshqaruvi haqidagi dastlabki tushunchalar 19-asrning boshlarida paydo bo'la boshladi. 20-asrga kelib esa bu tushunchalar anchagina rivojlandi va juda ko'plab ilmiy izlanuvchilar e'tiborini o'ziga qaratdi. Bu davrga kelib organizmning neyroimmunoendokrin boshqarilovi haqida ko'plab ilmiy asoslangan dunyoqarashlar, nazariyalar va mulohazalar shakllandi. Shu jumladan, neyroimmunoendokrin tizimlarning o'zaro aloqalari mavjudligini asoslab beruvchi "Neyroimmunoendokrinologiya" fani shakllandi. Ushbu maqolada organizmning neyroimmunoendokrin boshqarilovi haqida dunyoqarashlarning paydo bo'lishi, ilmiy asoslanish jarayonlari bayon qilingan. Maqolada keltirilgan ma'lumotlar barcha shifokorlarga, ilmiy izlanuvchilarga ilmiy asoslangan dalillar bo'lib yaqindan yordam berishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Neyroimmunoendokrin tizim, ichki a'zolar boshqarilovi.

**Dolzarbliyi.** 20-asr amaliy tibbiyotining hal qlinmagan va 21-asrda ham muammo bo'lib kelayotgan qandli diabet kasalligi muammosi me'da osti bezining tuzilshi va funksiyasi o'zgarishi bilan bog'liqligi barchaga ayon. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda tadqiqot mavzusining me'da osti bezi chiqaruv nayi boshqaruvchi sistemalaridan biri bo'lgan diffuz endokrin sistemasi hujayralarning tuzilishiga va funksional morfologiyasiga bag'ishlanganligi tadqiqoqtning nazariy va amaliy tibbiyotning eng dolzarb muammolaridan biriga bag'ishlanganligini ta'kidlaydi.

Ichki a'zolarning mahalliy boshqaruvchi tuzilmalari (intramural nerv apparati, diffuz endokrin apparati va limfold apparati) ular faoliyatining boshqarilishida, hazm nayi qismlarining funksional mutanosibligini va o'zaro aloqalarini va ularning qo'shni a'zolar bilan aloqasini (visero-viseral munosabatlari) ta'minlashda, shuningdek, ular uchun xos bo'lgan maxsus vazifalarini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu nuqtai nazardan olib qaralganda bu funksional munosabatlarning morfologik asosini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ichki a'zolar intramural nerv va endokrin apparatining morfologiyasi (ayniqsa hazm sistemasi a'zolari) juda yaxshi o'rganilgan (1, 2, 3, 5). Shuningdek ichki a'zolarning diffuz endokrin apparatining

morfologiyasiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar ham anchagina (4, 6, 7, 8, 11, 12). Hazm nayi a‘zolarining devori tarkibidagi limfold tuzilmalarining morfologiyasi keng miqyosda o‘rganilgan (9, 10, 13, 14, 15, 16).

Hazm nayi a‘zolari boshqaruvchi sistemalari orasida ularning o‘zaro morfofunksional bog‘liqligi yaqqol namoyon bo‘ladi va bu bog‘liqlikning morfologik asoslarini o‘rganishga bag‘ishlangan neyrogistologik ishlar ham talaygina (17, 18, 21, 22, 23).

Gastroduodenal soha hazm nayining hazm jarayoni yangi sifat bosqichiga o‘tadigan, ya‘ni oshqozon bo‘shlig‘ida mexanik va ximiyaviy ishlovdan o‘tgan luqma (ximus) o‘n ikki barmoq ichakka o‘t suyuqligi va me‘da osti bezi shirasining ta‘siriga tayyorlab ma‘lum miqdorda o‘qtin- o‘qtin o‘tkazilib turadigan soha hisoblanadi.

O‘n ikki barmoq ichakka o‘t suyuqligining va me‘da osti bezi shirasining ajralishi qat’iy tartib asosida yuz berishi va bu jarayon hazm nayining bosh qismlarining faoliyati bilan uzviy bog‘liq. Demak, bu sfinter faoliyatiga ham o‘n ikki barmoq ichakdan, ham o‘t yo‘llaridan, ham me‘da osti bezidan va oshqozonning boshqa qismlaridan intraseptiv ta‘sirlar ko‘rsatiladi deb tahmin qilinishi mumkin.

Bu sohaning funksional buzilishlari, ayniqsa, duodenoezofagal reflyuks sindromi va bu hodisaning oshqozon kasalliklaridagi o‘zgarishlari muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy adabiyotlarda tez-tez uchramoqda (19, 20, 23, 24, 25, 26, 27).

Shuningdek, hazm nayi bo‘ylab vegetativ nerv hujayralarining tarqalish zichligi bu neyronlarning vitsero-vitseral refleks yoylaridagi ishtiroki ham o‘rganilgan. Uzun aksonli neyronlarda har xil darajada ifodalangan sinaptik nerv oxirlari, ularning har xil eksperimental sharoitdagi morfologik o‘zgarishlari to‘liq ko‘rsatilgan.

Hazm nayi a‘zolari va ulardagi nerv tuzilmalarining markaziy nervlar bilan aloqasini o‘rganish uchun bu nervlarni kesganda a‘zolar intramural nerv apparati tuzilmalarida yuz beradigan o‘zgarishlar ham keng miqyosda o‘rganilgan. Bu jihatdan oshqozon, o‘n ikki barmoq ichak va o‘t yo‘llari bir necha o‘n yillar davomida tadqiqotchilar diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmoqda (28, 29, 30, 31, 32). O‘n ikki barmoq ichak va o‘t yo‘llarining innervetsion aloqalari mikropreparovka va o‘t xaltasini olib tshlash, bu a‘zo nerv apparatida operatsiyadan keyingi muddatga bog‘liq holda yuz beradigan degenerativ o‘zgarishlarni kuzatish uslubi bilan o‘rganildi (33, 34, 35, 36, 37, 38, 39, 40). Sayyor nerv va diafragmal nerv kesilganda orqa miya nerv tugunlari va quyosh chigali tugunlari olib tashlanganda o‘t yo‘llarida va o‘t pufagidagi nerv tuzilmalarida yuz beradigan o‘zgarishlar morfologik jihatdan tasdiqlandi (43, 44, 45, 46, 50, 51). Keyingi yillarda neyrogistologiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu ichki a‘zolar devori tarkibidagi adrenergik va xolinergik nerv tuzilmalarining morfologiyasini o‘rganish bo‘ldi. Bu jihatdan yurak va qon tomirlar va hazm sistemasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar boshqa sistemalarga nisbatan bir muncha ko‘p (41, 42, 48, 49, 52).

So‘nggi yillarning tadqiqotlari hazm nayi bo‘ylab joylashgan Meysner, Auerbax va subseroz nerv chigallari tarkibida organning morfofunksional ahamiyati bilan bog‘liq holda har xil tarqalish zichligiga ega bo‘lgan adrenergik va xolinergik nerv tuzilmalari mavjud ekanligi va ularning nisbiy miqdori o‘rganildi va o‘rganilmoqda (55, 56, 57, 58, 59). Bu nerv tuzilmalarining hazm nayi sfinkterlari sohasida o‘rganilishi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Barchaga ma‘lumki sfinkterlarning ochilib yopilishi undagi simpatik va parasimpatik nerv tuzilmalarining qo‘zg‘alishi va tormazlanishi bilan uzviy bog‘liq. Bu jihatdan adrenergik va xolinergik nerv tuzilmalarini o‘rganish ularning mediatorlari (adrenelin, noradrenalin, dofamin, atsetilxolin) va ularni parchalaydigan fermentlar uchun maxsus bo‘lgan neyrogistoximik uslublar bilan o‘rganish muhm ahamiyatga ega bo‘ladi. Oshqozon bezlarida adrenergik nerv tuzilmalarining mavjudligi uning sekretsiyasiga bu nervlarning bevosita aloqasi borligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, hazm a‘zolari devoridagi qon tomirlarda (ayniqsa arteriyalarda) adrenergik nerv tolalarining boshqa tomirlarga nisbatan ko‘pligi bu a‘zolarning qon bilan ta‘minlanishi qismlarning o‘zaro innervatsion aloqalarini o‘rganish masalalari ayniqsa gastroduodenal sohaning intramural nerv apparati ham to‘liq o‘rganilmagan masalalardan biri hisoblanadi. Bu sohada bir nechta fiziologik sfinkterlar mavjudligini hisobga olsak (53, 54, 60, 61, 62) tadqiqotning dolzarbliji yanada ortadi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Abdurakhmanova, I. N., Iskandarovich, D. B., & Khudoyberdievich, B. N. (2022). ҚҮЁНЛАР ЧУВАЛЧАНГСИМОН ЎСИМТАСИ ЛИМФОИД ТУГУНЧАЛАРИНИНГ ПРЕНАТАЛ ВА ПОСТНАТАЛ ОНТОГЕНЕЗДА ШАКЛЛАНИШИ. JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE, 7(1).
2. Ablamunis V.G., Kirsanova L.A. Fenomen migrasii V-kletok ispsevdoostrovkov podjeludochnoy jelezi plodov krupnogo robatogo skota invitro. //Byull. yeksp. biol-1992 T. 113.
3. Adams M.S. and Bronner-Fraser M. The role of neural crest cells in the endocrine system. Endocrine Pathol/ 2009, V.20. №2. P. 98-113.
4. Akmayev I.G. Puti i sposobi gipotalamiceskoy regulyasii yendokrinnoy funksii podjeludochnoy jelezi. //Uspexi solv. biol., 1987, -T.103. -VIP.1.- S.109-123.
5. Akmayev I.G. Sovremennye predstavleniya o vzaimodeystviyah reguliruyushchix sistem: nervnoy, endokrinnoy i immunnoy //Uspexi fiziologicheskix nauk. 1996. -T. 27, №1. -S. 3-19.
6. Boyko‘ziyev H.X. Ozuqa turi va xayot tarzi turli xil bo‘lgan sut emizuvchi xayvonlar oshqozon tubi devori nerv va endokrin tizimining qiyosiy morfologiyasi. Monografiya. Samarqand-2022, Tibbiyot ko‘zgusi. bet 77.

7. Boykuziyev H.X. Morfologiya endokrinnix kletok jeludka koshek v norme. Tez. Dokl. nauch. konf. Samarkandskogo LKSM Uzbekistana, posvyuashchennoy 60-letiyu sammi. Samarkand, 1990. S – 26.
8. Boykuziyev H.X. Morfologiya endokrinnix kletok jeludka u suslikov. Problemi teoreticheskoy i prakticheskoy medisini. Tez. Dokl. nauch. konf posvyuashchenniy 60-letiyu Sammi 1990. S-24.
9. Boykuziyev H.X. Morfologiya neyroendokrinnogo apparata dno jeludka u mlekopitayushchix jivotnix. Trudi Krimskogo Medisinskogo instituta. Tom 125. Simferopol 1989. S 168.
10. Boykuziyev H.X. Morfologiya YeS-kletok dna jeludka mlekopitayushix jivotnix. Professor Xakim Zaxidovich Zaxidov tavalludining 80 yilligiga bagishlangan ilmiy anjuman materiallari. - Toshkent, 1992. S-82.
11. Boykuziyev H.X. Neyroendokrinniy apparat jeludka v norme i eksperimentalnom otravlenii karbofosom. Problemi teoreticheskoy i prakticheskoy medisini. Tez. Dokl. nauch. konf posvyuashchenniy 60-letiyu Cammi. Samarkand, 1990. 5-6-oktyabrya. S-26.
12. Boykuziyev H.X. Plotnost raspredeleniya endokrinnix kletok dna jeludka mlekopitayushchix s razlichnim xarakterom pitaniya. Nauch. trudi MMA imeni I.M.Sechenova. Problemi morfologii i parazitologii. -Moskva. 1992. S-182.
13. Boykuziyev H.X. Reaktivniye izmeneniye endokrinnix kletok sobstvennih jelez jeludka v eksprimente. Organniye osobennosti morfogeneza i refktivnosti tkanevix struktur v norme i patologii. R, Krimskogo Med. Inst-ta. 1989. S 160-161.
14. Boykuziyev H.X., Oripova A.F., Ibragimov D. Morfologiya endokrinnix kletok dna jeludka u krolikov pri eksperimentalnom golodanii. Biologiya va tibbiyot muammolari. Xalkaro ilmiy jurnal №2 (87) 2016 164-165.
15. Boykuziyev H.X., Oshkozon-ichak yo'li APUD-tizimi haqida ayrim mulohazalar. Jurnal gepatogastrologiya. №2 2022 s.21-22.
16. Boyqo'ziyev H.X. Reaktivniye izmeneniye endokrinnix kletok jeludka pri eksperimentalnom xolestaze. Jurnal gepato-gastroenterologicheskix issledovaniy. Materiali 75 oy mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii studentov medikov i molodix uchennix. 18 may 2021g. St 23-24.
17. Boyqo'ziyev H.X., Shodiyarova D.S. Organizmning APUD tizimi, o'rganilish darajasi va istiqbollari. Jurnal gepato-gastroenterologicheskix issledovaniy. 2022, №1 (Tom 3) 19-23.
18. Boyquziyev F.X., Boykuziyev H.X., Djurakulov B.I., Ismailova N.A. Morfologiya endokrinnix kletok dna jeludka krolikov pri eksperimentalnom xolestaze. Problemi biologii i medisini, 2021.-№3 (128) 177-180.

19. Boyquziyev F.X., Boykuziyev H.X., Oripov F.S., Xamrayev A.X. Ozuqa turi, sifati va hayot tarzi turli xil bo‘lgan sut emizuvchi hayvonlar oshqozoni tubi nerv va endokrin tizimining o‘zaro munosabatlari. Biologiya va tibbiyat muammolari, 2020.-№5 (122) 188-191.
20. Boyquziyev F.X., Boyqo‘ziyev H.X., Shodiyarova D.S., Djurakulov B.I., Ismailova N.A. Morfologiya apudositov dna jeludka sobak pri eksperimentalnom xolestaze. Biologiya va tibbiyat muammolari. 2022, №1 (134) st. 120-122.
21. Boyquziyev H. X., Okbayev M.B. Eksperimental ochlik holati va organizmning morfofunksional o‘zgarishlari haqida ayrim muloxazalar. Jurnal gepato-gastroenterologicheskix issledovaniy. 2022, №4 (Tom 3) 27-29.
22. Boyquziyev H. X., Okbayev M.B., Oripova U.F. Quyonlar oshqozoni tubi devorining eksperimental ochlik holatidagi reaktiv o‘zgarishlari. Biologiya va tibbiyat muammolari, 2022, (spesvipusk) 332-333.
23. Boyquziyev H. X., Rajabov Z.N. Oshqozon-ichak yo‘li apudositlarining histogenezi haqidagi dunyoqarashlar. Biomedisina va amaliyat jurnali. №6 2022. S. 91-103.
24. Dexkanov T.D., Boykuziyev H.X., Dexkanova N.T., Shodiyorova D.S. Morfologiya vneinsulyarnix endokrinositov podjeludochnoy jelezi. Nauka i innovasiy v XXI veke: Aktualnoye voprosi, otkritiya i dostijeniya sbornik statey XV mejdunarodnoy nauchno prakticheskoy konferensii. 23 oktyabrya 2019 g. Penza R.F..
25. Dexkanov T.D., Boykuziyev H.X., Oripov F.S. Morfologicheskiye osnovi mestnoy endokrinnoy regulasii vnutrinnix organov. Biologiya va tibbiyat muammolari. Xalqaro ilmiy jurnal №4.1 (92) 2016 39-40.
26. Dexkanov T.D., Boykuziyev H.X., Oripov F.S. Reaktivniye izmeneniya nervnogo i endokrinnogo apparatov gastrogepatodoledoxoduodenalnoy zoni v eksperimente. Organniye osobennosti morfogeneza i reaktivnosti tkanevix struktur v norme i potologi.-Tr Krimskogo med.inst-ta. –Simferopol, 1989.-S 164-165.
27. Dexkanov T.D., Turdiyev L.U., Boykuziyev H.X. Morfologiya Yes-kletok organov riшyeyvaritelnoy sistemi. Professor Xakim Zaxidovich Zaxidov tavalludining 80 yilligiga bagishlangan ilmiy anjuman materiallari. - Toshkent, 1992. S-69.
28. Dexkanov T.D., Turdiyev L.U., Boykuziyev H.X. Nervniy i endokrinniy apparati gastrogepatoduodenalnoy zoni v norme i pri eksperimentalnih vozdeystviyah. Tez. Dokl. 11 syezda AGE-Smolensk, 1992 13-18 sentyabrya. Poltova 1992 S -71.
29. Gerlovin Ye.Sh., Ivanova V.F., Puzirev A.A. Elektronnomikroskopicheskoy izucheniiye D-kletok ostrovkov podjeludochnoy jelezi nekotorix pozvonochnikov. //Sitologiya. 1974. -T,16. №5. -S. 555-558.
30. Grebenщikova V.I., Chensov Yu.S., Osiran M. Vliyanije golodaniya na kletki epitelija tonkoy kishki mishi. -M.: B.i., 1977. s. 71-73

31. Iskandarovich, D. B., Khudoyberdievich, B. N., & Abdurakhmanovna, I. N. (2022). СҮТ ЭМИЗУВЧИ ҲАЙВОНЛАР ИНГИЧКА ИЧАГИ ВА ЧУВАЛЧАНГСИМОН ЎСИМТАСИНИНГ МОРФОЛОГИЯСИГА ДОИР АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР. JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE, 7(1).
32. Ivanova V.F., Puzirev A.A., Reyskanin A.V. Submikroskopicheskoye izuchenije asino-insulyarnix kletok podjeludochnoy jelezi pozvonochnix v norme i eksperimente. //Arx. anat. 1974. -T.67. -Vip.7. -s. 93-96.
33. Kalinin A.V. Novoye v onkogeneze diagnostike i lechenii neyroendokrinnix opuxoley jeludochno-kishechnogo trakta i podjeludochnoy jelezi // Rossijskiy журнал gastroenterologii, hepatologii, koloproktologii, 1998, -T. 8, -№6. -s. 13-17.
34. Kolesnik Yu.M., Vasilenko G.V., Abramov A.V. Novoobrazovaniye V-kletok v asinarnoy tkani pri saxarnom diabete u kris. //Arx. pat. -1992. -T.54. -№12-s.24-27.
35. Krasnov V.P. Avtoradiograficheskoye issledovaniye urovnya proliferayii v kletkax asinusov i ostrovkov podjeludochnoy jelezi u intaktnix mishey. //Byull. eksper. biolog, -1973. -T.76.№6. -s. 111-114.
36. Kvetnoy I.M., Balashov V.I., Osadchuk M.A., Lipatova T.Ye., Morfofunktionalnoy osobennosti endokrinnix kletok jeludka pri xronicheskom biliarnom pankreatite. Klinicheskaya medisina, 2001. -№9. -S. 39-41
37. Lakomkin A.I., Myagkov I.F. Golod i jajda v fiziologicheskem aspekte. M.: Medisina, 1975.
38. Okbayev M.B., Boykuziyev H.X., Djurakulov B.I. Ochlik holati va organizmning unga javob reaksiyasi. Biologiya va tibbiyat muammolari, 2022, №6 (140), st. 380-381.
39. Oripov F. S., Boykuziyev H. X. Oshqozon - ichak yo‘li apudositlarining morfofunktional xususiyatlari. Doktor axborotnomasi. 2022, №3 (106) st.143-146.
40. Oripov F. S., Boykuziyev H. X., Mirzayeva S.S. Morfologiya immunnoendokrinnogo apparata tonkiy kishki jivotnix v rannem postnatalnom ontogeneze. Monografiya. Samarqand-2022. “Fan bulg’i”. Str 68.
Bronxopulmoner tizimning surunkali kasalliklari O'zbekiston Respublikasida ham, butun dunyoda ham tarqalishi bo'yicha yetakchi o'rnlardan birini egallaydi va ularning soni mehnatga layoqatli aholi orasida muttasil ortib bormoqda. JSST ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo bo'ylab 1 millionga yaqin odam dori vositalarini qo'llash bilan bog'liq asoratlar tufayli vafot etadi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining deyarli 80% sog'liqni saqlash tashkiloti doirasida asosan o'simlik preparatlaridan foydalanadi. Sog'liqni saqlashda dalillarga asoslangan o'simlik dori vositalaridan foydalanish davolanish darajasini va bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Pulmonologiyaning dolzarb muammolaridan biri keng tarqalgan va bemorlarning erta nogironlik va erta o'limga olib keladigan SOO'K ning oldini olish va davolashning oqilona usullarini ishlab chiqish va qo'llashdir. Bunday bemorlarni antibiotiklar bilan yallig'lanishga qarshi davolashning mavjud usullari kasallikning og'irligini yanada kuchaytiradi, bunda immunitetning himoya mexanizmlarini susayadi, o'pkada mikrosirkulyatsiya buzilishining rivojlanishi kelib chiqadi va nafas olishni yomonlashtiradi. Shu bilan birga, dorivor o'simliklar nafaqat tananing mudofaasini inhibe qilmaydi, balki, aksincha, antibiotiklarga qarshilik ko'rsata oladigan mikroorganizmlarning ko'plab shtammlariga qarshi faol va inson immunitetini oshiradi. Tadqiqot maqsadi SOO'K bilan og'riqan bemorlarda kompleks terapiyaning bir qismi sifatida dorivor o'simliklardan foydalanish samaradorligi va portativligini baholash. SOO'K tashxisi bilan 30 yosh va undan katta yoshdagi erkaklar va ayollar. Dorivor o'simliklar - zefir o'ti, oregano o'ti, timyan o'ti, kalendula gullari, romashka, qizilmiya ildizi, jenshen, yalpiz barglari, atirgullar kuniga 3 marta 14 kun davomida qaynatmalar va damlamalari shaklida buyuriladi. Bemorlarning shikoyatlari, tarix ma'lumotlari, ob'ektiv ma'lumotlar, laboratoriya ma'lumotlari (OAC, OAM, biokimiyoviy qon testlari - ALT, AST, bilirubin, shakar, xolesterin, kreatinin, karbamid), umumiy balg'am tahlili, instrumental ma'lumotlar (ko'krak qafasi x-nur, EKG). Dorivor o'simliklar bilan davolash samaradorligi asosiy klinik ko'rinishlarni va laboratoriya tadqiqot usullarini har tomonlama baholashni o'z ichiga oladi. Davolash jarayonida kasallikning asosiy klinik ko'rinishlarining ijobiy dinamikasi qayd etilgan. Davolashning 7-kunida yo'talning susayishi, unumidorligi oshishi, nafas qisilishi, ko'krak qafasidagi og'riqlar, terlash kamaydi, bemorlar o'zlarini yaxsh his qila boshlashdi, uyqu normallashadi. Davolash kursining oxiriga kelib, bemorlarning 80 foizida yo'tal to'xtadi, qolganlarida yo'tal kamdan-kam yoki o'rtacha darajada qoldi. Auskultatsiya paytida aniqlangan quruq va ho'l xirillashlar bemorlarning 85 foizida yo'qolgan, qolganlarida ozgina xirillashlar qoldi. Davolash kursining oxiriga kelib, bemorlarning 100% astenik sindromning yoqolishini qayd etildi. Nonspesifik yallig'lanish sindromini tahlil qilganda, barcha bemorlarda davolanishning 10-kuniga qadar uning kamayganligini ta'kidlash kerak. Bemorlarning hech biri kam samaradorlikni ko'rsatmadidi yoki yo'q. Barcha bemorlarda dorivor o'simliklar bilan

davolashning samaradorligi a’lo darajada edi, ya’ni hech bir bemorda nojo’ya ta’sirlar qayd etilmagan.

Shunday qilib, dorivor o’simliklardan foydalanish SOO’K ni kompleks davolashda samarali va xavfsiz ekanligini ko’rsatadi. Dorivor o’simliklar yo’talni, balg’amni, xirillashlar sonini va bronxo-obstruktiv sindromning zo’ravonligini kamaytiradi, balg’am chiqishini yaxshiladi. Ular tinchlantiruvchi ta’sirga ham ega. Ular KOAHni davolash uchun ishlatiladigan boshqa dorilar bilan yaxshi kombinatsiyalandi va samara berdi. Shunday qilib, dorivor o’simliklar SOO’K ning kompleks terapiyasida yallig’lanishga qarshi, ekspektoran, antibakterial va tinchlantiruvchi vositalar sifatida tavsiya etilishi mumkin.

## AVTOMOBIL SOHASIDA ELEKTR VA ELEKTRON JIHOZLARDAN FOYDALANISH

*Temirov Asilbek Nasim o'g'li*

*Uchquduq tuman kasb-hunar maktabi*

*Avtomobil elektr va elektron jihozlariga xizmat ko'rsatish*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada avtotransport korxonalaridagi texnik servis va ta'mirlash texnologik jarayonlaridagi sifat tushunchasi va ko'rsatkichlari tahlili hamda servis xizmatini zamonaviy takomillashtirish usullari to'g'risida fikr yuritilgan. Shuningdek, avtomobil transporti ishining samaradorligini oshirish va texnik tayyor holda tutib turish vazifalarini amalga oshirishda avtotransport korxonalarida texnik servis va ta'mirlash ishlarini sifatli amalga oshirilishi lozimligi ta'kidlab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** *avtotransport korxonasi, qaror, nizom, texnik servis, ta'mirlash, texnologik jarayon, transport vositalari, texnik holat, texnologik jihozlar.*

### KIRISH

Mamlakatimizda so'nggi yillarda avtomobil transportining keskin sur'atlarda o'sishi sharoitida moddiy texnik va mehnat resurslarini tejashni ta'minlovchi omillardan biri – bu, avtobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash sifatini oshirishdir. Hozirgi sog'lom raqobat muhitida ushbu yo'naliш o'z ahamiyatini yanada oshiradi, chunki sifatsiz TXK va JT qo'shimcha harajatlarga va mijozlarni yo'qotishga olib keladi, bu esa o'z navbatida korxonaning obro'sini tushiradi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Sifat tushunchasi qadimiylardan tarixga ega. Birinchi hunarmandlar mahsulotni loyihalagan, ishlab chiqargan, sotgan, sifatni o'zi boshqargan va nazorat qilgan. Keyinchalik fan va texnologiyaning o'sishi, ishlab chiqarishning kengayishi natijasida mulk egasi hamma joyda qatnasholmay qoldi. Nazorat va qaror qabul qilishni boshqa kishilar amalga oshira boshladilar. Shu sharoitda sifatni tekshiruvchi katta nazorat bo'limlari tashkil etila boshlandi va bu ishga nazoratchilar jalb etildi.

Sanoatning yiriklashuvi, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va mahsulotlarning murakkablashishi sifat tushunchasining rivojlanishiga hamda mohiyatiga aniqlik kiritilishini talab etdi. Endilikda mahsulot o'lchamlarining to'g'riliги, materialning chidamliligi emas, balki "ishonchlilik" tushunchasi paydo bo'ldi. Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tish bilan sifatga haridor nuqtai nazaridan qaraladigan bo'ldi, ya'ni mahsulotning sifatiga baho berish undan foydalanish jarayonida amalga oshadigan bo'ldi. O'z navbatida ushbu ishlar samaradorligini ta'minlash maqsadida ko'plab hukumat qarorlari qabul qilinmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 1-fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ № 4143-sonli qarori bilan Transport vazirligi tashkil etildi. Mazkur qaror asosida 2019 yil 19 aprelda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 336-sonli qarori qabul qilinib, ushbu qaror asosida O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi avtomobil, temir yo'l, havo, daryo va elektr transporti, metropoliten va yo'l xo'jaligini rivojlantirish borasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda normativ-huquqiy tartibga solish bo'yicha Davlat boshqaruv organi ekanligi va Nizom asosida O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining maqomi, asosiy vazifalari, funktsiyalari, huquqlari, javobgarligi, faoliyatini tashkil etish va hisobot berish tartibi belgilab berildi.

Mijozga avtomobilni e'tirozsiz topshirilishiga qarab xodimlarni rag'batlantirish miqdori belgilanadi. Shuning uchun ham texnik-nazorat bo'limining faoliyatini mukammallashtirish bilan birgalikda servis-ta'mir xodimlarining shaxsiy javobgarligini ko'tarish, sifat uchun ma'naviy va moddiy rag'batlantirishni mukammallashtirish muhum ahamiyat kasb etadi.

Avtomobil transporti korxonalarida texnik servis va ta'mirlash texnologik jarayon ko'rsatkichlarining bevosita harakat tarkibining ishlash sifatiga ta'sirini ilmiy asoslash hamda ushbu jarayonlarda zamonaviy takomillashtirilgan usullardan foydalanish ta'minlanishi lozim. Avtomobil transporti korxonalarida texnik servis va ta'mirlash jarayonida ishlatiladigan texnologik jihozlar, ishlab chiqarish texnika bazasining ushbu jarayonlarga bevosita ta'sirini, mexanizatsiyalashganlik darajasini hisoblash, zamonaviy texnologik jihozlarga bo'lgan ehtiyojini aniqlash va ularning turini tanlash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish lozim. Jumladan quyidagi zamonaviy texnik servis va ta'mirlash jarayonlarni takomillashtirish usullarini taklif qilamiz:

- so'nggi rusumdagagi zamonaviy texnologik jihozlarni ishlab chiqarishga joriy etish;
- texnik servis va ta'mirlash jarayonidagi ishchi xodimlarning tizimli malakasini oshirish o'quv jarayonlarini tashkil etish;
- zamonaviy texnik servis va ta'mirlash texnologik jihozlarini sotib olishda xususiy tadbirdorlarga moliya, bank muassasalari tomonidan maqsadli kreditlar va davlat tomonidan subsidiyalar ajratish;
- avtoservis korxonalari moddiy texnika bazasi jihozlarini ishlab chiqaruvchi hamda kafolatli davrda xizmat ko'rsatuvchi markazlashgan kompleks tashkil etish;
- mavjud avtotransport korxonalari bazasida zamonaviy elektromobillar va gibridd avtomobilarga texnik xizmat ko'rsatish uchun qayta jihozlangan postlarni tashkil etish;

- mavjud avtovtransport korxonalari hamda avtoservislardagi texnik servis va ta'mirlash texnologik jihozlari bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlab, ularga bo'lgan ehtiyojni hisoblab chiqish;

- avtovtransport korxonalari, avtoservislar va avtoustaxonalarning elektron axborot bazasini yaratish.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sifatni boshqarish konsepsiysi 1960-yillardan boshlab eski an'anaviy nazorat konsepsiysi o'rniga vujudga keldi. Bunda A.V.Feygenbaum, U.E.Deming, prof. Isikava Kaoru kabi olimlarning hissasi katta. Ushbu olimlar ilmiy izlanishlarining samarasi o'laroq kompaniyalarning boshqaruv tarkibi o'zgardi, sifat bo'yicha vice-president shug'ullanadigan bo'lди. Bu sohada ayniqsa Yaponiyada juda samarali ishlar amalga oshirildi. Sifatni ta'minlash uchun oddiy farroshdan tortib prezidentgacha ish paytida o'qitildi va "sifat madaniyati" degan tushuncha paydo bo'lди.

Sifatli mahsulot ishlab chiqarish Yaponianing milliy g'ururiga aylandi. Sifat bo'yicha standartlar yaratila boshlandi, ularning birinchisi Britaniya standart instituti (British Standart Institution, BSI) tomonidan ishlab chiqilgan va 1979-yili tasdiqlangan BS 5750 standartidir. Keyinchalik ushbu standart Xalqaro Standartlashtirish Tashkiloti (ISO) tomonidan 1987-yili tasdiqlangan ISO 9000 seriyadagi standartga asos qilib olindi. ISO 9001, 9002 va 9003 standartlari 1994-yili qayta ko'rib chiqildi. 2000-yili ISO 9000 ning yangi tahriri tasdiqlandi va ushbu standart hozirgacha amalda. Bu xalqaro standart jahonda yetakchi o'rinni egallagan va uni korxona rahbarlari, muhandislari hamda ishchilari biladi. O'zbekiston Respublikasida xalqaro ISO standartini xalq xo'jaligida, shu jumladan, avtomobil sanoatida va avtomobil servisi va ta'mirlashda joriy etish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xalqaro ISO standarti asosida davlat standartlari yaratilgan. Ushbu standartlarni o'rganish va joriy etish ancha murakkab hamda maxsus sertifikati bor organlar tomonidan o'qitiladi. Mahsulotning sifati deganda uning nimaga mo'ljallanganligiga qarab, belgilangan talablarni qondiruvchi xususiyatlar majmuasi tushuniladi.

Avtomobillar texnik servisi va joriy ta'miri sifatini boshqarishda asosiy ko'rsatkich bo'lib avtomobil va uning agregat hamda tizimlarining texnik holat darajasi qabul qilinadi. Avtomobillar texnik servisi va joriy ta'miri sifatini boshqarish tizimi – muhandis-texnik, texnologik, tashkiliy-ta'minot, iqtisodiy, nazorat va boshqa o'zaro kelishilgan jarayonlar majmuidir. Korxonadagi harakatdagi tarkibning texnik holatini yuqori darajada ushlab turish texnik xizmat bo'limlarining vazifasidir. Shuning uchun TXK va JT sifatini boshqarishda ushbu xizmat faoliyatini baholovchi qator ko'rsatkichlar ishlatilib kelinmoqda.

Bular:

- TXK-1, TXK-2 yoki servis rejasini bajarish foizi;
- texnik xizmat yoki servis davriyligining rejadan farqi;

-bir servisda o'rtacha mehnat hajmining bajarilish foizi;

-avtomobilning servis va ta'mir postida bo'lgan o'rtacha vaqt;

Avtomobilarga texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash sifatini baholashda joriy ta'mirga buyurtmalar miqdori keng qo'llanilib kelinmoqda.

Avtomobillar va agregatlarning asosiy ta'mirlashgacha yurgan yo'li ham sifat ko'rsatkichi hisoblanadi. Lekin bu sifat ko'rsatkichiga juda ko'p omillar: haydovchi mahorati, avtomobilning ishlash sharoiti, yonilg'i-moy mahsulotlari va ekspluatatsiya ashyolarining sifati, servis va ta'mir sifati, chilangarlar malakasi kabilar ta'sir etadi. Avtomobillar texnik servisi va joriy ta'miri sifatini oshirishning tashkiliy usullari birinchi navbatda, harakatdagi tarkibning buzilgan holda bekor turishini kamaytirishga qaratilgan choratadbirlardan iborat. Umumiy bekor turish vaqtin tekniq xizmatni kutish, servis va ta'mirni o'tkazish vaqtidan tashkil topadi.

Servis va ta'mirni o'tkazish vaqtini kamaytirish uchun yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy diagnostika jihozlarini qo'llash va tashkiliy boshqarish tizimini takomillashtirish talab etiladi. Avtomobillar texnik servisi va joriy ta'miri sifatini oshirishda bajarilgan ishni nazorat qiish ham katta omildir. Chunki servislar oralig'ida va ta'mirdan keyin avtomobilning buzilmasdan ishlashi bajarilgan ishlarning sifatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, joriy ta'mirning 30% ga yaqini servisning sifatsiz bajarilganligi sababli kelib chiqar ekan. Qabul qilingan nizom bo'yicha avtomobillar servisi va ta'mir sifatini yakuniy nazorat qilish avtokorxonaning texnik nazorat bo'limi tomonidan bajariladi. Lekin amalda ushbu bo'lim ko'pchilik korxonalarda to'liq tashkil etilmagan, nazorat esa, texnik nazorat joyining mexanigi yoki navbatchi mexanik tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Avtokorxonada ishlarni sifatli bajarish uchun yetarli sharoit yaratilishi va sharoitdan kelib chiqib, ishchilarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish tizimi ishlab chiqilishi zarur. Avtosevis korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini boshqarishning kompleks tizimlari ishlab chiqilgan.

Tizim bajariladigan xizmatlar sifatini belgilash va uni davriy ravishda nazorat qilish va unga ta'sir etuvchi omil va sharoitlarni hisobga olish yo'li bilan sifatning yuqori darajasini ta'minlovchi usullar, mablag'lar va chora-tadbirlar majmuidan tashkil topgan. Tizimning asosini texnik nazorat tashkil etadi va u kirish nazorati, amallar nazorati va qabul nazoratiga bo'linadi. Nosozliklarni aniqlash zaruriy ishlar ro'yxatini tuzish va uni oqilona bajarish texnologiyasini yaratish vazifasini bajaradi. Amallar nazorati texnologik jarayondagi amalni bajarish sifatini va avtomobilni keying ishga o'tkazish mumkinligini aniqlaydi. Bu bilan keyinchalik paydo bo'lishi mumkin bo'lgan nosozliklarning oldi olinadi.

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, yuqoridagilarni inobatga olgan holda, avtomobilarning ekspluatatsiyasi jarayonida ularning yuqori texnik tayyorgarligi bevosita ishlab chiqarish texnika bazasi tomonidan ta'minlanadi. Bunga esa avtomobilarga o'z vaqtida belgilangan Nizom asosida sifatli texnik servis va ta'mirlash texnologik jarayonlarini yo'lga qo'yish orqali erishish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoev.“O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi PQ № 4143-sonli qarori. 2019 yil 1 fevral / lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 336-sonli qarori. 2019 yil 19 aprel/ lex.uz
3. Siddiqnazarov Q.M. Avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi // «VORIS – NASHRIYOT» TOSHKENT, 2008- 560 b.
4. “O'zbekiston Respublikasi avtomobil transporti harakat tarkibiga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash to'g'risida”gi Nizom. T:”O'zavtotrans” DAK, 1999 y -195 bet.
5. Musajonov M.Z. ATK loyihalash. O'z R FA. Fan nashriyoti, 2007-yil, 232 bet.
6. Sh.E.Islomov, t.f.d dots. N.M.Mo'minjonov tahriri ostida. ATK loyihalash.T:”Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021 yil - 284 bet.

## МАКТАВГАЧА ТА`LIM TIZIMIDA STEAM TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Nosirova R. X.

Qo`qon universiteti “Ta`lim” kafedrasи v.b. dotsenti,  
pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** maqolada mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv tarbiyaviy faoliyatida STEAM texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari orqali bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning metodik tizimi va uni amaliyotga tadbiq etish masalalari xususida fikr bayon etilgan.

**Tayanch tushunchalar:** maktabgacha ta'lim tizimi, STEAM ta`lim, integratsiya, aqliy-intellektual, kognitiv, ko`nikma, ma'naviy salohiyat, maktabga tayyorlash, takomillashtirish.

**Аннотация:** В статье рассматриваются реформы, проводимые в целях дальнейшего совершенствования и развития системы дошкольного образования в нашей стране, методической системы подготовки детей к школьному обучению через возможности использования технологии STEAM в образовательной деятельности дошкольных образовательных организаций, а также озвучены вопросы ее реализации.

**Ключевые понятия:** система дошкольного образования, STEAM-образование, интеграция, умственно-интеллектуальные, познавательные, навыки, духовный потенциал, подготовка к школе, совершенствование.

**Abstract:** The article discusses the reforms carried out in order to further improve and develop the preschool education system in our country, the methodological system of preparing children for school education through the possibility of using STEAM technology in the educational activities of preschool educational organizations, and also voices issues of its implementation.

**Key concepts:** preschool education system, STEAM education, integration, mental-intellectual, cognitive, skills, spiritual potential, preparation for school, improvement.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiyaviy jarayonda innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib ta'limning samaradorligini oshirishga bo`lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan faoliyatlar bolani mustaqil izlanishga, ijodiy fikrlashga, intellektual salohiyatini shakllantirishga qaratilgan.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida innovatsion jarayonni tashkil etishga qaratilgan amaliy ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi 802-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" gi qarorida "Davlat standartining maqsadi - maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalaming soglom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablami joriy etish va nazoratini tashkil etishdan iborat" [1]. ekanligi alohida ta'kidlangan.

Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, tarbiyachilarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, ularning pedagogik mahorati va kasbiy kompetentligini bosqichma-bosqich oshirib borishimiz zarur. Shu sababdan, maktabgacha ta'lim tizimida STEAM texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'limni interfaol o'qitish usullari asosida shakllantirish ilmiy-amaliy asoslarini o'z ichiga oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishning o'ziga xos zamonaviy «STEAM - ta'lim» (Science - tabiiy fanlar, Technology - texnologiyalar, Engineering - texnik ijodkorlik, Art - san'at va ijod, Mathematics - matematika) yondashuvi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda bilim, texnologiya va malakalar eng muhim raqobat ustunligidir. Bu haqiqiy yutuq, hayot sifatini yaxshilashning kalitidir. Eng qisqa vaqt ichida ilg'or qonunchilik bazasini ishlab chiqishimiz, robototexnika, sun'iy intellekt, uchuvchisiz transport vositalari, elektron tijorat va yirik ma'lumotlarni qayta ishslash texnologiyalarini rivojlantirish va keng qo'llash yo`lidagi barcha to'siqlarni olib tashlashimiz kerak- bu rivojlangan davlatlarning strategiyalari.

Bu so'zlar STEAM ta'limini dolzarblashtiradi va uning afzalliklarini ta'kidlaydi, xususan:

1. Tabiiy fanlar, muhandislik ijodkorligi, matematika, raqamli texnologiyalar va boshqalarning turli sohalarining o'zaro kirib borishiga asoslangan zamonaviy muammolarni hal qilishda kompleks yondashuv. Ushbu integratsiya kognitiv va badiiy izlanishga asoslangan va o'ziga xos real mahsulotga ega bo'lgan loyiha usuliga asoslangan faoliyat natijasidir.

2. Bolalarni maktabgacha yoshdan boshlab ta'limning barcha bosqichlarida zamonaviy ta'lim muhitiga moslashtirish. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimining barcha darajalari uzluksizligi sharoitida ta'lim muhitining barcha tarkibiy qismlari - mazmuni,

texnologiyasi, fan-fazoviy mazmuni, moddiy-texnik ta'minoti - yoshga bog'liq imkoniyatlar mantig'ida ketma-ket va tarkibning murakkabligi.

3. Kognitiv tadqiqot faoliyati jarayonida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish va ilmiy-texnik ijodkorlikka jalb qilish nafaqat ushbu faoliyat turlariga xos kompetentsiyalarni, balki zamonaviy dunyoda qulay o'zini o'zi idrok etishni rivojlantirishga qaratilgan. kelajakdagi hayotda yuqori sifat.

4. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uch bosqichli jarayon sifatida qaraladi; -zarur ma'lumotlarni olish qobiliyati; - uni tahlil qilish qobiliyati; - olingan ma'lumotlarni amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalari.

5. Ta'limni individuallashtirish bilan sintezda jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi

STEAM yondashuvi o'quv samaradorligiga qanday ta'sir qiladi? Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. O'rghanish paytida biz nafaqat aqlimiz bilan, balki qoimiz bilan ham bir vaqtida ishlashimiz kerak. Faqat guruh devorlarida o'rghanish tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzulami muvaffaqiyatli o'rghanish uchun ham miyani, ham qoilarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zları "uqib oladilar". STEAM ta'limi nafaqat o'qitish usuli, balki fikrlash tarzidir. STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega boiadilar va darhol undan foydalanishni o'rghanadilar. Shuning uchun, ular o'sib-ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof-muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalami faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu yerda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish yetarli emas. Bundan ko'rindaniki, STEAM ta'lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar amalda bajargan faoliyatlarini ijodiy fikrlash orqali tushuntirib berishga harakat qiladilar. STEAM yondashuvi bizning ta'lim va ta'limga bo'lgan qarashimizni o'zgartirmoqda. Amaliy qobiliyatga e'tibor berib, bolalar o'zlarining irodasini, jodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rghanadi. Ushbu ko'nikmalar va bilimlar asosiy ta'lim-tarbiya vazifasini tashkil etadi.

STEAM texnologiyasida bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo'llashadi. Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aysak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu maktabgacha yoshdagi bolalarga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi.

STEAM ta'lim tizimi orqali bolada kreativlik, qunt, qiziquvchalik va hozirgi kunda eng muhim bo'lgan xususiyat - muammoni hal qilish qobiliyati shakllanadi.

STEAM ta'lim texnologiyasi maktabgacha ta'limning asosiy ta'lim shaklli mashg'ulotlar jarayonidagi integratsiyalashuvni yuzaga olib chiqadi. STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'lim-tarbiya sohasiga olib kirish nafaqat maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayogan mutaxxasislar va shu sohada tehsil olayotgan oliy o'quv yurti talabalariga tanlov fan sifatida o'qitish ishlari yo'lga qo'yilgan. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarning STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanishlari ta'limga bo'lgan qarashlarini o'zgartirmoqda. Amaliy qobiliyatga e'tibor berib, talabalar o'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlanadiradi va atrofdagilar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi.

Xulosa qilib aytganda, shuni ta'kidlashni istardikki, an'anaviy o'qitish uslublari bilan taqqoslaganda, maktabgacha ta`limdagi STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta'lim yondashuvi bolalarga nazariya va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga va uzlusiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarini oson zabit etishga yordam beradi

#### ADABIYOTLAR:

1. Sh.Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlanirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". Toshkent. 2019 y
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi 802-sон "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori.
3. N.X.Avliyoqulov., N.Musayeva. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2008.
4. Sobirovna, T. Z. (2023). IJTIMOIY PEDAGOGNING OILA BILAN ISH YURITISHI SHAKLLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 34(2), 33-34.
5. Qodirova F va boshqalar. Maktabgacha pedagogika. -T.: Tafakkur. 2019
6. Maxmutazimova Y. R. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari o'quv qo'llanma/- Toshkent: "TAMADDUN", 2022

## МАКТАБГАЧА ТА`ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARНИ SHAXSIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Maktabgacha ta`lim fakulteti talabasi  
Ergasheva Nodira Ulug`bek qizi  
[ergashevan186@gmail.com](mailto:ergashevan186@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalarda shaxsiy qobiliyatlarning dinamik rivojlanishi, o`z qobiliyatlarini turli sohalarda namoyon qilishi haqida ma`lumot berilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о динамичном развитии личностных способностей детей дошкольного возраста, проявлении их способностей в различных областях.

**Abstract:** This article provides information about the dynamic development of personal abilities in children of preschool age, the manifestation of their abilities in various fields.

**Kalit so`zlar:** qobiliyat, ijodkorlik, hissiyot, faoliyat, o`yin, reproduktiv, ko`nikma, shaxs, malaka, salohiyat.

**Ключевые слова:** способность, творчество, эмоция, деятельность, игра, репродуктивный, навык, личность, компетентность, потенциал.

**Key words:** ability, creativity, emotion, activity, game, reproductive, skill, personality, competence, potential.

Yosh avlodga ta`lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko`nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Shunga binoan mamlakatimiz maktabgacha ta`lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlarning ustuvor yo`nalishlaridan biri ham barkamol avlodni shakllantirishdan iboratdir. Ta`lim-tarbiya jarayoni bolalarning qobiliyat va layoqatlarini har tomonlama rivojlanishiga, ular shaxsini shakllantirishga qaratilgan.

Ko`pincha ular insonning qobiliyatlari haqida gapirishadi, bu uning ma'lum bir faoliyat turiga moyilligini anglatadi. Shu bilan birga, kamdan-kam odamlar ushbu kontseptsiyani ilmiy deb o'ylashadi va bu sifatning rivojlanish darajasini, shuningdek, uni yaxshilash imkoniyatini nazarda tutadi. Qobiliyatlarni rivojlanishning qanday darajalari mavjudligini, ularni takomillashtirish ustida ishlashni va ulardan maksimal darajada foydalanishni o'rganishni hamma ham bilmaydi. Ayni paytda, biron bir qobiliyatga ega bo'lishning o'zi etarli emas, agar siz

haqiqatan ham ma'lum bir sohada muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lsangiz, bu sifat doimiy ravishda rivojlanib borishi kerak.

Uzoq yillar olib borilgan tadqiqotlar ijodiy qobiliyatlar murakkab va ko'p qirrali psixologik bilimlardan iboratligini ko'rsatib berdi. I.V. Lvov ijodkorlik hissiyotlar to'lqini emas, uni bilim va ko'nikmalardan ajralmas deb hisoblaydi, histuyg'ular ijodkorlikka hamroh bo'ladi, inson faoliyatini ilhomlantiradi, uning oqimining ohangini oshiradi, inson ijodkorining mehnati unga kuch beradi. Ammo faqat qat'iy, tasdiqlangan bilim va ko'nikmalar ijodiy harakatni uyg'otadi. Shunday qilib, eng umumiy shaklda ijodiy qobiliyatlarning ta'rifi quyidagicha.

**Ijodkorlik** - bu har qanday faoliyatning muvaffaqiyati bilan bog'liq bo'lgan, lekin inson tomonidan allaqachon shakllantirilgan bilim, ko'nikma va malakalar bila cheklanmaydigan shaxsning individual psixologik xususiyatlari. Ana shu tadqiqot ma'lumotlaridan foydalanib, ijodiy qobiliyatlar mакtabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning xayotlarida muhim o'rин egallaydigan qator komponentlarni ajratib ko'rsatish mumkin: Psixologik turkum adabiyotlarda ilmiy ta'rifga ko'ra, qobiliyat - bu muayyan shaxsning individual va psixologik xususiyati bo'lib, uning muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini belgilaydi. Muayyan qobiliyatlarning paydo bo'lishi uchun tug'ma shartlar - bu birinchisidan farqli o'laroq, tug'ilishdan boshlab odamda paydo bo'ladigan moyilliklar.

Shuni yodda tutish kerakki, qobiliyatlar dinamik tushuncha bo'lib, ularning doimiy shakllanishi, rivojlanishi va faoliyatning turli sohalarida namoyon bo'lishini anglatadi. Qobiliyatlarning rivojlanish darajalari doimiy ravishda o'z-o'zini takomillashtirish uchun hisobga olinishi kerak bo'lgan

ko'plab omillarga bog'liq.

#### **Shaxsiy qobiliyatlarning rivojlanish darjasasi ikki turga bo'linadi:**

- Reproduktiv, inson turli ko'nikmalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish, bilimlarni egallah va qo'llash, shuningdek, allaqachon taklif qilingan model yoki g'oyaga muvofiq faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini namoyon qilganda;

- Ijodiy, inson yangi, o'ziga xos narsalarni yaratish qobiliyatiga ega bo'lganda. Bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli egallah jarayonida inson rivojlanishning bir darajasidan boshqasiga o'tadi.

Bundan tashqari, qobiliyatlar ham Teplov nazariyasiga ko'ra umumiy va maxsusga bo'linadi. Umumiylar har qanday faoliyat sohasida namoyon bo'ladiganlar, maxsuslari esa ma'lum bir sohada namoyon bo'ladi.

Demak, bugun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan har bir bola eng avvalo tarbiya jarayonida o'zining ijodiy qobiliyatlarini rivolantirishga e'tibor berishligi, ko'proq rasm musiqa kabi ijodiy qibiliyatlarini shaklanishiga e'tibor qaratish lozim. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchi bolaning qobiliyat xususiytlarining shakllanishida o'yin faoliyati muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kun dolzarb muammolardan biri bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Afsuski, ko'pchilik ota-onalar bolaning qobiliyat xusuiyatlarining rivojlantirishga etaricha e'tibor bermaydi, bu esa kelajakda bolalarning imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi. Ijodkorlik har bir bola hayotida juda muhim rol o'yinaydi.

Shunday qilib, agar bola tasavvurning etishmasligidan aziyat chekmasa ham, ota-onalar o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor berishlari kerak. Bog'cha yoshidagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarining asosiy rivojlanishi o'yin orqali amalga oshiriladi. O'yinda bolalarning eng qiziqarli faoliyat doirasini aniqlashga qodir bo'lgan qobiliyatlarini namoyon etishganlarida yaqqol korinadi.

Shuning uchun o'yin - bu ijodiy qobiliyatlarni aniqlashning asosiy usullaridan biridir. Bu borada psixologlar sizning tasavvurlaringiz qanday darajada rivojlanayotganini va bolaning fikrlash tarzini belgilashga imkon beruvchi o'yin shaklida maxsus testlarni ishlab chiqishdi. Ba'zi bolalar tasavvur kuchi bilan harakat qilishadi, boshqalari esa xotiraning tasvirini suratga olishga moyil. Ba'zan bolalar bunday o'yinlarda qatnashishni rad etishadi, bu esa bolaga alohida yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish ham katta rol o'yinaydi. Bugungi kunda ota-onalarham bolaga nafaqat rivojlanish imkoniyatini berishlari, balki faol ishtirok etishlari kerak. Bolaning musiqaga bo'lgan qiziqishi etarli emasligi sababli, ota-onalar uni musiqa maktabiga yoki rasm to'garagiga berishga shoshilishadi. Bolalarda har qanday ijodiy qobiliyatni shakllantirish uchun nafaqat chaqaloqning moyilligini aniqlash, balki to'g'ri yo'nalishda rivojlanish istagini kuchaytiradigan jiddiy ishlarni amalga oshirish kerak.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida tarbiyalanuvchi bolalar uchun Bolalar ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirish dasturini yaratishning eng yaxshi usuli. Dasturda rivojlanishning barcha usullari - vizual, og'zaki va amaliy bo'lishi kerak. Vizual usullar har qanday suratlarni ko'rish, chizilgan yoki haqiqiy ko'rishni o'z ichiga oladi. Masalan, bulutlarni o'rganayotganda, ular nimaga o'xshashligini aniqlang. Og'zaki usullarga aloqa, hikoyalar, suhbatlarning turli shakllari kiradi. Misol uchun, ertaklarning birgalikdagi tarkibi, o'z navbatida, bir uchastka bo'yicha hukmni o'ylaydi. Amaliy usullar o'yinlarni, turli modellarni yaratish va ulardan foydalanishni va rivojlanish mashqlarini bajarishni o'z ichiga oladi. Barcha usullarni birlashtirib, siz o'zingizning intellektual qobiliyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan bolaning keng qamrovli rivojlanishiga erishishingiz mumkin. Bolalar ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun asos - bu birinchi navbatda erkinlikdir. Ota-onalar bolani majburlash va majburlamasliklari kerak. Bu borada muvaffaqiyatga erishish uchun sabr-toqat va muayyan taktika talab etiladi - ota-ona bolaning fikrini tinglashi, har qanday ijodiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirishi va rag'batlantirishi

kerak Ushbu mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, bolalarda ijodiy qobiliyatlarini shakllanishi ularda majburiyat va javobgarlik hissining tarkib topishi bilan bog‘liqdir. Ularda ana shunday sifat va kechinmalar to‘la shakllangan bo‘lsa, bilimlarni egallash yoki barkamollik uchun hech narsa to‘sinq bo‘la olmaydi. Yuqorida qayd etilganlardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, bu maqsad va vazifalarning hal etilishi bolalarni zamon bilan hamnafas bo‘lishga, o‘zining ijodiy qibiliyatlarini shakllantiribgina qolmasdan, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va keljakni aniq ko‘ra olishga o‘rgatadi.

Chunki ta’lim-tarbiya jarayoni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilaridan ijodiy qibiliyatlarini shakllantirishga yo‘naltirilishi va ta’lim jarayonining natijasi ideal bilan qiyoslanishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. B.X.Xodjayev. umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. T.Sano-standart/2017 y.
2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi 2022 yil
3. D.Q.Asqarova “Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish” Namangan 2018 yil
4. Teshabayeva, Z. S. (2021). MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTIDA SAHNALASHTIRISH OYIN FAOLIYATI SHAKLLARI, TURLARI, ULARNI TASHKIL ETISH USULLARI. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 268-271.
5. Sobirovna, T. Z. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJTIMOIY-AXLOQIY TARBIYASIDA OILANING ROLI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 34(2), 30-32
6. Ibraimov, X., & Gaynazarova, G. (2023). THE CONTENT OF PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY IN THE PROCESS OF INDIVIDUAL EDUCATION. Science and innovation, 2(B12), 330-333.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EMOTSIONAL RIVOJLANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Qo'qon unuversiteti, Ta'lim kafedrasi professori pedagogika fanlari doktori (DSc),  
Xurvalieva Tarmiza Latipovna*

### Annotation.

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga emotsional zo'riqishning psixologik jihatlari nazariy va amaliy tomondan tahlil etilgan.

Emotsional zo'riqish, stress holatini paydo bo'lishi va uning belgilari keltirilgan. Bolalardagi emotsional rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan. Xulq-atvor buzilishi va uning sabablari asoslangan. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda artpedagogika va art-texnologiyalarning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Artpedagogikaning ilmiy-metodik jihatlari yoritilgan. Bolalardagi ruhiy zo'riqishni bartaraf etishda artterapiyaning afzallik tomonlari borasidagi fikrlar bayon etilgan. Artterapiya turlari va ularni amaliyatga tatbiq etishga oid tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** emotsional, mental, motiv, kommunikativ, faoliyat egoizm, art pedagogika, art terapiya, psixologik terapiya, ko'nikma, qadriyat.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishida nafaqat bilim va ko'nikmalarni aniq belgilangan ko'rsatkichlari balki, ularning emotsional rivojlanishi ham yetarli darajada bo'lishi talab etiladi. Emotsiyalar bolalar faoliyatini tashkil etishning muhim vositasi hisobalanadi. Emotsiya bolani faoliyatga undaydi, tajribalarni egallash va mustaqil faoligiga tafsir qiladi, eng muhimi har qanday vaziyatga o'z munosabatini bildiradi. Bolalarning emotsional rivojlanishida ularning shaxsiy sifatlari ham ta'sir ko'rsatadi. Ilk yosh davridanoq bolalar oiladagi emotsional-axloqiy tajribalarni o'zlashtira boshlaydi. Yahni ishonch va hurmat, oilaviy qadriyatlar, atrofdagi odamlar va ularning faoliyatiga munosabat shakllana boshlaydi. SHuning uchun oila va maktabgacha tahlim tashkilotida pedagog-tarbiyachilar hamda ota-onalar o'rtaida kelishgan holda bolalar uchun talablar bir xil qo'yiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga kattalarning emotsional holati tafsir ko'rsatadi va uzok muddat saqlanib qoladi. Oila ahzolari va pedagoglarning odob-axloqi bolalarning faolligi va faoliyatini belgilaydi. Bola kattalar bilan muloqot jarayonida rivojlanadi. Mazkur jarayon asosida bola va kattalarning emotsional birligi yaratiladi, asta -sekin hamkorlikda faoliyat yuritadi va ularning rivojlanishida muhim shart hisoblanadi. Kattalar va bolalarning birgalikdagi harakatlari natijasida nafaqat bilim, ko'nikma va malakani o'zlashtiradi, balki bolalar mustaqil ravishda bajarish va ijtimoiy munosabatga kirisha boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning

ijtimoiylashuvi jarayoni murakkabroq kechadi. Chunki bola o'z atrofidagi kishilarning tahsiriga ko'ra ijtimoiy hayotga moslasha boshlaydi. Bolada ijtimoiy hayot va maktab tahlimiga moslashishida turli xil vaziyatlardagi zo'riqishlar, huddi kattalarday nizoli vaziyatdan chiqishga intilishlari psixologik himoyalanishga moyillikni yuzaga keltiradi. Psixologik himoyalanish-shaxsnинг muqim barqaror rivojlanish tizimi bo'lib, u qo'rquv hissi, xavotir va nizolarni ongli ravishda bartaraf qilishga oyyo'naltirilganlidir. 'sixologik himoyalanishning asosiy vazifasi-ijobiy "Men" obrazini shakllantirish, turli xil tashqi holatlardagi vaziyatlarni bola ongiga tahsir qilinishidan saqlanish, havotirlanishni susayishi va o'z-o'zini baholashni yuqori bo'lishi bilan chegaralanadi. Emotsiya bolani faoliyatga undaydi, tajribalarni egallash va mustaqil faoligiga tahsir qiladi, eng muhimi har qanday vaziyatga o'z munosabatini bildiradi.

Rus fiziologi I. Pavlov har qanday jismoniy faoliyat barqaror ijobiy kayfiyatni 'aydo qiladi, quvonch baxsh etadi [11]. Harakatni kamligi zararli ekanligini qator olimlar asoslagan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda stress holatini bartaraf etishning bir qator turlari mavjud, masalan: noqulay vaziyatlarda kulgu va hazil-mutoyiba qilish, ertak qahramonlarini quvnoq va ijobiy sifatlarini tanlash suhbat uyushtirish. Ushbu tavsiyalar bolalardagi hayajonlanish, havotir va ortiqcha yuklamalarni bartaraf qiladi. Bolalarning yosh xususiyatlariga ko'ra, ularda hayotiy tajribalar yetarli emasligi sababli stressni bartaraf etish qiyinchilik tug'diradi.

N. Bexterev fikricha, "bolalardagi ruhiy zo'riqish, salbiy emotsiyani bartaraf etishning eng yaxshi vositalardan biri jismoniy harakat sanaladi"[1].


Buguni kunda art-texnologiya 'edagogika va 'sixologiya sohasidagi dolzarb masala sanaladi. Bolalarning 'sixik salomatligi 'edagog va 'sixologlar, ota-onalarda jiddiy xavotirni uyg'otmoqda. Bolalarda va katta yoshdagilarda nevroz holatini ortib borishi turmush tarziga, ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlarga salbiy ta'sir ko'rsatya'di, jahldorlik, havotirlanish kabi hissiyotlar yuz berya'di. Bularning barchasi samarali 'sixologik-'edagogik usul va vositalarni izlash, negativ hodisalarni oldini olishni taqozo etadi. Bolalarda kommunikativ madaniyatni shakllantirish, ijodkorlik va ular o'rtasidagi muloqotchanlikni namoyon etishga undaydi.

4 yoshda bolalar tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishni istaydi va qiziqadi. O'rtoqlari bilan munosabatda bo'lish ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantiradi, tashabbus ko'rsatadi, o'z imkoniyatlarini ko'ra oladi, o'z-o'zini anglashga o'rganadi. Psixologik va jismoniy salomatlik bolalarning emotsional va bilish faoliyatini belgilaydi hamda xarakteri, shaxsiy fazilatlari rivojlanishiga tahsir qiladi, eng muhimi asab tizimi va psixik holati ham rol o'ynaydi.

Maktabgacha 3-5 yosh bolalar o'zining ichki ruhiy holatini anglaydi, tengdoshlarini emotsional holatiga qarab munosabat o'rnatadi. Bolalar tengdoshlari va

do'stlarini hissiy holatini juda yaxshi tushunadi, ularning hafaligi yoki qo'rquvi, 'arishonxotirligini sezadi. Bolalardagi emotsiyalarning ijtimoiy o'zaro munosabatga kirishishlariga yordam beradi. Mazkur hissiyotlarni namoyon bo'lishi bolaning kayfiyati bilan bevosita bog'liq.

Har qanday shaxsdagi emotsiyalarning ikkita katta guruhga ajratish mumkin.



Bolalarda yuz beradigan salbiy emotsiya natijasida atrofidagilarga negativ munosabat 'aydo bo'ladi, ayniqsa tengdoshlari va tarbiyachi-'edagoglarga nisbatan g'ayri noodatiy harakatlarni bajaradi. Salbiy hissiyotlar turlicha namoyon bo'ladi, hafa bo'lismi, jahl, qo'rquv, umidsizlikka tushish. Maktabgacha yoshdagi bolaning emotsiyasi uning atrofidagi kattalar va o'zining ruhiy holati orqali vujudga keladi.

Barqaror ijobiy kayfiyat bolalarni 'sixik emotsiyal holatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotiga hamda ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashishiga yordam beradi. Bolalarda kayfiyatni tez o'zgarishi, doimiy tushkin holatning sababi shundaki, ular nosog'lom muhit va noto'g'ri munosabat ta'sirida noqulay holatga tushadi. Doimiy ruhiy zo'riqish esa, stressni yuzaga keltiradi. Yuqorida sanab o'tilgan emotsiyal zo'riqish belgilari bolalarni stressda ekanligini ko'rsatadi. Biroq avval bunday holatlar kuzatilmagan bo'lsada.

Agarda bolalarda stress holati bo'lsa, uning bir qancha belgilari namoyon bo'ladi, masalan:

- uyqusizlik, bola juda qiyinchilik bilan uxdidi va uyqusi notinch kechadi.
- charchoq, kun davomidagi ixtiyorsiz faoliyat unga ortiqcha yuklama bo'lishi mumkin.
- bola sababsiz xafa bo'lib yuradi.
- bezovtalanish, bola bunday holatda kattalar uni qo'llab-quvvatlashini istaydi, ularga intiladi.
- g'ayritabiylidagi va o'jarlikni namoyon bo'lishi.
- bola tengdoshlari bilan o'yinda ishtirok etishni hoxlamaydi, o'yin qoidasiga rioxha etishda qiyinchilik yuz beradi.
- avval sezilmagan holatlar kuzatiladi, bahzida bola nimanidir chaynaydi yoki og'ziga soladi.
- ayrim vaqtarda ishtahasi yo'qoladi.

- harakatlar buzilishi, qo'llarini qaltirashi, boshini qimirlatish, yelkalarini uchishi, kunduzgi hattoki kechki 'aytdagi siydik tutolmaslik.

- xotira 'asayishi, xayol va diqqatini tarqoqligi hamda faolligini oshirishga qaratilgan qiziqishlarini yo'qolishi kuzatiladi.

'sixolog va tarbiyachilar bolalardagi ushbu holatlar kuzatilmasada, ularni qayd qilib borishlari kerak. Bolalarni individual tarzda kuzatish va yordam berish choralarini to'ish lozim.

Keltirilgan belgilar, bolalar xulq-avtori va o'z-o'zini his qilishda 'sixosomatik buzilishlarni 'aydo bo'layotganligini ko'rsatadi. Biroq mazkur holat nafaqat bolalarning sog'ligiga balki, shaxsiy sifatlarni shakllanishiga hamda fiziologik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatib, nevrozni keltirib chiqarishi mumkin. SHuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional zo'riqishni 'rofilaktika qilish eng dolzARB muammolardan biri sanaladi. Bolalar ota-onalari ularning ularni rag'batlantirishi va baholashini istaydi. O'z imkoniyatlaridan ham yuqori bo'lgan vazifalarni bajarishga intiladi, chunki ular jismoniy va psixik imkoniyatini qay darajada ekanligini bilmaydi, hissiy -irodaviy kuchi kattalar qo'ygan talablarni bajara olmasligini anglamaydi. Masalan, qo'shiq kuylash qobiliyati bor bolalarga turli tanlovlari, tadbir va kontsertlarga ularning xoxish-istagini inobatga olmasdan jalb etiladi. Bola esa kattalar talabini bajarish lozim deb o'ylab, uni amalga oshirishga harakat qiladi. Biroq ortiqcha yuklama bolaning imkoniyatiga mos kelmaydi, natijada uning psixikasiga salbiy tafsir ko'rsatadi.

SHuning uchun sanab o'tilgan holatlar bolalarning atrofidagi ijtimoiy muhit va kattalarga bog'liq ekanligini tarbiyachi va ota-onalar anglashi muhim. Tarbiyachi-edagoglar va ota-onalar har bir bolaning emotsional holatini diqqat bilan kuzatishi, ularning odob-axloqi, hatti-harakatini nazorat qilishi, bola ruhiyatidagi buzilishlarning sabablarini tushunishi lozim. Tarbiyachi va 'sixolog hamkorlikda bola hayotida yuz berayotgan muammoli vaziyatlarning eng samarali shakllarini izlashi va bartaraf etishi zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Byuler, K. A. Altshuler, V. Moreyno . Ocherk duxovnogo razvitiya rebenka.per. M.: 2020.-222 s.
2. Davletshin. M.G., SH.Do'stmuhamedova va boshq. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.O'quv metodik qo'llanma.-T.: 2004-129 b.
3. Валиев С. Сказки для всей семьи. Арт-педагогика на практике. М.:2014-140с.
4. Vigotskiy L.S. Voprosi detskoj psixologii-SPb.: Soyuz, 1997.-224 s.
5. Колягина В.Г. Арт-терапия и арт-педагогика для дошкольников. Учебно-методическое пособие М.: Издательство: Прометей. 2016-150 с.

6. Колягина В.Г. Музыко-терапия в специальном образовании. Учебно-методическое пособие. М.:2019-140с.
7. Колягина В.Г. Психология страхов дошкольников. М.:2016-50 с.
8. Медведева Е.А и др. Артпедагогика и арттерапия в специальном и инклюзивном образовании: учебник для вузов. 2-е изд., испр. и доп. Москва.: Издательство Юрайт, 2023. 274 с.
9. Teshabayeva, Z. S. (2021). PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE PRESCHOOL TEACHERS IN THE FIELD OF CONTEXTUAL LEARNING TECHNOLOGIES. Academic research in educational sciences, 2(2), 1360-1367.
10. Хурвалиева Т.Л. Maktabgacha ta'limda art-texnologiyalardan foydalanish. //Mug'allim həm ყzlaksız bilimlendirio‘ ilimiyy-metodikalıq jurnalı.Nukus.2023, №1/1. P. 185-189.
11. Хурвалиева Т.Л. Maktabgacha yoshdagı bolalarning emotsional rivojlanish xususiyatlari. //Mug'allim həm ყzlaksız bilimlendirio‘ ilimiyy-metodikalıq jurnalı.Nukus.2023, №5/2. P. 311-315.
12. Павлов И. Мозг и психика.М.-1996-247 с.

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА САХНАЛАСТИРИШ ФАОЛИЯТИНИНГ ТАМОЙИЛЛАРИ

CHDPU "Maktabgacha ta'lim" fakulteti  
dotsenti, p,f,f,d(PhD) Teshabayeva Zamira Sobirovna

CHDPU "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi  
talabasi Qurbonova Nargiza Faxriddin qizi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatining bolalarni ma'naviy tarbiyalash, emotsional olamini boyitish, ijodga e'tibor va qiziqish uyg'otishdagi o'rni haqida ma'lumotlar bayon etiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan sahnalashtirish mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etishda tarbiyachi amal qilishi lozim bo'lgan tamoyillar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ijod, sahnalashtirish, bola, tamoyil, improvizatsionlik, integrativlik, erkinlik, faollik, mustaqillik, birlik, variativlik.

Yurtimizda ta'lim tizimini takomillashtirish hujjatlarida ijodkorlik sifatlari ta'lim mazmunini yangilashning muhim bir konseptual holati deya e'tirof etilmoqda. Ta'lim tizimida ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish uchun real hayotda va kasbiy amaliyotda asosiy kompetentligini qo'llash qobiliyatiga ega bo'ladigan maktabgacha ta'lim yo'nalishi pedagog-tarbiyachilarini tayyorlash zarur vazifalardan biridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish jarayonining nazariy va amaliy faoliyati sohasiga tarbiyanuvchilarni ma'naviy tarbiyalash, emotsional olamini boyitish, ijodga e'tibor va qiziqish uyg'otish, ijodiga rahbarlik qilish uchun amaliy bilim va ko'nikmalar berish kabilalar kiradi

**Ta`lim tamoyillari** bu umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan ta`lim va tarbiya jarayonlarining yo`nalishi, bolalar tomonidan bilimlarning o`zlashtirilishi, bilim va malakalar hosil qilishning asosiy qonun va qoidalarning yigindisidir.

• Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish va o'yin faoliyatini tashkil qilish jarayonida tarbiyachi tomonidan qo'llanilishi kerak bo'lgan asosiy tamoyillarni ko'rib chiqamiz:

• Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan sahnalashtirish mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etishda tarbiyachi quyidagi tamoyillarga amal qilishi lozim:

- - **mashg'ulotning mazmunliliği tamoyili;**
- - **improvizatsionlik tamoyili;**
- - **integrativlik tamoyili;**
- - **erkinlik tamoyili;**
- - **faollik tamoyili;**

- - mustaqillik tamoyili; -
- - birlik tamoyili;
- - variativlik tamoyili;
- - bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili.

•- **Mashg'ulotning mazmunliligi tamoyili.** Bunga ko'ra sahnalashtirish faoliyatini tashkil etishda mavzular va metodlarning turfa xilligiga e'tibor qaratish lozim;

•- **improvizatsionlik tamoyili.** Bunda sahnalashtirish o'yinlari shunday bir ijodiy faoliyat sifatida ko'rildi, u kattalar va bolalarning o'zaro erkin muhitdagi alohida hamkorligini talab etadi, bolaning tashabbuskorligini rag'batlantiradi, biron-bir namunaga taqlid qilmaslikni talab etadi, o'zining mustaqil fikriga ega bo'lishga undaydi. Mashg'ulotda barcha o'yin va mashqlar shunday tanlanishi kerakki, ularda harakatlar, nutq, mimika va pantomimik harakatlar turli ko'rinishlarda mujassam bo'lsin;

•- **integrativlik tamoyili.** Sahnalashtirilgan faoliyat o'yinlari butun bir pedagogik jarayonda uygunlashtiriladi, yani ijodiy faoliyat mashgulotlari (musiqa, rasm chizish, nutq o'stirish, o'yinlar), kattalar va bolalarning hamkorligidagi ijodiy o'yinlar;

•- **erkinlik tamoyili.** Bolalarga qiziqtirgan faoliyat bilan bir-biriga xalaqit bermagan holda shug'ullanish imkonini beradi;

•- **faollik tamoyili.** Bolaning bilish faoliyatini, faolligini rag'batlaydi. O'yinlarga tayyorgarlik k'orish va ularni o'tkazishning barcha bosqichlarida bolalarning maksimal darajada faol b'olish imkonini beradi;

•- **mustaqillik tamoyili.** Bunda bola muhitga o'z munosabatini mustaqil belgilaydi, idrok qilish, taqlid qilish va o'z istagini mustaqil tanlash imkonini beradi;

•- **birlik tamoyili.** Ushbu prinsipning asosi bola va tarbiyachining o'zaro tushunish va o'zaro yordam asosida birgalikdagi faoliyatni tashkil etishdir.

•- **variativlik tamoyili.** Bolalarda variativ fikrlash, ya'ni masalani hal qilishning turli variantlari mayjudligini tushunish, qiyin vaziyatdan chiqish yo'lini izlash, yechimi bo'lmanan vaziyatlar yo'qligini tushunishni rivojlantirishdan iborat.

•- **bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili.** Bolalardagi o'ziga xos qobiliyatlarini inobatga olgan holda vazifalar, topshiriqlar berish va doimiy qo'llab-quvvatlab turishdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ta'lim-tarbiya jarayonini izchillik bilan tizimli ravishda tashkil etishga tarbiyachi tomonidan o'z faoliyatini didaktik talablar doirasida tashkil etishgan ta'lim tamoyillari yordam beradi

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Teshabayeva Z. S. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish / Darslik T.: MALIK PRINT, 2022. 72–74 b.
2. Усова А. П. Обучение в детском саду / Под.ред. А. В. Запорожца. –3 еизд. Испр -М.: Просвещение, 1991. – 168 с
3. Ibraimov, X., G Gaynazarova, g. (2023). the content of preparing students for professional activity in the process of individual education. science and innovation, 2(b12), 330-333.
4. Teshabayeva, Z. S. (2021). MAK TABGACHA TALIM TASHKILOTIDA SAHNLASHTIRISH OYIN FAOLIYATI SHAKLLARI, TURLARI, ULARNI TASHKIL ETISH USULLARI. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 268-271.

## BO'LAJAK TARBIYACHI-PEDAGOGLAR KASBIY MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI VA TUZILMASI

CHDPU "Maktabgacha ta'lism" fakulteti  
dotsenti, p,f,f,d(PhD) **Teshabayeva Zamira Sobirovna**

CHDPU "Maktabgacha ta'lism" yo'nalishi  
talabasi **Abdullayeva Durdon Dilshod qizi**

### Annotatsiya

Mazkur maqolada pedagogik oliy ta'lism muassasalarida maktabgacha ta'lism tizimi uchun sifatli kadrlarni tayyorlash, ta'limga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib, sohaga oid malaka va kompetentsiyani rivojlantirishni ko'zda tutuvchi mazmunni tashkil etishning masalalari haqida bayon etiladi. Sharqning buyuk mutafakkirlari tomonidan inson hayoti va kamolotida kasb-hunarning ahamiyati borasida muhim mulohazalar bayon qilinadi.

Talabalar kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning muhim omillari haqida ma'lumotlar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik jarayon, tarbiyachi-pedagog, motiv, tamoyil, usul, omil, mustaqillik, maktabgacha ta'lism, rivojlantiruvchi, mehanizm, kasbiy, ko'nikma.

Oliy ta'lism tizimida o'quv jarayonini tashkil etishda talabalarning shaxsiy rivojlanish sifatlari va qiziqishlariga e'tibor qaratish muhim sanaladi. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirish orqali pedagogik jarayonga tayyorlash ularda kasbiy kompetentsiya, kasbiy ko'nikma, malakalarning oshirilishiga erishiladi.

Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda ta'lism jarayonida turli xil o'zaro ta'sir ko'rsatish usullari, talabalarning shaxsiy moyilligi va layoqatini oshirishda professor-o'qituvchilardan pedagogik mahorat va tamoyillarga rioya qilish taqozo etiladi. Tamoyillarning muhim jihatlari talaba shaxsining ichki imkoniyatlarini ko'rsata olish, faolligini namoyon etish, ta'lism jarayonida shaxsiy ijodiy qarashlarini bildirish kabilarda namoyon bo'ladi. Talabalarda mazkur ko'nikmalarning shakllanishi kasbiy faoliyatga ijodiy yondashish, ta'lism muhitiga yangiliklarni tatbiq etish malakalarining egallashlarini kafolatlaydi. Ularda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashuv hamda tarbiyalanuvchilar bilan samarali muloqotda bo'lish malakasi, o'zini-o'zi rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi.

Muammo yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarida talabalar bilan "Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish" o'quv modulini o'qitishda quyidagi tamoyillar asosida o'quv-tarbiyaviy faoliyat tashkil etildi:

•1. **Mustaqillik tamoyili.** Bunda talabalar o‘zini-o‘zi namoyon etishi hamda o‘quv faoliyatini mustaqil tashkil etishiga sharoit yaratiladi. O‘quv faoliyatini mazmunli amalga oshirish va topshiriqlarni belgilashda talabalarning takliflari, mustaqil fikrlashlari inobatga olinadi. Darsda erishilgan natija va yutuqlar o‘qituvchi hamda talabalar bilan hamkorlikda tahlil qilinadi.

•2. **Rivojlantiruvchi tamoyil.** Bunda o‘quv jarayonini muntazam o‘zgartirib turish taqozo etiladi. Mashg‘ulotni tashkiliy qismidan boshlab yakunigacha talabalarning xohish istaklari qondiriladi. Talabalar mavzuga oid muammolarni mustaqil ravishda hal etishlari va jarayonga o‘z munosabatlarini bildishlari uchun pedagogik sharoit yaratiladi. Tamoyilning mohiyati shundaki, o‘quv topshiriqlari qismlarga bo‘linib, barchaga taqsimlanadi, hamkorlikdagi faoliyatdan, ijtimoiy harakat hamda mustaqil ravishda ichki harakatga o‘tish amalga oshiriladi.

•3. **Hamkorlik tamoyili.** Bunda pedagogik jarayonda o‘qituvchi va talabalarda tashabbuskorlik, ijodkorlikni namoyon ettirish ko‘zda tutiladi. Shuningdek, bilim, ko‘nikma va malaka, kompetentsiyalarni takomillashtirish, o‘zaro birgalikdagi ta’limiy harakatlar amalga oshiriladi, hamkorlik strategiyasi takomillashtirib boriladi.

•4. **Rol ijro etish tamoyili.** Bunda o‘qituvchi va talabalar belgilangan topshiriq, vazifalarni bajaradilar. Topshiriqlar davlat, jamiyat, ta’limni boshqaruvchi tashkilotlarning ijtimoiy talablariga asosan beriladi. O‘qituvchi talabalar faoliyatining tashkilotchisi va rahbar rolini ijro etadi. Talabalar, o‘z navbatida, o‘qituvchi bergen topshiriqlarni ijodiy yondashgan holda bajaradilar.

•5. **Mas’uliyatni his etish tamoyili.** Bunda barcha talabalardan o‘quv jarayonida nafaqat ularga qo‘yilgan majburiyat, balki o‘z xatti-harakatlari, faoliyat natijalari, berilgan topshiriqlarning bajarilishi bo‘yicha hisobot talab qilinadi. Talabalar kasbiy mas’uliyat hissi hamda o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarining shakllanganligi haqida ma’lumot beradilar.

•6. **Jamoaviylik tamoyili.** Bunda o‘qituvchi va talabalar o‘zaro birgalikda faoliyat yuritadilar. Barcha ishtirokchilar bir-birlariga yordam ko‘rsatadilar, yuzaga kelgan qiyinchiliklarni birgalashib hal qiladilar. Talabalardan o‘quv maqsadlarining muvaffaqiyatli kechishida bir-birlarini qo‘llab-quvvatlash, qiziqishlari va intilishlarini namoyon etishda jamoaviy harakat qilishlari talab etiladi.

•7. **Psixologik qo‘llab-quvvatlash tamoyili.** Bunda dars jarayonida sog‘lom ruhiy muhitni yaratish orqali o‘quv faoliyatining samarali bo‘lishiga erishish nazarda tutiladi. Talabalar faoliyati ruhan qo‘llab-quvvatlab turiladi. Past o‘zlashtiruvchi talabalar faol talabalar bilan biriktirilib, ularning faolligini oshirishga e’tibor qaratiladi. Auditoriyada ko‘tarinki kayfiyat o‘rnatalishi lozim bo‘ladi.

•Sanab o‘tilgan tamoyillar bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyaning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Bo‘lajak tarbiyachi-

pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirish mazmuni bir qancha tarkibiy tuzilmadan iborat bo‘lib, 2.1-jadvalda ifodalandi.

- 2.1-jadval

- **Bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirish mazmuni tarkibiy tuzilmalari**

• Motivatsion omillar	• kasbiy ehtiyoj, kasbiy faol bo‘lish, • pedagogik faoliyatga moslashish; o‘zidagi mavjud • tajribani bilimlar bilan boyitish; • hissiy barqarorlik.
• Kasbiy yo‘nalganlik	• sabrlilik, mehnat intizomini bilish, shaxsiy namuna,mehnatsevarlik, hamkorlik munosabatini o‘rnatish, ota-onalar bilan hamkorlik, kasbiy burchi va majburiyatlari.
• Kasbiy faoliyat mazmunidan xabardorlik	• Maktabgacha ta’lim sohasiga doir me’yoriy hujjatlar bilan tanishish; o‘quv-metodik adabiyotlarni o‘rganish; pedagogika va bolalar psixologiyasidagi so‘nggi yutuqlardan xabardor bo‘lish; zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish.
• Kasbiy qiziqishlar	• bolalarni sevish, ularni kuchi va imkoniyatiga ishonish; ilg‘or ish tajribani o‘rganish; o‘z yutuqlarini namoyish etish;
• Ijodiy-refleksiv faoliyat	• ijodiy faoliyatni tashkil etish;o‘z-o‘zini baholash; kreativlik, o‘zgalar faoliyatini kuzatish va baholash.

Talabalarda kasbiy mahoratning shakllanishi ularning shaxsiy sifatlari va faoliyat tuzilishi bilan bevosita bog‘liqdir. Bo‘lg‘usi tarbiyachi-pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlash kasbiy kompetentsiya, kasbiy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish bilan amalga oshadi. Talabalarning kasbiy kompetentlik tarkibiga kasbiy sifatlar, individual xususiyatlar, kasbiy motivlar, qiziqish va moyillik kiradi. Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy rivojlanishi kasbga sodiqlik va kasbiy tayyorgarlikdan boshlanadi

**Adabiyotlar ro’yxati:**

1. Хурвалиева Т.Л. Maktabgacha ta’limda art-texnologiyalardan foydalanish. //Mug‘allim həm yzluksiz bilimlendirio‘ ilimiyy-metodikalıq jurnalı.Nukus.2023, №1/1. P. 185-189.
2. Усова А. П. Обучение в детском саду / Под.ред. А. В. Запорожца. –3 еизд. Испр -М.: Просвещение, 1991. – 168 с

3.Абдуллаева, Д. Р., & Тешабаева, З. С. (2023). ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МОТИВАЦИИ У БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ-ПЕДАГОГОВ. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 714-717.

4. Содиқов Ҳамид Махмудович Бўлажак ўқитувчиларнинг коммуникативнутқ маданиятини ривожлантириш: пед.фан.фал.док. ...дисс. — Тошкент, 2020. – 234 б.

5.Teshabayeva, Z. S. (2021). PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE PRESCHOOL TEACHERS IN THE FIELD OF CONTEXTUAL LEARNING TECHNOLOGIES. Academic research in educational sciences, 2(2), 1360-1367.

6.Ibraimov, X., & Gaynazarova, G. (2023). THE CONTENT OF PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY IN THE PROCESS OF INDIVIDUAL EDUCATION. Science and innovation, 2(B12), 330-333.

## MATEMATIKA DARSINING TUZILISHI VA UNI TASHKIL QILISH METODIKASI

*Sadulloyeva Malohat Hikmatullo qizi  
Uchquduq tuman kasb-hunar maktabi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada matematika darsining tuzilishi va uni tashkil qilish metodikasi, maktablarda matematika fanini o'qitishning maqsadi va uning dolzarb muammolari, matematika ta'lmini yangi sifat bosqichiga olib chiqish haqida to'liq fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** matematika, kasbiy mahorat, matematik-statistik usul, loyihalashtirish, konstruktiv jarayon.

### **Kirish:**

Ma'lumki, ta'lim samaradorligini oshirishda o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini tasavvur qila olish qobiliyatini kengaytirish fikrlash qobiliyatini oshirish muhim omillardan biri sanaladi. Mazkur omillarni rivojlantirishda matematika fanidan sinfdan tashqari faoliyatlarni tashkil qilishni o'rni beqiyosdir. Matematika murakkab fan, shuningdek, bu fandan ta'lim samaradorligi pastroq. O'quvchi fanning murakkabligidan zerikadi va ularning qiziqishlari pasayadi. Natijada o'zlashtirish past ko'rsatgich beradi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya:**

Maktabda matematika ta'lmini yangi sifat bosqichiga olib chiqish matab o'qituvchilarining salohiyati, kasbiy mahorati va ijodkorligiga bevosita bog'liq. Matematika o'qituvchilarining malakasini oshirish, ularni zamonaviy ta'lim metod va texnologiyalari bilan qurollantirish matematika ta'limi oldida turgan dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Matematikani bir-birini to'ldiruvchi ikkita qismga bo'lish mumkin. Nazariy fan matematika ichidagi tuzilmalarni chuqur tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Amaliy fan o'z modellarini boshqa fanlarga taqdim qiladi. Fizika, kimyo va astronomiya, muhandislik tizimlari, bashorat va mantiq matematik apparatlardan doimiy tarzda qo'llanadi. Uning yordami bilan kashfiyotlar qilinadi, naqshlar topiladi, voqealar bashorat qilinadi. Shu ma'noda matematikaning inson hayotidagi ahamiyatini ortiqcha baholab bo'lmaydi. Matematik metodikaning xususiyatlarini rivojlantirish, pedagogik tadqiqotlarda, ijodiy izlanishlarda yangiliklar yaratish, fikrlash samaradorligini oshirish asosiy omillardan biri sanaladi

Binobarin, bo'lajak olimlarning pedagogik izlanishlarini matematikalaşdırish madaniyati ilmiy izlanishlarning intensivligini ta'minlaydi. Ilmiy tadqiqotda matematik-statistik usuldan keng foydalanish hozirgi zamon fanining xususiyatlaridan

birdir. Matematik-statistik usulni qo'llash tadqiqot samaradorligini oshiradi, pedagogik voqelikni to'g'ri ko'rsatish, mavjud voqelikning ichki bog'liqlik qonuniyatlarini aniqlash, turli sharoitlarda uning samaradorligi, rivojlanish darajalarini bilish, pedagogik voqelikni to'g'ri ko'rsatish imkonini beradi.

### Natijalar:

Matematik ta'lim tizimini amalga oshirishga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi, shuningdek ta'limning umumiy maqsadlari, ta'limning ijtimoiylashuvi matematikaning fan sifatida rivojlanishi, matematikaning amaliyotga yo'naltirilganligi, yangi ta'lim g'oyalari va texnologiyalari va natijalari psixologik tadqiqotlar ta'sir qiladi. Bu omillar yig'indisi tashqi muhitni tashkil qiladi va u bevosita matematika ta'lim tizimiga ta'sir qiladi. Tashqi muhitning ko'pgina komponentlari matematikaga uni o'qitish maqsadi orqali ta'sir qiladi.

Matematik ta'limga kompetentlik yondashuvi o'quvchilarning kasbiy, shaxsiy va kundalik hayotida duch keladigan vaziyatlarda samarali harakat qilish imkonini beradigan amaliy ko'nikmalarni takomillashtirish va rivojlantirishni, shuningdek, matematik ta'limning amaliy, amaliy yo'nalishlarini mustahkamlashni nazarda tutadi.

### Muhokama:

Matematika o'qituvchilari matematik amaliyotni raqamli texnologiyalardan foydalangan holda o'zgartirishi uchun hammalliflar va tadqiqotchilar sifatida konstruktiv jarayonning bir qismi bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Shunga qaramay, loyihalashtirish jarayoni juda qiyin, bu yerda: vositalarning matematik ifoda va muloqotga dialektik ta'sirini hisobga olish kerak va loyihalash va tahlil qilishning turli markazlari mavjud.

Matematikadagi nazariyani amaliyot bilan bog'lash bilan bog'liq muammolarni tushunish va tasavvur qilishda tajribaga murojaat qilish mumkin. Biroq tajriba metodi matematikada isbot uchun qabul qilinmaydi. Tabiiy ilmiy fanlar haqiqiy borliqning noma'lum bo'lgan xossalarni topish uchun tadqiqot o'tkazsa, matematika moddiy dunyoning qaralayotgan modellarida yangi xossalarni topadi va yangi modellar yaratadi. Bunga borliqdagi hodisalarini yaxlit talqin qilishga imkon beruvchi matematik modellashtirishlar misol bo'ladi.

### Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mutaxassislarimizning fikri bo'yicha, matematikani yaxshi o'zlashtirgan o'quvchining tahliliy va mantiqiy fikrlash darajasi yuqori darajada bo'ladi. U misol va masalalarni yechishda, balkim hayotidagi turli qiyinchiliklarda ham tezkorlik bilan qaror qabul qilishi, muhokama va muzokara olib borish, ishlarni bosqichma-bosqich bajarish qobiliyatiga ham ega bo'ladi. Shuni ham aytish joizki, o'quvchini matematiklarga xos fikrashi uni kelajakda amalgalashmoqchi bo'lgan ishlar, tevarak-atrofda sodir bo'layotgan voqealari-hodisalar rivojini bashorat qilish darajasiga ham olib chiqadi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jumayev M.E, Matematika o`qitish metodikasi. Toshkent. "Ilm Ziyo" 2011.
2. X.E.Nazarov, Q.Tursunov, A.A'lamov "Matematika o`qitish metodikasi" ma'ruzalar matni, Samarqand, 2010.
3. Jumayev M.E. Matematika o`qitish metodikasi. Toshkent. "Turon-Iqbol". 2016.
4. Yunusova D.I. Matematika o`qitishning zamonaviy texnologiyalari, T.: 2007.

## O'TKIR HOSHIMOVNING "IKKI ESHIK ORASI" ROMANIDA REAL HAYOT TARZI

Ahmadov Odilbek Alibek o'g'li

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Pardayev Sirojiddin Shokir o'g'li

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'z sohasida mustahkam o'rin egallagan atoqli yozuvchimiz O'tkir Hoshimovning dunyodagi ko'plab kitobxonlarning qalbini larzaga solib, muhabbatini qozongan "Ikki eshik orasi" romanidagi qahramonlarning fojiali zamondagi achinarli hayoti haqida so'z boradi. O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi" romanidagi qahramonlarning real hayotini yoritish orqali urush davridagi butun razolat, qatag'on siyosati hamda shunga o'xhash yovuzlik namunalarini qog'ozga o'ramasdan, ochiq-oydin yoritib beradi.

**Kalit so'zlar.** O'tkir Hoshimov, "Ikki eshik orasi", roman, hayot, urush, insonparvarlik, Qora amma, Kimsan, inson.

So'zlarga zeb berishda tenggi yo'q hisoblangan buyuk yozuvchimiz O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani o'z mazmuni jihatining ro'yi-rostligi, personajlarning xatti-harakati, hayotining realliligi, qonli urush zamonining insonlar hayotiga rahna solgan fojiali oqibatlari va shunga qaramasdan insonlar qalbidagi mehr, soflik, muhabbat hamda qahramonlarning bir-biriga bo'lgan e'tibori, insonparvarliligi bilan boshqa yozuvchilarimizning durdona asarlaridan ajralib turadi. Shu tufayli bo'lsa kerak ushbu asar bugungi kunga qadar adabiyot ixlosmandlari oldidagi o'z mavqeyini mustahkam saqlab turibdi.

"Rost bilan yolg'onning o'rtasi – to'rt enlik", degan gap bor. Qiziq, nega endi oz emas, ko'p emas, to'rt enlik? Gap shundaki, ko'z bilan qulqoqning orasi -to'rt enlik ekan. Eshitganingga emas, ko'rganingga isho. Maqsad – shu, - deydi O'tkir Hoshimov o'zining ushbu romanida.[3/5]

Darhaqiqat, bahosi oltinga teng hisoblangan ushbu satrlar bugungi oddiy hayotimizda ham o'z aksini topib kelmoqda. Zero, "Ikki eshik orasi" romanining butun syujeti ham aslini olganda shu rost bilan yolg'on jumlalarini farqlay olish maqsadida yozilgandir. Ushbu romandagi har bir personajning alohida hayoti bor va o'zining dunyoqarashi bilan alohida asar qilib yozsa arziydi .

Romanda o'zining beg'ubor va samimiyligi bilan qalblarni zabit etgan ona obrazi –Qora amma urush davridagi halok bo'lgan, bedarak yo'qolgan, asir tushgan yoki mayib-majruh bo'lgan insonlarning onasi misolida asarga kiritilgan real timsol

hisoblanadi. Qora amma o‘g‘li Kimsanni butun umr urushdan qaytib kelishi umidi bilan azobli, mashaqqatli hayot kechiradi. Zotan, bu obrazning achinarli qismati sovuq urush davridagi har bir ayolning boshiga tushgan edi. Chunki, bu yorug‘ dunyoda kutishdan, sabr qilishdan-da qiyinroq, mashaqqatliroq tushuncha yo‘q. Ammo qaysi ona o‘z o‘g‘lining o‘limini oson qarshi oladi. Albatta , Qora amma umidini uzmaydi.

Ammam yana jimb qoldi. Nafasining g‘ijillashi kuchayib ketdi. Devorga Kimsan akamning suratiga tezgina qarab qo‘ydi-da, xo‘rsindi, yana ming‘illab ashula ayta boshladi:

Jon bolam , jonim bolam , Olloga topshirdim sani ,

Ohimga Ollo yetmadi , tuproqqa topshirdim sani . [3/5]

Yuqorida keltirilgan jumlada o‘g‘lini bir bora ko‘rishga intiq bo‘lgan, hayotga bo‘lgan qiziqishi yolg‘iz jigarbandi – Kimsan hisoblangan Qora ammaning pok mehr-muhabbati o‘z aksini topadi.

Qalami o‘tkir yozuvchimiz O‘tkir Hoshimov urushning eng yovuz alomatlarini fosh etishda asosan Kimsan personajidan foydalanadi. Ya’ni , insonlarning asirga tushgandan keyingi hayotini bugungi insonlar ko‘zi bilan qaraganda o‘lim bilan barobardir. Chunki, insonlar asir tushgandan keyin fashistlar uchun tajriba quyoni vazifasini o‘tashadi . Romanda dushmanlar asir bo‘lgan insonlarni yalang‘och holda muz ichiga tashlab, qancha muddat chidab berishlarini kuzatishadi. Bu qanday razolat? Nahotki , dushmanlarda yurak bo‘lmasa, axir, ular ham odam-ku. Nahot, insonning insonga rahmi kelmasa, achinmasa. Nima bo‘lganda ham biz insonmiz. Eng avvalo, shuni unutmasligimiz lozim. Aslini olganda ,ushbu tajribalarni bugungi hayotimizdagи insonlar hatto hayvon ustida bajarishga ham ko‘zi qiymaydi, yuragi dov bermaydi. To‘g‘ri, o‘sha zamonlarda ham qalbi mehrga to‘la insonlar bor edi: Orif oqsoqol, Husan Duma, Qora amma, Kimsan, Robiya, Olimjon bularning safini istaganimizcha to‘ldirishimiz mumkin. Qalbi mehrga to‘la, tinchlikparvar shuncha inson bo‘la turib , nimaga bu razolatga chidashga majbur qolishgan ekan? degan savol ko‘pchilikni, shu jumladan, meni ham qiziqtiradi. Lekin baribir urush vasvasasi, qo‘rqinchi, samimiy insonlar qalbidagi mehrni o‘ldirolmadi .

Shunga o‘xshash achinarli hikoyalarni bir kitobga jamlashdek mashaqqatli ishni bajarish yozuvchimiz O‘tkir Hoshimovga ham oson bo‘lmagan bo‘lsa kerak. Shubhasiz, fojiali vaziyatlarni real, ochiq-oydin aks ettirish buyuk mashaqqat . Biroq yozuvchimiz bu qiyinchilikni yengib o‘tdi . Shu mehnatning samarasini tufayli bugun biz o‘tmish voqealarini yaqqol baholay olamiz . Ijodkor ushbu asarga sarlavha tanlashda ham sira adashmaga. Zero, ushbu asar urush va tinchlik o‘rtasidagi yorug‘ yo‘l hisoblanadi. Ijodkor ushbu asarni yozyotganda aynan mana shu yorug‘ yo‘lni bosib o‘tayotgan bir palla edi.“Ikki eshik orasi “ romani dolzarb mavzuni yoritganligi uchun ham ko‘plab ijobjiy va salbiy fikrlar bildirilishiga tuyassar bo‘lgan .

Asror Samad bu romanga nisbatan o‘z fiklaridan birida: “Zamonlar o‘tar , odamlar o‘zgarar, taraqqiyot avj nuqtalarga ko‘tarilar, ammo O‘tkir Hoshimovning bu romani boshqa mumtoz asarlar kabi xalq nazaridan qolmasa ajab emas“, - degan edi .

Ushbu fikrning naqadar to‘g‘ri ekanligini anglash sira ham qiyin emas .

### Foydalanilgan adabiyotlar .

- 1.Adabiyot 11-sinf darslik . II qism . Toshkent -2019
- 2.Ikki eshik orasi : roman . O‘tkir HOSHINOV .-Toshkent .Yangi asr avlodи 2016
- 3.Ikki eshik orasi : roman -Toshkent „Sharq“ ,2012 ,-5-b;26-b
- 4.w.w.w.Ziyonet.uz
- 5.Tafakkur.uz

## ETNOGRAFIYANING FAN SIFATIDA TUTGAN O'RNI, BOSHQA SOHALARGA VA XALQNING SHAKLLANISHIDAGI O'RNI

To'xliyeva Madina Soatmurod qizi  
IV Surxondaryo akademik litseyi  
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi  
Tel: +998997572987

### ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada etnografiyaning kelib chiqishi, etnografizmlarning tarixiy va ijtimoiy ahamiyati hamda boshqa fanlarga, xususan, etnolingvistika, etnomadaniyat, xalq og'zaki ijodiga ko'rsatgan ta'siri kabi jihatlar olib berildi.

**KALIT SO'ZLAR:** Etnografiya, etnolingvistika, etnomadaniyat, etnopsixologiya, etnos, etnik birlik, omonastika, antropologiya, folklor

O'tmishdagi milliy madaniyatimizning shakllanib, ma'lum darajada taraqqiy etib kelganligini mukammal o'rghanmay turib, hozirgi kunimizda mustaqillik madaniyatimizni taraqqiy ettirib bo'lmashagini chuqur his etmog'imiz darkor. Tarix - ijtimoiy hayot hamda inson tafakkuri mahsulidir. Shunday ekan o'tmishda yuz bergen har bir hodisa ma'lum ma'naviy-ruhiy, ijtimoiy-siyosiy muhit ta'sirida yuz bergenligini ko'ramiz.

O'z navbatida etnografiya fani etnomadaniyatning shakllanishi zamin hozirladi. Etnomadaniyat fani yuqorida dasturulamal sifatida qo'yilgan ulkan vazifalarni bajarishga qaratilgan. Bu fan asoslarini insonshunoslik fanlariga tayangan holda o'rghanamiz. Yoshlarning umuminsoniy dunyoqarashlarini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatlarini yuzaga chiqarish kabi omillarni ilmiy jihatdan tadbiq etib, yoshlarni Istiqlol g'oyalari asosida tarbiyalash vazifasi yotadi.

Demak, Etnomadaniyat fani asoslariga kirish uchun biz xalqimizning uzoq o'tmish tarixiga e'tibor berishimiz zaruratdir. Etnomadaniyat atamasi ikki iboradan tashkil bo'lib: etno va madaniyat so'zleri qo'shilmasidir. Etno – yunon so'zi elat, xalq demakdir va shu bilan birga, ma'lum bir elat yoki xalqqa bo'lgan ishora, ko'rsatuv. Bu ibora biror xalqning kelib chiqishi (etnogenezi)ni ifodalaydi. Bunday tarzda biz o'zbek xalqining kelib chiqishi, uning etnogenezi (urug'chilik, nasl) ni tushunishimiz kerak. Shu bilan bir vaqtida etno iborasi ko'pchilik ilmiy -nazariy manbaalarda: Etnografiya – xalqlarning kelib chiqishi, turmushi, moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rghanadigan fan sifatida bo'lib biror xalqning turmushi, madaniyati va urf-odatlariiga xos bo'lgan xususiyatlarini ham ko'rsatadi. Etnonim tushunchasi ham mavjud, bu xalq nomi yoki xalq nomini ifodalovchi so'z sifatidagi atamadir. Bu so'zni yanada mukammallashtirish maqsadida Etnonimka iborasi ham ishlatalib leksikologiyaning

xalq, qabila hamda urug‘chilik nomlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘limiga aytildi. Etnograf iborasini ham biz kundalik o‘quv jarayonida qo‘llaymiz va bu iborada biz etnografiya fani bo‘yicha faoliyat ko‘rsatadigan mutaxassisni tushunamiz. Shunday qilib, biz yuqoridaq ta’riflarga qaritilgan barcha ilmiy- tarixiy asoslarga tayangan holda etnomadaniyat fani asoslarini quyidagicha izohlaymiz. Etnomadaniyat biror xalqning kelib chiqishi (bu borada o‘zbek xalqi), uning madaniyati, turmush tarzi, ma’naviy-ma’rifiy xususiyatlarini tarixiy jarayon (davr)larda ravnaq topib hozirgi kunimizgacha rivojlanib kelayotgan ma’naviy hamda madaniy merosini o‘rganadigan fandir.

Binobarin, fanni to‘laligicha o‘zlashtirish, uning nazariy va tarixiy-ilmiy asoslarini izohlash uchun bu fanni bilim tizimi ekanligini o‘rganib chiqishni taqozo etadi. Vaholanki, bu fanni o‘rganib unga izoh berilganda uning madaniy tarixiy jarayon mazmuni, tarixiy takomili va ashyo-yu dalillari, nazariy hamda amaliy (hayotiyligi nuqtai nazaridan) qonuniyati va uslublari asosida taraqqiy etishi, ijtimoiy-moddiy, ma’naviy-ma’rifiy salohiyati, milliy etnik genezi munosabatlaridagi o‘rni, madaniy aloqalar hamda umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlardagi xususiyati, ijtimoiy taraqqiyotdagagi o‘rni kabi serqirra tomonlariga asosiy e’tibor qaratiladi.

Etnomadaniyat fani bilimlar tizimi ekanligini har tomonlama isbotlash uchun quyidagi masalalarni yoritishni taqozo etadi:

Etnomadaniyat fani gumanitar fanlar bilan uzviy aloqadadir. U falsafa, etika, estetika, sotsiologiya, tarix, psixologiya, etnografiya, folklor, musiqa, tasviriy san’at, arxitektura, dinshunoslik, pedagogika hamda adabiyotshunoslik kabi fan asoslari bilan hamkorlikda olib boriladi.

Har bir xalqning madaniyati uning milliy ma’naviyati hamda ma’rifati bilan uzviy bog‘langan. Mustaqil davlatimizning bugungi kundagi ma’naviy-madaniy taraqqiyoti islohotlar davrida qo‘lga kiritilgan yutuqlarimizning garovidir. Vaholanki, biz bu tarixiy ma’naviy va madaniy yutuqlarni har tomonlama tadqiq va tashviq etish uchun yetarlicha shart-sharoit va imkoniyatlarga egamiz. Madaniyat iborasi arabcha Madina (shahar, kent) so‘zidan kelib chiqqan ekan. Shahar ma’nosida kelgan madaniyat so‘zining talqini kishilar hayotini ikki turdagи ko‘rinishi, ya’ni ko‘chmanchi – dasht-u sahrolarda yashovchi xalqlar hamda shaharda yashab, shaharga xos turmush tarzida yashovchi xalqlarga nisbatan ishlatilib kelingan. Xalq turmush tarzi va ma’naviyatining tarkibiy qismini uning azaliy udumlari, urf-odatlari, marosim-u an’analari tashkil qiladi. Bu esa shu xalqning ma’naviyati nechog‘lik shakllanganligini, uzoq o‘tmishga ega ekanligini bildiradi. O‘zbek xalqi ana shunday boy ma’naviyatli xalqlardan hisoblanadi. Urf-odat – kishilarning turmushiga singib ketgan, ma’lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari, ko‘nikmasidir. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, uy-hovlini tartibga keltirib qo‘yish, mehmonlarga alohida hurmat ko‘rsatish, bayram


arafasida keksa, qariyalar, kasal, ojiz, qiyngalgan kishilar holidan xabar olish qo‘niqo‘shnilarning biror ishiga yordam berish, hasharga borish kabilar o‘zbek xalqiga xos yaxshi odatlar hisoblanadi. “Odat” degan tushuncha psixologiyada ham mavjud bo‘lib, u ma’lum sharoit ta’sirida vujudga kelib, kishining fe’l-atvorida mustahkamlanib qolgan va keyinchalik o‘z-o‘zidan beixtiyor bajariladigan harakat ma’nosini bildiradi. An’ana ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning barcha sohalariga xos hodisa sifatida juda keng doirani qamrab oladi. Muayyan bir jamoaning turmush tarzi, xatti-harakati, xulq-atvori, muloqoti va oilaviy munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Marosim – inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko‘tarinkilik vaziyatda o‘tadigan, umum qabul qilingan tartib-qoidalarga amal qilinadigan etnografizm sanaladi. Masalan, ism qo‘yish, chaqaloqni beshikka belash, nikohdan o‘tish, dafn qilish, xotirlash, ekishga kirishish (urug‘ qadash), o‘rishga kirishish, Navro‘z ayyomi kunlari ko‘pchilik bo‘lib sumalak taomini tayyorlash marosimlaridir.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, etnografiya xalqning xalq bo‘lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning bilan birga har bir davr o‘zining udum va marosimlarini, urf-odatlar va an’analarini yaratadi. Yangi vujudga kelayotgan urf-odatlar o‘z-o‘zidan, quruq yerda paydo bo‘lmasdani, asosan, ilgari mavjud bo‘lgan ilg‘or an’analar o‘zgartiriladi va yangilari paydo bo‘ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Qurbanazarova N. Surxondaryo arealidagi to’y marosimi etnografizmlarining leksik-semantik tabiatи va lingvokulturologik tadqiqi. Toshkent – 2019;
2. N.Mirzayev. O’zbek tili etnografizmlarining izohli lug’ati. Toshkent – 1991;
3. Qahhorova M. O’zbek tili etnografizmlarining system tadqiqi. Nomzodlik diss. Toshkent – 2009;
4. Jabborov I. O’zbekxalqi etnografiyasi. Toshkent - 1994;

## ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH



*IV Surxondaryo akademik litseyi  
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi  
Norboyeva Saida Rashidovna*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ona tili darslarida innovatsion

texnologiyalardan foydalanish, ta'lim jarayoni vaqtida interfaol uslublar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv darslari jarayoni vaqtida foydalanishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ona tili fanini o'qitish jarayonini yanada shakllantirish borasida o'z isbotini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar haqida to'liq bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** innovatsion texnologiyalar, interfaol uslublar, axborot texnologiyalari, interaktiv metodlar, metodik ta'minot.

### **Kirish:**

Bugungi ta'lim jarayoni vaqtida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv darslari jarayoni mobaynida foydalanishga bo'lgan intilish, e'tibor kundan – kunga ortib bormoqda. O'qituvchi ushbu jarayonda o'quvchining shaxsiy takomillanishi, rivojlanishi, bilib olishi va tarbiyalanishiga muhit yaratadi va shuning bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyasini ham bajaradi. Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon, shuningdek o'qituvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan keng foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir qilish metodlari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu metod va uslublarning o'ziga xosligi shundan iboratki, ular pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi yordamida amalga oshiriladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya:** Ma'lumki, ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning ayrimlari tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi

natija ko'rsatgan. Keng qo'llaniladigan usullar – "Klaster", "Aqliy hujum", "Davom ettir", "Taqdimot", "Blits-so'rov", "Muammoli vaziyat" kabilardan foydalanib, darsda keng ko'lamli natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash jarayonida "Sinkveyn", "Teskari test", "Aql charxi" uslublarini, yangi mavzuni tushuntirish vaqtida "Insert", "Pinbord", "Zinama-zina", "Bumerang" texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash jarayonida "Venn diagrammasi", "Baliq skeleti", "Nima uchun?", "Qanday?", "Konseptual jadval", "Nilufar guli" kabi grafik tashkil yetuvchilar hamda "Tushunchalar tahlili", "T-jadval", "Rezyume", "Kungaboqr", "Charxpalak" metodlarini, uyga vazifa berishda "FSMU",

"Klaster", "BBXB" texnologiyalarini dars mobaynida qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi. Ona tili fanini o'qitish jarayonini yanada takomillashtirish borasida o'z yechimini kutayotgan

bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Jumladan: -ona tili fanini o'qitishda asosan nazariy ma'lumotlarga e'tibor berilgan bo'lib, o'quvchining nutqiy kompetensiyasini shakllantirishga yetarlicha diqqat-e'tibor

qaratilmagan; -ona tili fanida o'qitiladigan mavzular sinflar kesimida tahlil qilinganda, o'quvchi uchun murakkab bo'lgan ko'plab grammatik mavzularning borligi; ona tili fanini hayot bilan bog'lab o'tishga, ona tilimizning boy sharoitlaridan yetarlicha foydalangan tarzda, o'quvchilarga mazmunli, sodda va qiziqarli shaklda yetkazib

berishga diqqat-e'tibor berilmagan; -o'quvchilar darsliklardagi mavzularni o'zlashtirishida intilish, ishtiyooq, maylni paydo qiladigan, mantiqiy, kreativ, ijodiy fikrlashga chorlovchi mashqlar,

topshiriqlar bugungacha o'z aksini topmagan; ona tili fanini o'qitishning yangi, samarali metodlari, ilg'or pedagogik texnologiyalarini keng joriy etish talab darajasida emas; -ona tili fanining ilmiy metodik ta'minoti yetarli darajada ishlab chiqilmagan;

-o'qituvchi va pedagoglarning metodik ta'minotini takomillashtirish, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari va mutaxassislar uchun masofadan o'qitish kurslari keng joriy qilinmagan;

-majjud oliy ta'lif muassasalarida ona tili fani yo'nalishida o'qituvchi,

pedagog, kadrlarni tayyorlash sifati hozirgi kun talablariga xos kelmasligi ona tili fanini o'qitishni tubdan qayta ko'rib chiqish va zamon talabiga mos tarzda yangilashni taqozo etmoqda.

Natijalar:

Ona tili fanidan "Gapning ikkinchi darajali bo'laklari mavzusi o'rganilgandan so'ng o'quvchilarga "Guruhlarda ishlash texnologiyasi" yordamida "Men

to'ldiruvchiman!" mavzusida ijodiy matn tuzish beriladi. Ushbu metod yakka tarzda, kichik yoki yakka tartibda, kichik yoki katta guruhlar tomonidan ham amalga oshishi ham mumkin. Mavzu borasidan matn o'quvchilar yordamida taqdim etiladi. Bu texnologiya yordamida o'quvchilarning jamoada ishlash malakalari shakllantiriladi, xotirasi

mustahkamlanadi, yozma yoki og'zaki savodxonligi o'stirilib, ijodiy matn yaratish ko'nikmasi yanada mustahkamlanadi. Ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqi va imloviy savodxonligini mustahkamlash niyatida matn yaratish borasidan ko'pgina qiziqarli topshiriqlar

taqdim etish mumkin. Shuningdek, "Morfologiya" bo'limini o'tish vaqtida har bir so'z turkumi borasidan grammatik ertak to'qish vazifasi berilsa, o'quvchilarning grammatik savodxonligi yaxshilash bilan birlgilikda mantiqiy mushohada qilish qobiliyati takomillashadi, ijodkorligi oshadi. Bugungi kunda innovatsion texnologiyalardan foydalanish sohasidagi muhim yo'nalishlardan biri interfaol ta'lif va tarbiya metodlarini joriy etishdan iborat.

Muhokama:

Innovasion texnologiyalar ta'lif sifati va samaradorligini yanada

takomillashtirib, ta'lif jarayonining markaziga o'quvchi va talabalarning o'quv bilish faoliyatini oshirishga yordam beradi, ta'lif jarayoni yaxlitligini ta'minlaydi. O'quvchi faoliyatining yuqori darajadagi ko'rsatkichi, o'quv-bilish faoliyatini tashkil

qilish, iroda va faoliyatning o'quvchi ongining predmetiga aylanishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun, dastlab, ta'lif beruvchi maqsadga eltuvchi

texnologiyalarni tanlay bilishi, o'quv tarbiyaviy jarayon yaxlitligini ta'minlashi zarur. O'qituvchi dars vaqtida boshqa ma'lumotni taqdim qilish bilan bir qatorda internet ma'lumotlari, multimedia dasturlari, jadvallar va shunga o'xshash mavzuga doir qo'shimcha ma'lumotlarni ko'rsatib o'tsa, bu nafaqat o'quvchilarning darsga bo'lgan intilishini oshiradi, balki o'quvchilarning erkin o'qishini talab darajasida

rivojlantirishiga, mavzuni imkon darajasida to'la o'zlashtirishiga ham yordam beradi. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash natijasida o'quvchilarning erkin fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z g'oyasini bayon etish, uni asoslangan tarzda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish malakalari

takomillashib, shakllanib boradi.

### Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishdan assosiy maqsad, o'quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, tahlil qilish ona tili darslarini yanada kengaytirish ushbu yo'lda innovatsion texnologiya va metodlardan foydalanishni kuchaytirishdir.

Innovasion texnologiyalarni ta'lif jarayoniga joriy qilish, ta'lif

samaradorligini yanada shakllantirish uchun tinimsiz izlanish hozirgi kunning ehtiyojiga aylanmoqda. Yangi texnologiyalarni ta'lif jarayoniga tatbiq qilish pedagoglar oldida turgan muammolardan biri hisoblanadi

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Shayxislamov, N.Ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash mahorati. Science and Education,2020.
2. Shayxislamov, N., & Baykabilov, U.Til – millatning ma'naviy merosi. Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari ,2020.
3. Xolbekov, S. B.Adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish samarasi. Science and Education,2020.
4. Rafiyev A. , G'ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T. , “Sharq”, 2013.
5. Sayidahmedov N.”Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”. – T.: 2003.

## ADABIY NUTQ USLUBLARI VA ULARNING ONA TILIDAGI O'RNI



*IV Surxondaryo akademik litseyi  
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi  
Boysariyeva Manzura Yangiboy qizi*

**Annotatsiya:** Nutq madaniyati tushunchasining aniq mavjud hodisa ekanligi, ko'rib o'tilganidek, uning adabiy til va adabiy til madaniyati bilan bog'liqligida bo'lsa, ikkinchi tomondan, kishilarning kundalik nutqiy faoliyati bilan aloqadorlidigidir. Adabiy tilking (muayyan normalarga solingan, silliqlangan madaniy tilning) mavjudligining o'ziga hali nutq madaniyatini tashkil etmaydi. Adabiy tildan, uning madaniylashgan vositalaridan bu tilda gagshruvchi kishilar jamoasi o'z nutqiy faoliyatlarida foydalangandagina adabiy til mavjud nutqiy hodisaga, nutq madaniyatining kuchli vositasiga aylanadi.

**Kalit so'zlar:** nutq, adabiy, nutq, uslubiyat, uslub, ona tili

**Abstract:** The fact that the concept of speech culture is a clearly existing phenomenon, as seen, is due to its connection with the literary language and culture of the literary language, and on the other hand, it is related to the daily speech activity of people. The mere existence of a literary language (polished cultural language with certain norms) does not constitute speech culture. Literary language becomes an existing speech phenomenon, a powerful tool of speech culture only when a group of people who speak this language use literary language and its cultured tools in their speech activities.

**Keywords:** speech, literary, discourse, methodology, style, native language

Hozirgi zamон о'zbek adabiy tilida ta'lim-tarbiya ishlari olib boriladi, ilmiy va badiiy adabiyotlar nashr etiladi, ro'znama va oynomalar chiqariladi. Radio va televidenie eshittirishlarida ushbu til normalariga amal qilinadi. Yozma nutqda, ya'ni yozganda biz o'zbek tilining imlo qoidalariga, gapirganda esa, adabiy talaffuz normalariga amal qilamiz va hokazo. Uzbek adabiy tili, uning madaniy vositalari umummajburiy norma sifatida o'qitiladi va o'rgatiladi. Adabiy til, uning yozma va og'zaki shakli normalar bu tilda so'zlovchilarning ko'psonli shaxsiy nutqlari va bu nutqlar yig'indisidan iborat bўlgan umum norma sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek adabiy tilida minglab, millionlab kishilar gaplashadi. Bu kishilarning har biri aloqida shaxs, alohida nutq egalaridir. Ammo ularning barchasi uchun umumiyoq bo'lgan nutqiy quroq - yagona o'zbek adabiy tilidir. Mana shu ko'psonli shaxslar, bir tomonidan, yagona bitta adabiy til - o'zbek adabiy tilidan foydalanishiga ko'ra, ikkinchidan esa, bitta til atrofida birlashayotganliklariga ko'yra muayyan umumiylilikka, uyushganlikka ega. Mana shu umumiylilik tilshunoslikda til uyushmasi (jamoasi) deb yuritiladi.

Muayyan til uyushmasini mushtarak qilib turadigan asosiy omil aloqa quroli bo'lgan tilning yagonaligi va bu til adabiy normalarining umummajburiyligidir. Adabiy til va uning normalari avvalo o'rta va oliv maktab ta'limi orqali, qolaversa oiladagi tarbiya orqali o'zlashtiriladi. Adabiy tilni egallahda mustaqil shug'ullanish, ayniqsa badiiy adabiyotlarni, ro'znama va oynomalarini o'qish, radio va televidenieni tinglash muhim rol o'ynaydi. Demak, adabiy til, adabiy xil madaniyati o'qish o'rganish, tinimsiz shug'ullanish orqali egallanadigan nutqiy hodisadir. Adabiy nutq va u bilan bog'liq bo'lgan adabiy til madaniyati - bu avvalo nutqiy ko'nikma, nutqiy malakadir. Adabiy nutq malakasiga - adabiy til normalarini egallah orqali erishiladi. O'rta maktab ta'limida nutts, malakasi, nutqiy ko'nikma, yozma nutq ko'nikmasi, og'zaki nutq ko'nikmasi, nutq madaniyati malakasi singari tushunchalar mavjud. Aslida bu tushunchalarning barchasi adabiy til madaniyatini egallah bilan bog'liqdir. Ko'rindiki, adabiy til normalarini qayta nshlash, ongli boshqarish qanchalik zarur bo'lsa, bu normalarni amalda sinab ko'rish va baholash ham shunchalik zarurdir. Mana shunday sababga ko'ra adabiy til normalarini belgilash, uni qayta ishslash, sillqlash birdan boshlanadigan, birdan hal bo'ladigan va tezda tugaydigan jarayon emas, balki doimo va muttasil davom etadigan ishdir. Demak, adabiy til doimiy g'amxo'rlikka muhtojdir. Shunday qilib, nutq madaniyatini egallah - nutq madaniyati ko'nikmasini hosil qilishdir. Bu ko'nikma o'zbek adabiy tili, uning og'zaki va yozma shakli normalarini o'rganish va egallah bilan bog'liqdir. Nutq madaniyati ko'nikmasi - adabiy til va uning normalarini passiv emas, balki faol egallahdir. Tilni faol egallah - tilni ongli ravishda o'zlashtirish va undan og'zaki hamda yozma nutq amaliyotida unumli va xatosiz foydalana olish demakdir. Ba'zi kishilarning o'zbek tilida nuqsonuz va ravan yoza olmasligi yoki adabiy tilda erkin so'zlay olmasligi ularning o'zbek adabiy tilini faol egallaganligidan darak beradi. Nutqning bu ikkala shakli ham yagona adabiy til normalariga tayanib ish ko'radi. Shu sababli ularda mushtarak lug'aviy normalar, umumiyl morfologik, sintaktik vosita mavjud. Ammo yozma nutq amal qiladigan imloviy, punktuatsion normalar og'zaki nutqda, og'zaki nutq amal qiladigan talaffuz normalari, ohangiy (intonatsion) normalar yozma nutqda yo'q yoki etakchi rol o'ynamaydi. Mana shunday farqli tomonlar yozma va og'zaki nutqning sintaktik qurilishida, so'z shakllarining to'liq va noto'liq qo'llanishlarida, imo-ishora bilan bog'liq (paralingivistik) vositalarning ishlatilish xususiyatlarida ham ko'rindi. Bular yozma va og'zaki nutq madaniyatini egallahning o'ziga xos xususiyatlari mavjud ekaniga dalildir. Shu sababli ham nutq madaniyati sohasida yozma nutq madaniyati, og'zaki nutq madaniyati deyilgan tushunchalar mavjud. Bu tushunchalar o'zida yozma va og'zaki nutq shakllari oldiga qo'yiladigan nutq madaniyati talablarini ifodalaydi. Yozma nutq doirasiga ilmiy nutq, rasmiy nutq, publisigik nutq, qisman badiiy nutq, shuningdek radio va televideenie uchun tuzilgan yozma matnlar tili kiradi. Keltirilgan yozma nutq ko'rinishlarining o'zaro farq qiladigan normativ tomonlari bor.

Shunga ko'ra, bu normalarga amal qilish bilan bog'liq bo'lган nutq madaniyati talablari ham mavjudligi shubhasiz. Nutqning keltirilgan vazifaviy tiplari ba'zan ilmiy til, rasmiy til, badiiy til deb ham yuritiladi. Og'zaki nutq dastlab ikki tipga ajraladi: 1) oddiy so'zlashuv nutqi; 2) adabiy so'zlashuv nutqi. Oddiy so'zlashuv nutqi o'zbek tilida tabiiy holda mavjud bo'lган og'zaki nutq ko'rinishlaridan iborat. Masalan, turli o'zbek sheva va lahjalari tili, ya'ni dialektal nutq ko'rinishlari, shevachilik unsurlari ta'sirida bo'lган kundalik so'zlashuvning boshqa xil ko'rinishlari va b. Oddiy so'zlashuv nutqining til bazasini adabiy til tashkil etmaydi. Shu tufayli oddiy so'zlashuvdan biz talqin qilayotgan ma'nodagi nutq madaniyati talab qilinmaydi. Oddiy so'zlashuv oldiga qo'yiluvchi nutqiy talablar aniq lahja va shevalarning tabiiy normalari bilan ko'proq lisoniy talablar bilan bog'liq bo'ladi. Adabiy so'zlashuv nutqi adabiy tilning og'zaki nutq doirasidagi vazifalaridan yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda adabiy so'zlashuv nutqi - adabiy til madaniyatiga, ya'ni adabiy til normalariga amal qilgan holda gapirishdir. Ammo adabiy tilda so'zlash adabiy tilda yozishga nisbatan ancha qiyinchilik bilan erishiladigan jarayondir. Buning bir qator sabablari bor: 1) og'zaki nutqda shevachilikning ta'siri kuchli bo'ladi; 2) og'zaki nutqda yozma nutqdagi kabi o'ylab ish tutish imkonini kam bo'ladi. Chunki og'zaki nutq yozma nutqdan tezkor (avtomatik) jarayon ekani bilan farqlanadi; 3) og'zaki nutqning o'ziga xos grammatik tuzilishi, qurilish tartibi mavjud.

Chunonchi gap bo'laklarining tushib qolishni, qisqarib ketishi, o'rin almashishi, aksincha keraksiz unsurlarning, takrorlarning bo'lishi va b; 4) og'zaki nutqda talaffuz, ohang, imo-ishora vositalari muhim rol o'ynaydi; 5) og'zaki nutqning yuzaga chiqishi so'zlovchining kayfiyatiga, nutq so'zlanayotgan vaziyatga, so'zlovchi nutqiy a'zolarining normal va sog'lomligiga bog'liq; 6) og'zaki nutq normalarining barcha

xususiyatlarini payqash, yozib olish, o'rgatish va o'rganish ancha qiyinchilik bilan kechadi; 7) og'zaki nutq bir butun hodisa (matn) sifatida cheksiz va son-sanoqsiz shaxsiy (individual) faoliyatdir. Uning ko'pgina qirralari turli sharoitlarda o'zicha kechadi va payqalmagan holda beiz yo'qolib ketadi; 8) og'zaki nutqning lisoniy xususiyatlari fanda yozma nutqqa nisbatan kam o'rganilgan; 9) og'zaki nutqni normalash ishlariga shu kunga qadar fanda nihoyatda kam e'tibor berildi; 10) kishiso'zlaganda o'z nutqiga xuddi yozayotgandagi kabi etarli e'tibor beravermaydi va boshqalar.

